NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON
MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SH.S.BOBOYOROV

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Monografiya

«GRAND KONDOR PRINT»
TOSHKENT – 2026

UO`K: 161.11.09
KBK: 89.494
B 29

Boboyorov Sh.S.
Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. [Matn]: // [Monografiya] / Boboyorov Sh.S. – **Toshkent: “GRAND KONDOR PRINT”, 2026 y., 156 b.**

Ushbu monografiyada bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning nazariy asoslari, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish pedagogik muammo ekanligi hamda zamonaviy ta’lim tizimida kasbiy kompetentlilikning mohiyati va tuzilmasi bayon etilgan. Kasbiy kompetentlik bo‘lajak tarix o‘qituvchi shaxsining zaruriy tarkibiy qismi ekanligi o‘rganilgan. Shuningdek, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini shakllantirishning integratsion pedagogik shart- sharoitlari, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini amalga oshirishning metodologik yondashuvlari ishlab chiqilgan, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasi tahlil etilgan.

Monografiya umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilari, oliy o‘quv yurtlari tarix ta’lim yo‘nalishi talabalari va tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:
tarix fanlari doktori, professor D.N.Abdullayev

Taqrizchilar:
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor D.X.Narzikulova
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor M.E.Mamarajabov

Monografiya O‘zMPUning Ilmiy texnik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (2026-yil 24-aprel 4-sonli ilmiy texnik kengashi qarori).

ISBN 978-9910-9142-8-7

© Boboyorov Sh.S. 2026
© «GRAND KONDOR PRINT» 2026

KIRISH

Jahon oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini takomillashtirish asosida tarix yo‘nalishi talabalari, ularda integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetentlilikni shakllantirish hamda rivojlantirishning kreativ modulli texnologiyalari ta’lim jarayoniga tadbiq etilmoqda. “Educating for Diversity and Democracy: Teaching History in Contemporary Europe” Yevropa Kengashining 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan intergovernmental (hukumatlararo) loyihasi[1]; Incheon Declaration: Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all deklaratsiyasi[2]; OECD konsepsiyalari[3] asosida tarixni o‘rganish, yosh avlodning siyosiy va ijtimoiy identitetini shakllantirish, inson huquqlari, madaniyatlararo muloqot va demokratik qadriyatlarni rivojlantirish, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, xalqaro miqyosda ta’lim tizimlarining sifat-samaradorligini oshirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini aniqlash, ta’limning xalqaro miqyosda sifat-samaradorligini oshirish va rivojlantirish bo‘yicha AQSH, Rossiya, Yaponiya, Koreya, Angliya va Germaniyada integrativ yondashuv asosida tarix ta’limining sifatini oshirish orqali pedagoglarning kasbiy kompetentliligini takomillashtirish, o‘quv dasturlari uyg‘unligini shakllantirish, yirik amaliy loyihalarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetentliligini rivojlantirishni kompleks, tizimli jarayon sifatida tahlil qilish, ushbu yondashuv orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni faqat bilim beruvchi emas, tahlilchi, tadqiqotchi, innovatsion pedagog sifatida shakllantirish, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishda epistemologik yondashuvdan foydalanish, tarixiy tafakkur va tarixiy

[1] “Educating for Diversity and Democracy: Teaching History in Contemporary Europe” Yevropa Kengashining 2022–2024 yillarda amalga oshirilgan intergovernmental (hukumatlararo) loyihasi

[2] “Incheon Declaration: Education 2030 — Towards Inclusive and Equitable Quality Education and Lifelong Learning for All”/ YUNESCO Ta’lim bo‘yicha Jahon Konferensiyasi 2015y. 21-may Koreya Respublikasi Incheon shahri

[3] https://www.oecd.org/en/publications

bilimlarga ilmiy yondashuvlar asosida kompetensiya strukturasining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishda raqamli manbalar bilan ishlash, tarixiy manbalarni tahlil qilishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z faoliyatlarini baholay olishi va kasbiy identitetini shakllantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda bo‘lajak tarix o‘qituvchilarning kasbiy kompetentlilik qobiliyati va malakalarini rivojlantirish, talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishga ustuvor yo‘nalish sifatida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ta’lim amaliyoti integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni shakllantirish omillarini aniqlashtirish, konseptual modeli va pedagogik- texnologik tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish[4] maqsad qilingan. Bu esa, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi”gi, 2017-yil 20- apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-son Farmoni/ https://lex.uz/ru/docs/-4545884

yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son O‘zbekiston Respublikasining “Oliy ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetenliligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida

BMT Bosh assambleyasining 70 yillik yubiley sessiyasida qabul qilingan “Barqaror rivojlantirish maqsadlari” (SDG)[5] hamda “Yevropa oliy ta’limining yagona maydoni (EHEA) konsepsiyalari[6] mazmunida kadrlarni tayyorlash va ularning universal kompetensiyalarini rivojlantirish, kasbiy malakalarini uzluksiz rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish” strategik yo‘nalish sifatida belgilangan. Shu bois, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 27-fevraldagi qarorida “Pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo‘shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun professional pedagog kadrlar yetkazib berish”[7] maqsad qilinib, pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagicha belgilangan: tarbiya va o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirgan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash; pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzluksiz tizimini joriy qilish; pedagogik ta’lim sohasining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o‘quv-

[5] BMT Bosh assambleyasining 70 yillik yubiley sessiyasi, 2015-yil 15-sentabr, Nyu-York

[6] Yevropa oliy ta’lim maydoni (EPO) (eng. European Higher Education Area (EHEA)) — Boloniya jarayonida ishtirok etadigan barcha mamlakatlarning oliy ta’lim sohasidagi yagona Yevropa ta’lim maydoni. 2010-yil, mart, Budapesht-Vena konferensiyasi

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 27-fevraldagi qarori

me’yoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish; sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish; pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o‘rganib borish, ular bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirish; oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish; pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish; pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish; yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko‘nikmaga ega, tarbiya, o‘qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish.[8]

Globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda zamonaviy ta’lim tizimi paradigmalariga qo‘yilayotgan yangi talablar asosida pedagogik imidjning verbal, noverbal vositalari orqali bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy trayektoriyasini oshirish, tarix fanini o‘qitish mazmuni, vositalari, mexanizmlari va natijalarini real hayotga implementatsiyalash, pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Ayniqsa, tarix ta’limi jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti, milliy o‘zlikni anglash, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va yoshlarni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning muhim ilmiy-amaliy muammolaridan biri

[8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 27-fevraldagi qarori

sifatida namoyon bo‘lib, bugungi kunda tarix o‘qituvchisidan faqat tarixiy bilimlarni yetkazish emas, balki o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, tarixiy voqealarni tahlil qilish, manbalar bilan ishlash va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish, ta’lim texnologiyalarini tarixiy simulyatsiyalar bilan boyitish talab etilmoqda. Bu esa bo‘lajak tarix o‘qituvchisining yuqori darajadagi kasbiy kompetentlilikka ega bo‘lishini taqozo etadi.

Kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasi pedagogika sohasidagi eng murakkab hamda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur kompetensiyalarni aniqlash va baholashga xizmat qiluvchi aniq mezonlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligini ham e’tirof etish zarur. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi, avvalo, pedagogning kasbiy mahorati, amaliy faoliyati va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Milliy tarixiy merosimiz va ma’naviy manbalarimizda esa kasbga yo‘naltirilganlik g‘oyalarining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati hamda inson kamolotidagi muhim jihatlari haqida ko‘plab ilmiy va falsafiy qarashlar ilgari surilgan. L.S.Vigotskiy, E.F.Zeyer, N.G.Kovalevskaya, A.N.Leontev, M.I.Lukyanova, A.K.Markova, S.L.Rubinshteyn, B.Xodjayev, O.Qo‘ysinov, M.Sobirova, M.Umaraliyeva, N.Karimova[9] va boshqalar o‘z ilmiy ishlarida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik-pedagogik asoslari, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, malakali kadrlar tayyorlash masalasini ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etishgan.

[9] Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. - М., Изд-во АПН РСФСР, 1956. - С.438-452; Зеер Э.Ф. Личностно-ориентированное профессиональное образование. - Екатеринбург, 1998. - 186 с.; Ковалевская Н.Г. Формирование у старшеклассников готовности к самообразования: автореф. дис...канд.пед.наук / Н.Г.Кавалевская. - М.: 1993. - 19 с.; Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - Изд. 2-е. - М.: Политиздат., 1975. - 304 с.; Лукъянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя // Педагогика. - 2001. - № 10. - С. 56-61.; Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Знание, 1996.308 с.; Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - СПб.: Питер, 2006. – 713; Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидиктик таъминот воситасида ривожлантириш. Дис...пед.фан. док - Т.: 2016. - 314-б.; Қўйсинов О. А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари. пед. фан. док.дисс. (DSc), Т.:2019, 237б; Собирова М. Н. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг касбий компетентлигини ривожлантириш.. Пед. фан.док. дисс. (PhD), Т.: 2018, 174 b; Umaraliyeva M.A. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish.ped.f.f.dok. diss. Toshkent, 2020, 144b. 14-bet; Каримова Н. Н. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантириш. Пед. фан.док. дисс. (PhD), Т.: 2018, 164 b

Kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’lim (competence-based education - CBE) amerikalik tilshunos N. Xomskiy tomonidan taklif etilgan “kompetensiya” atamasining umumiy ma’nosida shakllandi. Yevropa Kengashi dasturi bo‘yicha Bern shahrida bo‘lib o‘tgan simpoziumda “kompetensiya” tushunchasi “o‘quv”, “kompetentlik”, “qobiliyat”, “mahorat” singari tushunchalar qatoriga kiritilganligi ta’kidlanadi. Shuningdek, ta’lim vazirlarining Boloniya deklaratsiyasida ham “kompetentlik” ta’limni isloh qilishning konseptual asosi sifatida belgilandi.[10] N.A.Muslimovning fikricha, inglizcha “competence” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi “qobiliyat” demakdir, biroq kompetensiya atamasi bilim, ko‘nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi.[11]

N.V.Tarasova kompetensiya tushunchasini muammoni hal etish uchun bilim va vaziyat, bilim va harakat o‘rtasida aloqadorlikni ta’minlash imkonini beradigan bilim, qadriyatlar, layoqatlarga asoslangan umumiy qobiliyat sifatida talqin etadi.[12]

V.I. Andreyevning fikricha, kompetensiya - bu ma’lum o‘quv, kasbiy va boshqa kompleks masalalarni yechishda namoyon bo‘luvchi, rivojlanib boruvchi integral ko‘rsatkich bo‘lib, shaxsning (ijobiy motivatsiya, bilim, mahorat, iqtidor va ijodiy faoliyat tajribasini o‘z ichiga oluvchi) tayyorgarlik darajasidir.[13]

S.I. Ojegovning fikricha, “Kompetensiya - biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo‘lgan masalalar doirasi; biror kishining vazifalari, huquqlari doirasi”. “Kompetentlik - biror soha bo‘yicha har tomonlama chuqur bilimga ega bo‘lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining sifati”[14]

B.Xodjayevning fikricha, kompetensiya (lotincha so‘z bo‘lib, erishaman, to‘g‘ri kelaman ma’nolarini bildiradi) - subyektning maqsadni qo‘yish va unga

---

10 Умаралиева М.А. Организационно-педагогические условия формирование профессиональной компетентности педагогов/ Узлуксиз таълим тизимида ҳамқорлик педагогикаси-Халқаро конференция.Тошкент.2014.С.159-163.

11 Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. - Т., 2007. 315 б.

12 Махмудов С. Таълим хизматлари бозорида ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларининг рақобатбардошлиги // Касб-ҳунар таълими журнали, 2001, №3. 26-27-б.

13 Махмудов С. Проектировании оформление технологической карты урока // Соғлом авлодни шакллантиришда илғор педагогик технологияларнинг ўрни / Тошкент вилояти ёш олимларининг II илмий-амалий анжумани. - Т., 2000. 43-45-б.

14 Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка: 80 000 слов и фразеологических выражений. - М.: Азбуковник. 1997. - 944 с.

erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishiga tayyorligi boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarini yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir.[15]

O.Qo‘ysinovning fikricha, kompetensiya o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganish, shu kun va davr talablarini his etish, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g‘ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.[16]

M.Sobirovaning fikricha, kompetensiya insonga nafaqat kasbiy, balki uning butun hayotiy faoliyati davomida kerak bo‘ladigan qobiliyatlar yig‘indisidir. Ularni to‘la egallamay turib hech bir mutaxxasis o‘z pedagogik faoliyatini muvaffaqqiyatli yurita olmaydi. Kompetentlik - bu subyekt uchun shaxsiy ahamiyatli faoliyatda namoyon bo‘luvchi uning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlari yig‘indisi.[17]

Bizningcha, kompetensiya shaxsning ma’lum bir faoliyatni samarali amalga oshirish zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba hamda shaxsiy sifatlarining uyg‘unlashgan majmuasi bo‘lib, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini ifodalaydi. U faqat bilimga ega bo‘lish emas, balki muayyan vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish, muammoni hal etish va samarali faoliyat yuritishni o‘z ichiga oladi.

Kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishini ifodalaydi. Mazkur o‘rinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to‘la ochiladi, u

[15] Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидиктик таъминот воситасида ривожлантириш. Дис...пед.фан. док - Т.: 2016. - 314-б.
[16] Қўйсинов О. А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари. пед. фан. док.дисс. (DSc), Т.:2019, 237б
[17] Собирова М. Н. Бўлажак бошланғич синф ўқитувчисининг касбий компетентлигини ривожлантириш.. Пед. фан.док. дисс. (PhD), Т.: 2018, 174 b

quyidagi ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: kompetentlik - mutaxassisning shaxsiy sifatlari to‘plami; kasbiy sohaning asosiy talablari ko‘rinishida. Kompetentlik talaba tomonidan alohida bilim va malakalar egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiluvchi talablar nuqtayi nazaridan kompetentlik talabalarning muayyan vaziyatlarda bilim, malaka va faoliyat usullari to‘plamini maqsadga muvofiq qo‘llash qobiliyatini anglatadi.[18]

Kompetentlik shaxsning doimo rivojlanib boruvchi sifatlaridan biri bo‘lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o‘z bilimi, o‘quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlari va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari.[19] Kompetentlik - bu bilimlarni namoyon etishning o‘ziga xos turi bo‘lib, shaxsning umumiy intelektual rivojlanishida, kasbiy masalalarni maksimal darajada samarali hal qila bilish va tevarak-atrofni obyektiv baholay bilish imkonini beruvchi aqliy tajribaning tarkibiy qismlari, axborotni qayta ishlash mexanizmi, individual ravishda intellektual faoliyatni tanlay bilish ko‘nikmasining shakllanganligida o‘z ifodasini topadi.[20] Kompetentlik o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi. Kompetentlikka ega shaxs muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va yo‘llardan foydalanishni yaxshi bilish, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlash va qo‘llash, to‘g‘ri kelmaydiganlarini rad etish, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.[21]

N.Karimovaning fikricha, kompetentlik - shaxsning o‘z oldiga qo‘yilgan

[18] Қўйсинов О. А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари. пед. фан. док.дисс. (DSc), Т.:2019, 237б

[19] Кулешова А.И. Формирование профессиональной компетентности графического дизайнера в вузе: Дис. ... пед. наук. - Тула.: ТГУ, 2009. - 178 с.

[20] Муслимов Н.А. Бўлажак ўқитувчиларни касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнида компетентлик//Меҳнат ва касб таълими ўқитувчилари касбий компетентлигини таъминлашнинг интегратив технологиялари: Республика илмий-амалий конференция материаллари.- Тошкент:ТДПУ,2010.-Б. 114-118.

[21] Муслимов Н.А., Каримова Н.Н. Касб таълими ўқитувчиларини амалий компетентлигини шакллантиришда ихтисослик фанларининг ўрни // Педагогик таълим.- Тошкент. 2012. -№ 1. - Б. 61-64.

vazifalarni bajara olish qobiliyatidir. Shaxsning aniq ishni bajarishida egallagan bilimlari, mahorati va ko‘nikmalariga tayanadi. Shu bilan birga, uning kognitiv va doimo rivojlanib boruvchi ko‘nikmalari, maqsadlari, ruhiy kechinmalari va boshqa sifatlari ham “kompetentlik” tushunchasi mohiyatini ochib beradi. Shaxsning bir-biri bilan uzviy bog‘langan barcha sifatlari kompetentlikni kompleks tushunish imkonini beradi.[22]

Kompetentlikni shaxs faoliyatiga jalb etilganlik darajasi sifatida belgilash mumkin. Mazkur ta’rif quyidagi ta’rif bilan mos keladi. Kompetentlilik - bu “dunyo bilan adekvat aloqa”ni ushlab turuvchi, uni tushunishga va harakatga bo‘lgan qobiliyatdir. Ya’ni bunday ma’nodagi kompetensiyani “qobiliyatning faoliyatda aks etishi” deb nomlash mumkin uning asosiy jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: maqsadni yo‘naltirishga tayyorgarlik; baholashga tayyorgarlik; faoliyatga tayyorgarlik; refleksiyaga tayyorgarlik. Kasbiy kompetentlilik mazkur insonni kasb talablariga moyillik darajasining individual xususiyati hisoblanadi. Pedagogning kasbiy kompetentligi pedagogik masalalarni mustaqil va yetarli darajada samarali hal etish imkonini beruvchi, uning shaxsiy imkoniyatlarini belgilab beruvchi tuzilma.[23]

Y.A.Kamenskiy o‘qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolani sevish, yuksak axloq, bilimdonlik, iqtidor, qobiliyat kabilarni kiritib, ularning mohiyatini atroflicha tavsiflab bergan. [24]

I.G.Pestalossi o‘qituvchining kasbiy sifatlariga baho berishdan umuman chetlashib, uning ta’lim tarmog‘ini takomillashtirishdagi o‘rniga atroflicha to‘xtalib o‘tgan.[25]

A.Disterverg o‘z tadqiqotlarida “Yaxshi o‘qituvchi o‘zining tarbiya prinsiplaridan hech qachon qaytmaydi. O‘qituvchi o‘z ustida doimo mustaqil ishlashi lozim. Yomon o‘qituvchi haqiqatni aytib qo‘ya qoladi, yaxshi o‘qituvchi esa

22 Каримова Н. Н. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантириш. Пед. фан.док. дисс. (PhD), Т.: 2018, 164 b

23 Педагогика назарияси ва тарихи. 1-қисм: Педагогика назарияси. (М.Х.Тохтаходжаева ва бошқ.) - Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2007. 380 б.

24 Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения // Н.В. Кузьмина. - М.,1990. - С. 119.

25 Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. // Учебник для студ. Пед. ВУЗов: в 2 кн. - М.: ВЛАДОС, 1999. - С. 256.

bolalarga haqiqatni topishga o‘rgatadi”, -deb ifodalaydi.[26]

Jon Lokk o‘qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlari orasiga mo‘tadillik, g‘ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi xislatlarni kiritib, ularning ta’limdagi roli yuzasidan mulohaza yuritadi.[27]

A.I.Gersenning fikricha, har qanday o‘qituvchida mahorat va iste’dod bo‘lishi zarurki, unga boshqa o‘qituvchilar havas qila olsin.[28]

K.D.Ushinskiyning fikricha, “hech bir dastur, sun’iy organizm puxta ishlab chiqilganiga qaramay, inson shaxsining o‘rnini bosa olmaydi. O‘qituvchi shaxsining o‘ziga xos muhim fazilatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: o‘qituvchining xarakteri, ya’ni uni hamkasblari, atrofidagilar bilan muloqoti; his-tuyg‘usi; uning ta’lim oluvchilar bilan munosabatga kirishish layoqati; o‘qituvchining ta’lim oluvchilarga xuddi ota-onasi kabi yaqinligi”dir.[29] Binobarin, bu kabi fazilatlar o‘qituvchining ta’lim- tarbiyadagi yuksak mahoratini belgilaydi va natijada jamiyat uchun xizmat qiladigan komil yosh yigit-qizlar voyaga yetadi. Yuqoridagi fikrlardan ma’lumki, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning integratsion omillarining shaxsiy refleksiv shakllarini intuitiv shakllarda qaror toptirish, jamiyatni taraqqiy ettirishda bo‘lajak o‘qituvchilarda egallanishi ko‘zda tutilayotgan kasbga doir shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida ta’kidlanmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili ta’kidlashga imkon beradiki, pedagogning kasbiy kompetentligiga oid tadqiqotlarda “kasbiy kompetentlik” tushunchasi turlicha talqin qilinadi: bilim va kasbiy muloqot malakalari V.N.Vvedenskiy, I.V.Grishina, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, Y.B.Naumkina, T.M.Sorokina, N.F.Talizina;[30]

---

26 Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения // Н.В. Кузьмина. - М.,1990. - С. 119.

27 Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения // Н.В. Кузьмина. - М.,1990. - С. 119.

28 Вдовина С.А. Профессионально-педагогическая компетентность и ее структура // Современные направления развития педагогической мысли и педагогика И.Е.Шварца. Материалы международной научно-практической конференции.(1-2 июня 2009 г.,г.Пермь.) Часть I./Под редакцией Л.А.Косолаповой, Н.Г.Липкиной, Г.В.Похмелкиной, Перм.гос. пед. ун-т.Пермь: 2009. - С.161-166.

29 Махмудов С.Ю., Голиш Л.В., Нуриддинов Б., Лламуратов Ш., Лхметова К. Педагогический мониторинг: Проектирование и реализация. Экспериментальное методическое пособие из серии «Что нужно знать обучающему о современных технологиях обучения?». - Т.: ИРС'111IO, 2001. - С. 44.

30 Введенский В.Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога/ В.Н. Введенский //

faoliyatning muayyan turlarini mustaqil bajarishga tayyorlik, kasbiy vazifalarni hal qilish va o‘z mehnati natijalarini baholash malakalari V.A.Slastenin, E.F.Zeyer, A.I. Shcherbakov[31], kasbiy rivojlanish va malaka oshirishga qodirlik, o‘zini kasbiy mehnatda namoyon qilish A.K. Markova, R.S.Gershunskiy[32] tadqiq qilingan.

M.A.Umaraliyevaning fikricha, o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida shakllantirilishi va rivojlantirilishi lozim bo‘ladigan kompetentli pedagoglarni shaxsiy sifatlari analogi sifatida qarash kerak bo‘ladi.[33] O‘qituvchining kasbiy kompetentligi esa uning har xil vaziyatda paydo bo‘ladigan muammolarni hal qilish uchun samarali harakat qilish qobiliyatining shakllanganligidir.[34]

L.M.Mitinaning fikricha, “Pedagogik kompetentlik” tushunchasi o‘z zamirida bilim, layoqat va ko‘nikmalar, shuningdek shaxs faoliyati, muloqoti, rivojlanishi (mustaqil rivojlanishi)da ularni qo‘llash usullari va yo‘llarini qamrab oladi.[35]

N.V.Kuzmina kasbiy pedagogik kompetentlilikning besh element yoki ko‘rinishni ta’kidlagan: o‘qitilayotgan fan doirasidagi maxsus va kasbiy kompetentlik; o‘quvchilardagi bilim, malakani shakllantirishning usullari sohasida metodik kompetentlik; muloqot jarayoni sohasidagi ijtimoiy psixologik kompetentlik; o‘quvchilardagi motiv, qobiliyatlar sohasidagi differensial- psixologik kompetentlik;

Педагогика. - 2003. - №10. - С. 51-55.; Гришина И.В. Профессиональная компетентность руководителя школы как объект исследования. Монография. СПб., 2002.- 232 с.; Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования / И.А. Зимняя // Высшее образование сегодня. - 2003. № 5. С. 34-42.; Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения / Н.В. Кузмина. - М.: Высшая школа, 1990. - 117 с.; Наумкина Ю.Б. Самосовершенствование учителей с разными уровнями профессионально-педагогической компетентности. // Социальная психология XX1 столетия. / Под редакцией проф. Козлова В.В. Ярославль, 2002. - С. 285.; Сорокина Т.М. Развитие профессиональной компетенции будущего учителя средствами интегрированного учебного содержания // Начальная школа. - 2004. - №2. С. 110 - 114.; Талызина Н.Ф. Пути разработки профиля специалиста / Н.Ф.Талызина, Н.Г.Бенченюк, Л.Б.Хахловский. - Саратов: Изл-во Саратов. Ун-та, 1987. - 174 с.;

[31] Сластенин В. А., Руденко Н. Г. О современных подходах к подготовке педагога // Педагогика. - 1999. - № 6. - 55-62 с.; Зеер Э.Ф., Заводчиков Д. Идентификация универсальных компетенций выпускников работодателем // Высщее образование в России/ - 2007. -№2; Шчербаков А.И. Формирование личности учителя в процессе его профессиональной подготовки. Монография. 1969. - 168 с.

[32] Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Знание, 1996.308 с.; Гершунская Р.С. Дидактические условия применения средств обучения в профессиональной подготовке учащихся: Автореф. дисс. ... канд.пед.наук. - Казань, 1987. - 22 с.

[33] Umaraliyeva M.A. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish.ped.f.f.dok. diss. Toshkent, 2020, 144b. 14-bet

[34] Педагогика: энциклопедия.П.жилд,/ тузувчилар жамоаси - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти,2015.-84б.

[35] Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий шаклланиши // Монография. - Т.:Фан, 2004. 44 б.

shaxsiy faoliyat, shaxs qobiliyatlari va kamchiliklari sohasidagi autopsixologik kompetentlilik.[36]

V.N.Vvedenskiy fikricha, pedagogning kasbiy kompetentligi bilimlar, layoqat va ko‘nikmalar to‘plami emas, balki amaliy pedagogik praktikada ularning qo‘llash zaruriyati va samaradorligidir. [37]

G.K.Selevko fikricha, kompetentlik - bitiruvchi tomonidan pedagogik faoliyatning metod va vositalarini haqiqatdan ham egallaganligi, qo‘yilgan vazifalarni bajara olish imkoniyatlarini tayyorgarligida ifodalanadigan ta’lim natijasi. [38]

E.I. Rogov kasbiy mahorat va kompetentlik tushunchalarini birlashtirib - bu pedagogik ko‘nikmalar shakllanish va uzoq vaqt davomida amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat jarayonida shakllanadigan, maxsus sharoitlarda murakkab kasbiy masalalarni yangi sifat, samaraliroq darajada yechishni ta’minlaydigan psixofiziologik, psixologik va shaxsiy o‘zgarishlar majmui sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, kasbiy mahoratning shakllanishi quyidagi uchta yo‘nalishda amalga oshadi: Butun faoliyat tizimi, uning funksiyalari va iyerarxik tuzilishining o‘zgarishi. Mehnat ko‘nikmalarining paydo bo‘lish jarayonida shaxsning professional mohirlik darajasining oshishi, faoliyatni o‘ziga xos bajarish uslubining rivojlanishi, ya’ni faoliyatning shaxsiy uslubining shakllanishi; Subyekt shaxsi xatti-harakatlarining o‘zgarishi (motorikada, gapda, hissiyotda, muloqotda), shuningdek, professional ongning tegishli elementlari (professional diqqat, perpetsiya, xotira, fikrlash, hissiy-iroda sohalarida) o‘zgarishida namoyon bo‘ladi, qaysiki kengroq olib qaralganda professional dunyoqarashning shakllanishi sifatida qaralishi mumkin; qiyinchiliklarga qaramasdan o‘zaro hamkorlik va ushbu hamkorlikdan qoniqish; amaliy sohada - obyektga ta’sir ko‘rsatishda o‘zining real imkoniyatlarini anglab yetishi.[39]

---

36 Скворцова С. А. Математическая компетеность младшего школьника. // С. А. Скворцова // Учительство и ученичество как социально-педагогические феномены: материалы заочной научно-практич. конфер. с междунар. участием. - Ростов-на-Дону.: Изд-во Антей, 2010. - С.137-141.

[37] Вдовина С.А. Профессионально-педагогическая компетентность и ее структура // Современные направления развития педагогической мысли и педагогика И.Е.Шварца. Материалы международной научно-практической конференции.(1-2 июня 2009 г.,г.Пермь.) Часть I./Под редакцией Л.А.Косолаповой, Н.Г.Липкиной, Г.В.Похмелкиной, Перм.гос. пед. ун-т.Пермь: 2009. - С.161-166.

[38] Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий шаклланиши // Монография. - Т.:Фан, 2004. 44 б.

39 Рубцов В.В. Система психологической поддержки образования в Зеленограде // В.В. Рубцов, П.А. Малыхин,

V.A.Slasteninning fikricha, pedagogik kompetentlilik pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarlikning birligi. Tayyorgarlik pedagogik malakalar (analitik, bashorat etuvchi, loyihali, refleksli, axborotli, yo‘naltiruvchi, kommunikativ va h.k.) tuzilishi orqali ochib beriladi.[40]

Jon Rivenning fikricha, kasbiy kompetentlik aniq predmet sohasida aniq harakatlarni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan va tor doiradagi, predmetga xos bo‘lgan ko‘nikma, fikrlash usullari, shuningdek harakatlariga javobgarlikni tushinishini o‘z ichiga olgan o‘ziga xos layoqat.[41]

V.D. Shadrikov va N.V. Kuzminalarning fikricha, kasbiy kompetentlik - bu ma’lum bir kasbda o‘rnatilgan standartlarni bajara olish layoqati. K.V. Shaposhnikovning fikricha, kasbiy kompetentlilik kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida mutaxassis tomonidan samarali qarorlar qabul qilish layoqatidir. [42]

B.G.Ananyev, A.I.Donsov, N.V. Kuzmina, A.A. Derkachlarning fikricha, kasbiy kompetentlik - bu shaxs professionalizmining asosiy kognitiv komponenti hisoblanadi va yuqori samarali kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi kasbshunoslik sohasiga oid muntazam ravishda rivojlanuvchi bilimlar tizimidir.[43]

L.V.Golish fikriga ko‘ra, raqobatbardosh mutaxassis modeli quyidagi uchta komponentdan iborat bo‘lishi kerak: kasbiy kompetentlik - ishchining tegishli ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko‘rsatishga layoqati va tayyorligining umumiy ko‘rsatkichi; ijtimoiy kompetentlik - o‘quvchiga kelajakda o‘zini shaxs sifatida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish imkonini beradigan, u tomonidan umumiy va kasbiy madaniyat, jamiyat qadriyatlari va me’yorlari, pozitsiya va oriyentatsiyalarni o‘zlashtirilishini ifodolovchi umumiy ko‘rsatkich; shaxsning ijtimoiy muhim sifatlari va xususiyatlari - muvaffaqiyatli hayotiy faoliyat uchun muhim ahamiyatga ega

---

Е.Ю. Федосова, С.Б. Малых // журнал Психологическая наука и образование, 2001. № 3. - С. 35-43.

[40] Сластенин В. А. Педагогика: инновационная деятельность // В. А. Сластенин, Л. С. Подымова. - М.: ИЧП Издательство Магистр, 2000. - С. 224.

[41] Психология и педагогика. Учебное пособие // Отв. ред. А.А. Бодалев, В.И. Жуков, Л.Г. Лаптев, В.А. Сластенин. - М.: Изд-во Института Психотерапии, 2002- С. 585.

[42] Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. // Учеб. для студ. высш. учеб. заведений: В 2 кн. - М.: ВЛАДОС, 2003. - С. 576.

[43] Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. // Учеб. для студ. высш. учеб. заведений: В 2 кн. - М.: ВЛАДОС, 2003. - С. 576.

bo‘lgan umumijtimoiy sifatlar va xususiyatlarning umumiy ko‘rsatkichlari.[44]

O.Qo‘ysinovning fikricha, Bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning maqsadi kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonida ta’lim oluvchining o‘z- o‘zini anglash, baholash va boshqarish kabi fazilatlarini rivojlantirishdir.[45]

B.B.Gershunskiy kompetentlikni “savodlilik”, “ta’lim olganlik”, “madaniyat”, “mentalitet” kabi tushunchalar bilan o‘zaro aloqadorlikda olib qaraydi.[46]

N.N.Mankoning fikricha, pedagogning texnologik kompetentliligi - mavjud pedagogik tizim obyektlarini o‘zgartirish faoliyatida qo‘llaniladigan kreativ-texnologik bilimlar, qobiliyatlar va stereotiplar tizimidir. «Bilim olish faoliyatining amaliy va intellektual mexanizmlarini takomillashtirish, didaktik vositalar yordamida o‘qish-o‘rganish faoliyatining rejasini tuzish, o‘quv faoliyatlarini rejalashtirish boshqaruv hamda shakllantirishni tartibga keltirishning texnologik-pedagogik asoslari hisoblanadi.[47]

L.V.Antropovaning fikricha, psixologik kompetentlik mutaxassisga kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirish imkonini beradigan o‘ziga xos psixologik (shaxsiy) quroli, uning psixologik madaniyatining bir qismidir. O‘qituvchining psixologik kompetentliligi ikkita blokdan iborat: intellektual (kognitiv) va amaliy (harakatli). Intellektual blokka psixologik bilim va tafakkur, amaliy blokka psixologik ko‘nikma va malakalar kiritilgan.[48]

M.I.Lukyanova fikricha, psixologik-pedagogik kompetentlik pedagogik faoliyatga va o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilar bilan samarali muloqotni o‘rnata olishga yuqori darajada tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxsning muayyan sifatlari yig‘indisi.[49]

---

44 Махмудов С.Ю., Голиш Л.В., Нуриддинов Б., Алламуратов Ш., Ахметова К. Педагогический мониторинг: Проектирование и реализация. Экспериментальное методическое пособие из серии «Что нужно знать обучающему о современных технологиях обучения?». - Т.: ИРС'111Ю, 2001. - С. 44.

[45] Қўйсинов О. А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари. пед. фан. док.дисс. (DSc), Т.:2019, 237б

[46] Гершунский Б.С. Педагогическая прогностика: Методология, теория, практика. - Киев.: 1986. - 197 с.

[47] Манько Н.Н. Технологическая компетентность педагога //Школьные технологии//. 2002. №5. С.33-41.

[48] Антропова Л.В. Формирование профессиональной готовности учителя к педагогической деятельности в адаптивной школе: Дис. .д-ра педагогических наук / Л.В.Антропова, - М., 2004. - 396 с.

[49] Лукъянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя // Педагогика. - 2001. - № 10. - С. 56-61.

A. K.Markovaning fikricha, kasbiy kompetentlik - mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatini egallaganligining sifat ko‘rsatkichi bo‘lib, mazkur faoliyatga nisbatan o‘zining moyilligini anglash, shaxsiy sifatlarini baholay olish, kasbiy jihatdan shakllanishini to‘g‘ri yo‘naltira bilish, o‘z-o‘zini takomillashtirish hamda o‘z-o‘zini tarbiyalay olishini nazarda tutadi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashlaricha, kasbiy kompetentlikning tuzilmasi uch tarkibiy qism: mazmuniy, motivatsion va ijro etish(amalga oshirish)dan iborat.[50]

A.Yakunin kasbiy kompetentlikni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratadi: kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar tizimi, kasbiy masalalarni mustaqil ravishda ijodkorona hal etishga intilish va qodirlik, odamlar bilan ishlashga va ularni boshqarishga ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorgarlik, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuklik, siyosiy madaniyat.[51]

O.Qo`ysinovning fikricha, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligi asoslaridan biri o‘z tarkibida bilimlar, mahorat va shaxs sifatini belgilovchi omil hisoblanib, ular doimo pedagogni harakatga keltirib turuvchi o‘z ustida ishlash, bilimlarini oshirib borish, har bir pedagogik vaziyatga ijodiy yondashish hamda moslashish kabi imkoniyatlarida namoyon bo‘ladi.[52]

N.Karimovaning fikricha, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetentligi rivojlanishi uning o‘quv-pedagogik vaziyatlarda aqliy, predmetli-amaliy va motivatsion omillar bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlarining ifodalanishida yorqin namoyon bo‘ladi.[53]

N.N.Natsarenus fikricha, “kasbiy kompetentlik” subyektning salohiyati hisoblanib, uning bu sifati malaka oshirish jarayonida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birgalikda, uning bu sifati mustaqil faoliyati davomida takomillashib boradi, u o‘z kasbining ustasi bo‘lib yetishadi, oliy mahorat egasiga aylanadi. O‘z kasbi-kori sir-

[50] Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: Знание, 1996.308 с.
[51] Якунин В.А. Педагогическая психология: Учеб. пособие. - СПб.: 1998. - 639 с.
[52] Қўйсинов О. А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари. пед. фан. док.дисс. (DSc), Т.:2019, 237б
[53] Каримова Н. Н. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантириш. Пед. фан.док. дисс. (PhD), Т.: 2018, 164 b

asrorlarini chuqur egallaydi, axborotlar bilan ishlashda ijodiy yondashadi.[54] [82; 9 b.].

M.A.Choshanovning fikriga ko‘ra, kasbiy kompetentlik doimo rivojlanib boruvchi dinamik hodisa bo‘lib, malaka oshirish va o‘z ustida ishlash jarayonining natijasi hisoblanadi. Bilim va mahorat, hatto ijobiy yo‘nalish ham vaqt o‘tishi bilan eskirib qoladi, jamiyatning zamonaviy talablariga, yangi texnologiyalarga mos kelmasligi mumkin. Jamiyat ham, odamlar, muammolar ham o‘zgarib bormoqda. Demak, bu vazifalarni yechish uchun yondashuv va metodlarni ham o‘zgartirish talab etiladi. Shu bois kompetensiya masalasi dolzarbligicha qoladi. Demak, mutaxassis inson faoliyatida shu davrgacha ma’lum bo‘lgan kasbiy tajriba namunalari, madaniy boyliklarini bilishi talab etiladi.[55]

I.V.Grishina esa kasbiy kompetentlikni shaxsning o‘z kasbini qanchalik darajada egallaganligi sifatida ta’riflab, uni quyidagicha izohlaydi: kasbiy kompetentlik shaxsning faoliyatga bo‘lgan munosabati, unga zarurati va qiziqishi, intilishlari, qadriyatlari, kasbiy faoliyatidan maqsadi, o‘zining ijtimoiy o‘rnini tasavvur qilishi; shaxsiy o‘ziga xosligi va mutaxassis sifatidagi mavqeiga, kasbiy bilim, mahorat va ko‘nikmalari, kasbiga xos boshqa xususiyatlariga baho berishi; kasbiy shakllashini va rivojlanishini boshqara bilishi [56]

T.G.Braje va N.I.Zaprudskiylar kasbiy kompetentlik tarkibidagi bilim va mahorat, mutaxassisning sohasi, uning faoliyati mohiyati, odamlar bilan muloqot usuli, o‘z ijodiy imkoniyatlarini tinmay oshirib borishi, shu bilan birga, uning kasbiy sifatlarini tadqiq etadilar [57]

B.S.Gershunskiyning fikricha, kasbiy kompetentlik masalasini shaxs rivojlanishining bosqichlaridan biri hisoblanib, har bir inson shaxs bo‘lib shakllanish jarayonlarida o‘zining uzluksiz faoliyati davomida ta’limning yangi-yangi ta’lim cho‘qqilariga intiladi. Ular quyidagilardan iborat: oddiy va funksional savodxonlik;

[54] Нацаренус Н.Н. Формирование профессионально-педагогической компетентности у студентов факультета дошкольного воспитания педагогических вузов: Автореф. Дис. ... канд. пед. наук. - М.: 1998. - 17 с.
[55] Чошанов М.П. Дидактическое конструирование гибкой технологии обучения // Педагогика. - Москва, 1997.- № 2.- С. 21-27.
[56] Гришина И.В. Профессиональная компетентность руководителя школы как объект исследования. - М.: Наука , 2002. -231 с.
[57] Браже Т.Г. Из опыта развития общей культуры учителя // Педагогика. - Москва. 1993.- № 2.- С. 70-73.

umumiy ta’lim; madaniyatini oshirib borish; o‘z individual mentalitetini shakllantirish. Ushbu tuzilmalar bir-biriga o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi.[58]

N.I.Zaprudskiyning fikricha, kasbiy kompetentlik bilimlar tizimi, mahorat, ko‘nikma, o‘zining kasbiy faoliyatini bajara olish uchun zarur bo‘lgan kasbiy malaka.[59]

R.X.Tugeshevning ta’kidlashicha, kasbiy mahorat shaxsning yuksalishi sari qo‘yilgan qadam bo‘lib, faqat ayni bir faoliyatga oid kompetentlikdir. Kompetentli shaxs deganda olim o‘z ishining ustasi bo‘lish, kasbiy mahoratni egallash bilangina cheklanmaydigan, balki ishni tashkil etish, o‘z faoliyatiga aloqador barcha muammolarni tizimli ravishda tushunish, vazifa qo‘ya bilish va aniq muammolarga yechim topa olish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxs. [60]

A.K.Makarovaning fikricha, kasbiy kompetentlik mutaxassisning kasbiy faoliyatini yuqori darajada amalga oshirish va mutaxassis shaxs sifatida o‘zini namoyon qilish imkonini beradi.[61]

E.F.Zeyer pedagogning kasbiy kompetentligini vaziyatlarni tez idrok qilishi, muomalaga tez kirishish, o‘zini tuta bilishi, mustaqil harakat qila olish kabi sifatlari bilan bog‘laydi[62]

V.A.Slastenin pedagogning kasbiy kompetentligi tarkibini uning pedagogik mahorati orqali bilib olish mumkin, degan fikrni bildirgan.[63]

V.A.Sitarov kasbiy nuqtayi nazardan yuqori darajadagi kasbiy kompetentlik bo‘lajak o‘qituvchining shakllanishining asosiy sharti ekanligini ta’kidlaydi. Kasbiy kompetentlik, uning fikriga ko‘ra, bu — murakkab ta’lim, uning tarkibida bilimlar, mahorat, o‘ziga xoslik va shaxsiy sifatlar mujassam bo‘lib, ular o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishda variatsion (rang-baranglik, turli-tuman o‘zgarishlar

---

[58] Гершунский Б.С. Философия образования. М.: Флинта, 1998. - 432 с.

[59] Запрудский Н.И. Научно-педагогическое обеспечение повышения квалификации учителей естественно-математических предметов. - Минск, 1993.-36 с.

[60] Тугешев Р.Х. К вопросу системной психодиагностики психологической компетентности субъектов профессиональной деятельности. /Тугешев Р.Х. Режим доступа: [http:Zwww.psycheya.ru/]

[61] Маркова А.К. Психология профессионализма. - М.: 1996. - 308 с.

62 Зеер Э.Ф., Романцев Г.М. Личностно-ориентированное профессиональное образование // Педагогика. - Москва. 2002.- №3. -С. 16-21.

[63] Сластенин В.А., Чижакова В.И. Введение в педагогическую аксиологию. - М.: Изд. Центр «Академия», 2003. - 192 с.

kiritish) o‘ta moslik hamda umuminsoniylikni ta’minlaydi. Uning tarkibiga bir-biri bilan uyg‘unlashgan shaxs kompetensiyasi turlarini (metodologik, maxsus, pedagogik, psixologik, metodik) jamlaydi[64]

A.K.Markovaning fikriga ko‘ra, kasbiy kompetentlik - “pedagogik faoliyatni oliy darajada amalga oshira oladigan o‘qituvchining mehnatini, pedagogik muloqotni va o‘qituvchi shaxsining salohiyatini belgilaydiki, uning yordamida ta’lim oluvchilarning ta’lim-tarbiyasi sohasida yaxshi natijalarga erishiladi”. Uning fikriga ko‘ra, “kasbiy kompetentlik” tushunchasi o‘qituvchining mehnat faoliyatining umumlashmasi sanaladi: pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, pedagogning shaxsi (protsessual ko‘rsatkichlar) ta’lim darajasi — ta’lim olganlik, tarbiyasi — tarbiya darajasi (natija ko‘rsatkichlari). Bularning har biri o‘z tarkibiga quyidagi muhim jihatlarni biriktiradi: pedagogik bilimlar - psixologik ma’lumotlar, o‘qituvchi mehnatining mohiyati haqida pedagogik tushuncha, uning pedagogik faoliyatining o‘ziga xosligi, muomalasi, shaxsi, ta’lim oluvchilarning psixologik o‘sish darajasi, ularning yoshi; mahorat - harakat, keraklicha yuqori darajada bajariladigan faoliyat; kasbiy psixologik pozitsiyasi - o‘qituvchining ta’lim oluvchiga, hamkasblariga, o‘ziga bo‘lgan munosabatini aniqlovchi xulq-atvori, salohiyati, kasbiy takomillashuv darajasi, o‘z mehnatining mohiyatini tushunishi; - psixologik o‘ziga xosligi (ma’naviy fazilatlari) - bilimga chanqoqligi, pedagogik fikrlashi, salohiyati, kuzatuvchanligi, maqsadga intilishi, qiziqishi va boshqalar.[65]

N.Karimovaning fikricha, kasbiy kompetentlik umumiy ta’lim negizida shaxs va jamiyat uchun kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan, insonga mehnat faoliyatining aniq turlarida o‘zini yanada to‘laroq namoyon etishiga imkon beradigan, ijtimoiy zarur bo‘lgan mehnat taqsimotiga va raqobatbardosh bozor mexanizmlariga mos keluvchi sifatlarni shakllantirish demakdir.[66]

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi ma’lum muhitdagi jarayon hisoblanadi.

[64] Ситаров В.А. Формирование методической компетентности будущего учителя. - М.: МПГУ, 1989. - 81 с.

[65] Маркова А.К. Психология труда учителя. М.: 1993.- 192 с.

[66] Каримова Н. Н. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини ривожлантириш. Пед. фан.док. дисс. (PhD), Т.: 2018, 164 b

Uning natijasi pedagoglarning sifat jihatdan o‘sishi bilan belgilanadi. Ularda o‘zini namoyon qilish, o‘z ustida ishlash kabi istaklarning paydo bo‘lishi bilanoq, ularning takomillashuv sari odimlay boshlaganliklarini ko‘rish mumkin. Pedagogning o‘z ustida ishlashi, mustaqil ravishda bilim va mahoratlarini oshirib borishi haqidagi g‘oya ta’limning asosiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi[67] [58; 152 b.].

M.Mirsoliyevaning fikricha, kasbiy kompetentlik tushunchasi odatda muayyan faoliyat doirasida aniq muammolarni hal etish va vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar, shuningdek zaruriy tayyorgarlik darajasini ifodalovchi ijtimoiy-kasbiy mavqeni xarakterlaydi. Shu bilan birga, kompetentlik mutaxassisning shaxsiy va kasbiy tayyorgarligiga nisbatan quyiladigan talablar tizimini ham ifodalaydi. Kasbiy kompetentlik mutaxassisning kasbiy faoliyat talablariga mos kelishi, layoqatlilik darajasini belgilovchi mezon sanaladi. Shu bilan birga, kasbiy kompetentlik deganda ko‘pincha, shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo‘luvchi bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlar nazarda tutiladi.[68]

Aila Paaso va Kati Korento kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning muhim jihatlari sifatida amaliy ish tajribasi; kasbiy bilim va ko‘nikmalari hamda mutaxassisning o‘z-o‘zini shaxsiy va kasbiy rivojlantirib borishga yo‘naltirilgan uzluksiz ta’limi bilan bog‘liq holda tavsiflaydi. Adnan Hakim esa “kasbiy kompetentlik - bu biror kishining ma’lum bir faoliyat turini bajara olishidagi bilimi, dunyoqarashi, malaka va ko‘nikmalariga asoslangan ish talablariga muvofiq qobiliyatidir”, deb izohlaydi [69]

Yuqorida keltirilgan nazariy tahlillardan xulosa qilishimiz mumkinki, kasbiy kompetentlik - shaxsning xususiyatlari va holatining murakkab majmuidir. U ma’lum sohadagi bilim, ko‘nikma va tajribani mujassamlashtirish hisoblanib, insonga

[67] Козлова Т.В., Рытвинская Л.Б., Тимашева З.Н. Моделирование и художественное оформление женской и детской одежды. - М.: Легпромбыт издат, 1990. -298 с.
[68] Мирсолиева М. Т. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. пед. фан. док.дисс. (DSc), Т.:2019, 218б
[69] Adnan Hakim. Contribution of Competence Teacher (Pedagogical, Personality, Professional Competence and Social) On the Performance of Learning. The International Journal Of Engineering And Science (IJES) || Volume || 4 || Issue || 2 || Pages || PP.01-12|| 2015 ||

muayyan masalalarda fikr bildirish, ma’lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish yoki o‘zi qaror qabul qilish imkonini beradi. Bu esa bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining individual-uslubiy, intuitiv qobiliyatlarini o‘stirishga xizmat qiladi. Tahlil etilganidek, kasbiy kompetentlikni tashkil etuvchi ikki muhim jihat bu nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi bo‘lib, mutaxassisning kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlaydigan bilimlar yig‘indisi va tajriba bilan bilan belgilanadi va bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy qiyofasi, muloqot madaniyati va pedagogik ta’sirchanligini namoyon etuvchi kommunikativ vositalar majmui verbal va noverbal vositalarini rivojlantiradi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Demak, “kasbiy kompetentlilik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi”[70]dir.

Bizningcha, kompetentlik shaxsning kasbiy va ijtimoiy faoliyatga tayyorlik darajasini ifodalovchi integral sifat hisoblanib, kasbiy kompetentlik shaxsning faqat kasbiy bilimlarga egaligini emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish, innovatsion yondashuvlardan foydalanish, kasbiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini doimiy takomillashtirib borish qobiliyatini ifodalaydi, refleksiv faoliyatning individual-uslubiy, intuitiv sifatlarini rivojlantiradi va maxsus kasbiy bilimlar; amaliy ko‘nikma va malakalar; kommunikativ kompetentlik; axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan ishlash qobiliyati; refleksiv va kreativ yondashuv; mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati; kasbiy qadriyat va motivatsiya kabi tarkibiy qismlardan iborat. Bo‘lajak tarix o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi

[70] Musurmonova O. Yuqori sinf o’quvchilari ma’naviy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok... dis. - Toshkent: 1993. - 364 b.

tarix fanini chuqur egallash, tarixiy manbalarni tahlil qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarda tarixiy tafakkur va tarixiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish, integrativ va innovatsion yondashuvlardan foydalanish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda namoyon bo‘ladi, zamonaviy ta’lim paradigmalari asosida milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan hamohang individual ta’lim trayektoriyalari rivojlantiriladi.

Biz A.K.Markovaning kompetentli shaxsning ijtimoiy, shaxsiy, ma’naviy va kasbiy sifatlarining subyektiv xarakteristikasi, integrativ xususiyati sifatida qarovchi fikriga qo‘shilamiz[71]. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga, aqliy rivojlanishga, bilim va malakalarni tizimli egallashga, turli muammolar, vaziyatlar, hodisalarni to‘la anglay olishga xizmat qiladi, fanlararo integratsiya orqali ijodkorlikni rivojlantiradi va bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning nazariy asoslariga zamin tayyorlaydi.

1.2. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetenliligini rivojlantirishning nazariy asoslari

O‘qitishning zamonaviy metod va vositalarini, ta’lim jarayonini tashkil etishning innovatsion shakllarini amaliyotga tatbiq etish hamda pedagoglarda innovatsion yondashuvga asoslangan zaruriy kompetensiyalarni shakllantirish ehtiyojidan kelib chiqib, bugungi kunda o‘quv dasturlari takomillashtirilmoqda va ta’lim mazmuni modernizatsiya qilinmoqda. Hozirgi taraqqiyot va globallashuv sharoitida ta’lim-tarbiya sifati hamda samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchilarning innovatsion faoliyat yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki zamonaviy sivilizatsiya sharoiti yosh avlodni faqat an’anaviy pedagogik qarashlar asosida emas, balki yangilangan ta’lim-tarbiya tizimi negizida tarbiyalashni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida kasbiy

[71] Очилов М. Муаллим қалб меъмори: Сайланма. - Т.: Ўқитувчи, 2000.

kompetentlilikni rivojlantirish, ularda erkin va mustaqil fikrlash, pedagogik muloqotning verbal va noverbal munosabatlarini shakllantirish, individual ta’lim trayektoriyalarini kommunikativ va ijtimoiy hamkorlik omillariga implementatsiyalash, ya’ni bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining individual rivojlanish yo‘nalishlarini samarali muloqot, hamkorlik, jamoaviy faoliyat va ijtimoiy munosabatlar tizimiga integratsiyalash hamda ularni amaliy ta’lim jarayonida izchil tatbiq etish jarayonini tashkil etish, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni samarali modellashtirish, ta’lim tizimini yangilash hamda takomillashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi kun pedagogikasining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.Shu o‘rinda prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[72],- degan fikrlari ishimizning maqsadiga bevosita mos keladi.

O‘rta asrda Sharqning buyuk mutafakkirlari beqiyos ilmiy xazina yaratdilar va ularning durdona meroslari, boy ijodi, ilmiy va falsafiy fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan **(**Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Yusuf al-Kindiy, Nosir Xusrav, Abu Nasr Forobiy, Umar Hayyom, Muhammad ibn Muso Xorazmiy va boshqa) ko‘plab ma’rifatparvar olimlar barkamol avlodga ta’lim-tarbiya berishda o‘qituvchining roli, fanlararo integratsiyaning muhimligini ta’kidlaganlar. Bu yerdan chiqqan buyuk allomalar va mutafakkirlar falsafa hamda fanning shakllanishi va rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. Jumladan, ularning ilmiy meroslarida zamonaviy ilmiy texnologiyalarning asosi bo‘lgan bilimlar integratsiyasi, fanlararo yondashuv namunalarini juda ko‘plab ko‘rishimiz mumkin.

“Barkamol inson”ni shakllantirish g‘oyasining rivojiga buyuk vatandoshlarimiz, qomusiy olim Abu Ali ibn Sino va Hazrat Alisher Navoiy katta hissa qo‘shgan. Ularning pedagogik qarashlarini integral pedagogika konsepsiyasi

[72] Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. - T.: O’zbekiston, 2017. - 146 b.

nuqtayi nazaridan o‘rgana borib, ishonch hosil qilish mumkinki, ular ma’naviy-axloqiy, aqliy, estetik, musiqa va jismoniy ta’limning o‘zaro aloqalariga asoslanib, mukammal insonni shakllantirishning yetakchi yo‘nalishini kashf etishga harakat qilganlar. Axloqiy ta’lim mazmuniga ular yoshlardagi niyat pokligi, fidoiylik, himmatlilik, to‘g‘rilik, beg‘arazlik, vazminlik kabi xislatlarning rivojlanishini kiritgan. Ayni paytda ular inson tabiatiga xos bo‘lgan ratsionalizatorlik, tashabbuskorlik, o‘zgaruvchanlik va fikr mustaqilligi, omilkorlik zaruratini tan olgan.[73] O‘qituvchining yetuk mutaxassis sifatidagi kasbiy kompetentliligini rivojlantirish o‘sib kelayotgan yoshlarni mehnat faoliyatlarida o‘z o‘rnini topishlariga**,** sifatli ta’lim olishlariga, shaxslararo ijtimoiy-madaniy muloqotlarini verbal munosabatlarda shakllantirishga yordam berishi kerak, biroq bunda eng muhimi shaxsni talabga to‘la javob beradigan darajada rivojlantirish va uning o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish, ularda kasbiy kompetentlilikning integratsion omillarini takomillashtirish dolzarb muammodir.

A.S.Kosogovaning fikricha, pedagogik nuqtayi nazardan “o‘qituvchining kasbiy kompetentliligi - bu, tajriba, nazariy bilimlar, amaliy malakalar va muhim ahamiyatli shaxsiy sifatlar integratsiyasi asosida shakllangan murakkab individual-psixologik tuzilma bo‘lib, o‘qituvchining pedagogik faoliyatni to‘laqonli bajarishga tayyorligini anglatadi”. [74] Kasbiy kompetentlilikning ushbu ta’rifi uning tizimli tuzilmasidan darak beradi. Bu tuzilma tajribada amalga oshirilgan, shaxsga oid tegishli sifatlar asosida shakllanadigan kompetensiyalardan tarkib topadi.

K.V.Shaposhnikov kasbiy kompetentlilik deganda, mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirayotganda muhim va samarali qarorlarni qabul qilishga tayyorligi va layoqatini tushunadi. U shuningdek, “kasbiy kompetentlilik integrallashtirilgan bilim, mahorat va tajribalarning majmui sifatida tavsiflanadi, shu bilan birga, insonga o‘rab turgan olam bilan hamkorlikda kasbiy faoliyatni samarali loyihalashtirish va amalga oshirish imkoniyatini beruvchi subyektiv, kasbiy

[73] Azimova Z.E. O’quvchilarning shaxslararo munosabatlari integral diagnostikasi. Diss... kand. ped. nauk. - Toshkent, 2009. 20-25 s.
[74] Kosogova A.S. Lichnostnыy i karernыy rost studenta v kontekste vospitaniya // Vыssheye obrazovaniye v Rossii. - 2005.-№12.-S. 24.

kompetentlilikning ko‘rsatkichlari asosida esa mutaxassisning dolzarb va potensial tavsifi yotishi mumkin”[75],-deb ta’kidlaydi. T.M.Sorokinaning tadqiqotida esa pedagogning kasbiy kompetentliligi “uning kasbiy tayyorgarligining dinamik, protsessual tomonlari, kasbiy o‘sishining tavsifi, asoslangan va faoliyatga oid kasbiy o‘zgarishlar” [76] sifatida ta’riflanadi. O‘z navbatida kasbiy-pedagogik kompetentlilik o‘qituvchining o‘ziga xos kasbiy-shaxsiy tavsifi hisoblanib, “uning kasbiy faoliyati sifatini, doimiy o‘zgarib turuvchi kasbiy vaziyatlarda mustaqil, adekvat, mas’uliyat bilan o‘ziga xos harakat qilish qobiliyatini, o‘z-o‘ziga baho berish va o‘z kamoloti uchun tayyorligini ifodalaydi. Kasbiy-pedagogik kompetentlilik pedagogning kasbiy faolligida namoyon bo‘lib, uni pedagogik faoliyatning subyekti sifatida tavsiflash imkonini beradi”.[77]

A.K.Markova o‘qituvchini kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgan o‘qituvchi deb aytadi, qachonki pedagogik faoliyatini, pedagogik muomalani yetarlicha yuqori darajada oshirsa, yoshlarni o‘qitishda va tarbiyalashda yuqori natijalarga erishsa. Kompetentli o‘qituvchi o‘zining kasbiy bilimlarini, psixologik fazilatlarini o‘z mehnatida qo‘llashni bilishi kerak.

Hozirgi vaqtda kasbiy kompetentlilikni shakllantirishda o‘qitish texnologiyasiga katta e’tibor berilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilar tarkibi tomonidan ishlab chiqilayotgan va foydalanilayotgan o‘qitish texnologiyalari bo‘lajak pedagoglar kasbiy kompetentligining qaror topishi va tarbiyalash ta’lim tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, kasbni egallashning kasbiy ahamiyatli bazasini dastlabki yaratishga, kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish uchun nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorgarlikning va qodirlikning sekin-asta shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, bo‘lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarida kompetensiya

[75] Shaposhnikov K.V. Kontekstnыy podxod v protsesse formirovaniya professionalnoy kompetentnosti budushix lingvistov-perevodchikov: Avtoref. diss. kand.ped.nauk - Yoshkar-Ola, 2006 - S. 26.
[76] Sorokina T.M. Razvitiye professionalnoy kompetensii budushego uchitelya sredstvami integrirovannogo uchebnogo soderjaniya // Nachalnaya shkola. - 2004. - №2. - S. 110-111.
[77] CHanыsheva G.G. Formirovaniye i razvitiye kommunikativnыx sposobnostey budushix yuristov: Dis.... dokt. ped. nauk : Kazan, 2005. - S. 12.

tushunchasi muhimdir. Kompetensiya - o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g‘ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Kompetentlikning asosi qobiliyatlardan iborat bo‘lganligi uchun ularning har biri o‘z kompetentligiga mos kelishi kerak. Qobiliyatlar eng umumiy ko‘rinishlari bilan kompetensiyaning jismoniy madaniyatdagi, aqliy sohadagi, umumo‘quv, amaliy, ijrochilik, ijodiylik, badiiy, texnik, shu bilan birga pedagogik-psixologik, ijtimoiy va boshqa ko‘nikmalariga mos keladi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o‘qituvchining nazariy tayyorgarligining mazmuni ko‘p hollarda psixologik-pedagogik va maxsus bilimlar majmuasi sifatida tushuniladi. Ammo maqsad faqat bilimlarni shakllantirishdan iborat emas. O‘qituvchi tajribasi tuzilmasida ortiqcha yuk bo‘lib hisoblangan va bir tizimga keltirilmagan bilimlar hech kimga kerak bo‘lmagan narsa bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentlikni shakllantirishda nazariy tayyorgarlikning shakllariga e’tibor qaratish zarur. Bunday nazariy faoliyat o‘qituvchida analitik, bashorat qilish, loyihalash va refleksiv ko‘nikmalar mavjudligini nazarda tutuvchi pedagogik fikrlashni umumlashgan holda bilishda namoyon bo‘luvchi faoliyatdir.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqargan holda shuni aytish mumkinki, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda asosan o‘qituvchilar o‘z faoliyati jarayonida ibrat, namuna ko‘rsatish bilan yoshlarning faolligini, his – tuyg‘usini, xatti - harakatini rivojlantirishi va ta’sir eta olishi, har bir mashg‘ulot uchun material tanlash, uni murakkablashtirish va oldingi hamda keyingilari bilan aloqasini ta’minlash, pedagogik jarayonni o‘qituvchilar jamoasi va yoshlar bilan ishlashni qamrab olib, ta’limiy-tarbiyaviy vositalar majmuidan


foydalangan holda rejalashtirishi shart.

Aynan shuning uchun pedagoglar tayyorlash ta’lim jarayonining asosiy vazifasi zamonaviy o‘qituvchini kasbiy-pedagogik tayyorgarligining ajralmas qismi bo‘lgan asosiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi kerak:



1.2.-rasm. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik murakkab jarayonlarda; noaniq vazifalarni bajarishda; bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda; kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda yaqqol namoyon bo‘ladi va quyidagicha kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis sifatida shakllanadi:



1.3.-rasm. Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis

M.Mirsoliyeva tadqiqot ishida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi: ish beruvchilar va davlat ijtimoiy buyurtmasi integratsiyasi asosidagi kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish; rahbar va pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarida fan, ixtirochilik va innovatsiyalar transferini rivojlantirish; kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan startap- ta’lim (akseleratsiya), forsayt markazlar, biznes inkubatorlar faoliyatini faollashtirish, ixtirolarni tijoratlashtirish; oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining axborot- tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish, xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasidan foydalanish faolligini oshirish; kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarining moslashuvchanligini ta’minlash; kasbiy kompetentlikni rivojlantirish va boshqarish jarayonlarida sifat menejmenti tizimi (Total quality management-ta’lim sifatini oshirishning umumiy boshqaruvi)ni rivojlantirish; o‘quv jarayoniga innovatsion shakl, metod va vositalarni kiritish, kompetensiyalarga asoslangan ta’lim modelini rivojlantirish; masofaviy ta’limni keng joriy etish, ta’lim xizmatlarini diversifikatsiyalash. [78]

[78] Мирсолиева М. Т. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлигини

N. Muslimov o‘z ilmiy izlanishlarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonlarida quyidagi vazifalarning bajarilishini nazarda tutadi: ta’lim muassasalarida sog‘lom ijodiy muhitni yaratish, ta’lim va tarbiya jarayoniga ilg‘or innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali o‘qitish sifatini yangi bosqichga ko‘tarish, talaba- yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri, mustaqil mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantirish; iqtidorli talaba-yoshlarning qobiliyati va iste’dodini aniqlash, tarbiyalash, ular iste’dodini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishning yagona umumilliy tizimini shakllantirish, o‘quv-tarbiya jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish ilmiy asoslarini yaratish; o‘quv rejalaridagi turdosh fanlarni integratsiyalash orqali o‘quv yuklamalari ko‘lami va hajmini maqbullashtirish; oliy ta’lim muassasalarida virtual o‘quv-laboratoriya, zamonaviy axborot kommunikatsiya, elektron-texnik va masofadan o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish, darslik, qo‘llanma va o‘quv filmlarining elektron turlarini yaratish va ulardan ta’lim -tarbiya jarayonida samarali foydalanish; oliy ta’lim muassasalarida ta’limni boshqaruv tizimi uchun rahbar kadrlarni maqsadli tayyorlashni yo‘lga qo‘yish; pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish tizimi faoliyatining samaradorligini oshirish, ta’lim muassasalarini malakali mutaxassislar bilan to‘liq ta’minlash choralarini belgilash; pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengay-tirish, pedagogik diagnostika, talaba shaxsiga individual yondashishga doir tadqiqotlarga keng yo‘l ochish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash mexanizmini joriy etish; indikatorlar tizimi orqali ta’lim sifatini boshqarish mexnizmini yaratish va joriy etish; ta’lim mazmunining bevosita shaxsga yo‘naltirish va ta’lim oluvchilarning shaxsiy va ijodiy qobiliyatlarini boyitish, mavjud imkoniyatlarini rivojlantirishda ularning qiziqish va ishtiyoqlarini hisobga olgan holda ta’limni ijtimoiylashtirish, individuallashtirish [79].

I.P.Podlasiy pedagog kadrlar kasbiy kompetentligining quyidagi turlarini

---

ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. пед. фан. док.дисс. (DSc), Т.:2019, 218б

[79] Муслимов Н.А., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/ Монография. - Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2013.

farqlaydi: Maxsus kompetentlik. Bunda pedagog yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikka ega, o‘z ustida muntazam ishlaydi hamda o‘ta kirishimli bo‘ladi; Ijtimoiy kompetentlik. Bunda pedagog hamkorona kasbiy faoliyatga ega, atrofdagilar bilan hamkorlik qiladi va o‘z mehnati natijasi uchun mas’ul bo‘ladi; Shaxsiy kompetentlik. Bunda pedagog o‘zligini ifodalash, namoyish eta olish va o‘zini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bunday toifadagilar juda ham qiziqarli va yorqin shaxslar bo‘lishadi; Metodik kompetentlik. Bunda pedagog o‘qitishning uslub va usullarini yaxshi biladi, kerakli uslubni tanlay olish intuitsiyasiga ega bo‘ladi; Psixologik-pedagogik kompetentlik. Bunda pedagog bolalar psixikasini yaxshi biladi, har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini ajrata oladi”[80].

N.Muslimov bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarida quyidagi kompetentlik turlarini keltirib o‘tadi: yaxlit-mazmunli kompetentlik; ijtimoiy-madaniy kompetentlik; o‘quv-bilish kompetentligi; axborot olish kompetentligi; kommunikativ kompetentlik; ijtimoiy-faoliyatli kompetentlik; amaliy faoliyatga oid kompetentlik. [81]

M.Urazova esa bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini loyihaviy faoliyatga tayyorlash nuqtayi nazaridan, kompetentlikning refleksiv, kognitiv, axboriy, kommunikativ va ijtimoiy turlarini ajratib ko‘rsatadi.[82]


Kasbiy kompetentlikning asosiy komponentlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:Maxsus kompetentlik - aniq faoliyat turlarini mustaqil ravishda bajarishga tayyorgarlik, kasbiy masalalarni malakali yechish va o‘z mehnati natijalarini baholay olish, mutaxassisligi bo‘yicha yangi bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda egallash; Autokompetentlik - o‘z ijtimoiy-kasbiy xususiyatlari haqida to‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lish va kasbiy destruksiyalar (strukturani buzilishi)ni yengib o‘tish texnologiyalarini bilish; ekstremal kompetentlik - to‘satdan qiyinchilik

[80] Подласый И.П. Педагогика. Процесс воспитания / Учебник для студентов. пед. вузов. В 2-х кн. Кн. 2. - М.: Гуманит. Изд. Центр Владос, 1999.256 б.

81 Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш /Монография. - Т.: Фан, 2004.

[82] Мирсолиева М. Т. Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг касбий компетентлигини ривожлантириш механизмларини такомиллаштириш. пед. фан. док.дисс. (DSc), Т.:2019, 218б

paydo bo‘lgan sharoitda, avariya holatlarida, texnologik jarayonlar buzilganda ishlay olish qobiliyati; ijtimoiy-huquqiy kompetentlik - jamoaviy institutlar va odamlar bilan munosabat sohasidagi bilim va ko‘nikmalar, shuningdek, professional muloqot va o‘zini tutish qoidalarini bilish; shaxsiy kompetentlik - doimiy kasbiy o‘sish va malakani oshirishga layoqat, shuningdek, kasbiy mehnatda o‘z o‘rnini egallash [83]. Biz tadqiqotlarimiz davomida yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda kasbiy kompetentlik turlarini quyidagicha tahlil qildik:



1.4.-rasm. Kasbiy kompetentlik turlari

1. Ijtimoiy kompetentlik - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik - kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

a) psixologik kompetentlik - pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish

[83] Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения // Н.В. Кузьмина. - М.,1990. - С. 119.

va bartaraf eta olish;

b) metodik kompetentlik - pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

c) informatsion kompetentlik - axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

d) kreativ kompetentlik - pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) innovatsion kompetentlik - pedagogik jarayonni takomillash- tirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) kommunikativ kompetentlik - ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

g) shaxsiy kompetentlik - izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoen qilish.

h) texnologik kompetentlik - kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

i) ektremal kompetentlik - favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan) da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O‘z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi: maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy

faoliyatni yuqori darajada tashkil etish). Shaxsiy kompetentlik (o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini namoyon etish); individual kompetentlik (o‘z-o‘zini boshqarish, kasbiy rivojlanish va yangiliklar yaratish). Ijtimoiy kompetentlik (qo‘shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil etish).

Pedagogik tadqiqotimizda turli pedagogik mahorat va pedagogik ijodkorlik xususiyatlariga e’tibor qaratilgan. “Pedagogik ijodkorlik” tushunchasi “Pedagogik mahorat” tushunchasiga yaqin, biroq bir xil ma’noni anglatmaydi deb hisoblaymiz. Mahoratli mutaxassis deb o‘z kasbini mukammal egallagan xodimga aytiladi, sababi katta tajribaga ega bo‘ladi, odatda, yosh mutaxassis o‘qituvchilar ijodkor bo‘lsa-da, tajribaga ega bo‘lmaguncha, mahoratli bo‘la olmaydi. Qator tadqiqotlarda pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogik mahorat va pedagogik madaniyat tushunchalariga muvofiqlashtirilgan.

G.M.Kodjaspirovaning fikricha, pedagogik madaniyat tushunchasini o‘qituvchining savodxonlik darajasi, o‘qimishliligi, kasbiy-professional kompetentlik sifatida tushunish zarur, ya’ni u pedagogik madaniyatni “o‘qituvchilarning kasbiy bilimlarini o‘zlashtirishi va yuqori darajada yutuqlarga erishish mezoni” sifatida qaragan. [84]

V.A.Slastenin fikriga ko‘ra, kasbiy pedagogik madaniyat tushunchasi o‘qituvchilarga nisbatan qo‘llanilganda, o‘zida tartibga solingan umuminsoniy g‘oyalar yig‘indisi, kasbiy-professional-qadriyatli yo‘nalganlik va shaxsiy xususiyatlar, bilishning universal usullari hamda psixologik-pedagogik faoliyatning gumanistik texnologiyalari sifatida namoyon bo‘ladi. [85] Pedagogik madaniyat tushunchasi o‘z ichiga bevosita pedagogik mehnatda zarur bo‘lgan umuminsoniy madaniyat tushunchasini namoyon etadi. Shundan kelib chiqib, pedagogik madaniyat belgilari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: qiziqish va ehtiyojlarni qat’iy yorqin ifodalangan pedagogik yo‘nalganlik; har tomonlama aqliy, ma’naviy, estetik rivojlanish; pedagogik mahorat; muloqotchanlik, o‘z ishiga qiziquvchan, mehribon xarakterga egalik; doimiy o‘zini takomillashtirish ustanovkasi; temperament

[84] Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь. – М.: Академия, 2001. – 176 с.
[85] Сластенин В.А., Шутенко А.И. Профессиональное самосознание учителя // Магистр. – М., 1995. – № 3.


madaniyati; keng ilmiy va badiiy-estetik dunyoqarash; ijodiy faoliyatga oson va tabiiy holda o‘tish, o‘z emotsional, intellektual va irodaviy jarayonlarini faollashtira bilish.[86]

Pedagogik madaniyat konsepsiyasini pedagogik faoliyatda ijodiy qobiliyat va o‘qituvchining shaxsiy yutuqlari, pedagogik amaliyot namunalarini yaratishda umuminsoniy pedagogik qadriyatlarning dinamik tizimi sifatida ta’riflash mumkin. Shu bilan birga, pedagogik madaniyatning o‘ziga xos xususiyatlarida uning obyekti, maqsadi va natijalari bo‘lib, inson va uning ma’lumoti, shaxsiy rivoji turadi. Mazkur iyerarxiyalashgan tizim, pedagogik amaliyotning turli bosqichlarida namoyon bo‘ladigan komponentlari, jumladan, pedagogik kasbiy-professionallik va pedagogik mahorat alohida o‘ringa ega.[87]

Mamlakatimiz va xorijiy davlatlar tadqiqotchilarining qarashlarini tahlil qilib aytish mumkinki, kasbiy kompetentlilik empatik va refleksiv qobiliyatlar bilan to‘ldirilgan integratsion kompetensiyalarning ma’lum miqdori sifatida talqin qilinadi. O‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi rivojlanishi ko‘p jihatdan uning o‘z faoliyatida muayyan yuksaklikka erishish va o‘zini shaxs sifatida shakllantirish istagi va xohishiga bog‘liq. O‘qituvchining kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish ijtimoiy talablar va shaxsiy rivojlantirish dasturiga muvofiq pedagogik sifatlarni takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan ongli jarayon hisoblanib, pedagogik imidjning verbal va noverbal vositalari asosida takomillashadi. Psixologiya nuqtayi nazaridan inson o‘z kasbini muvaffaqiyatli egallamay turib, barkamol rivojlana olmaydi. O‘qituvchi insonlar bilan ishlaydi va uning o‘z shaxsiyati asosiy ish vositasi hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat o‘qituvchilar oldiga o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirishning yangi yo‘llari va shakllaridan foydalanish vazifasini yuklagan. Shu maqsadda o‘z kasbining ustasi bo‘lishi uchun o‘qituvchi shaxsiy o‘sishga intilishi kerak. Chunki o‘qituvchining o‘zini o‘zi kasbiy rivojlantirishi shaxsiy taraqqiyot yo‘lidagi harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.

[86] Бабайцева В.Ю. Требования к стилю коррекционно-педагогической деятельности учителя начальных классов // Начальная школа. – М., 2006. – № 7. – С. 22-24.
[87] Бодалев А.А. Психология общения // Избранные психологические труды. – М.: МОДЭК, 2002. – 256 с.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchisining o‘zini o‘zi rivojlantirish kasbiy mahoratini takomillashtirish shakllaridan biri sanaladi.



1.5-rasm. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi uchun o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayonining ahamiyati

Ma’lumki, bir kompetentlikni o‘zlashtirgan mutaxassis deganda, o‘z sohasiga mos bilim va malakasi shakllangan, ijodiy fikr va samarali harakat amalga oshiriladigan shaxs tushuniladi. Agar bu tushunchalarning mohiyatiga chuqur, pedagogik nazar tashlasak, “kompetentlik” – o‘qituvchining ma’lum bir fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma va malakalar bilan harakatlarning o‘zaro bog‘liq sifatlari majmuasi deb hisoblashimiz mumkin. Pedagog shaxsning kasbiy takomillashtirish kompetentligi ma’naviy, motivatsion, intellektual va amaliy jihatdan o‘zini o‘zi rivojlantirish, irodaviy va hissiy jihatdan o‘zini o‘zi kasbiy boshqara olishga qaratilgan. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarning xatti-harakati, yurish-turishi, muomalasi, ma’naviy-axloqiy qiyofasi, ijtimoiy faolligi, shaxslararo munosabati va axborot vositalarining kasbiy rivojlantirishga ko‘rsatayotgan ta’siri va ishtirokini inobatga olish hisoblanadi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlarida innovatsion ta’lim muhit talablari asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish asosida quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim: bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini mutaxassislik fanlari bo‘yicha malaka

talablarini shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvning mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratish; kompetensiyaviy yondashuv asosida vujudga keltiriladigan innovatsion ta’lim muhiti talablarini e’tiborga olish; bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini pedagogik tayyorgarligini kasbiy diagnostik tahlil qilishni yo‘lga qo‘yish; bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy-pedagogik jihatdan tayyorlashda asosiy e’tiborni o‘quv fani vositalari, pedagogik faoliyat mazmuni va talabaning shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratish. Natijada kasbiy kompetentlikka ega mutaxassis o‘z bilimlarini izchil boyitib, yangi axborotlarni o‘zlashtirib, davr talablarini chuqur anglab, yangi bilimlarni izlab topib, ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi. [88].Kasbiy-professional kompetentlik pedagogning o‘z kasbiy-professional faoliyatini egallaganlik darajasining ko‘rsatkichlari sifatida quyidagilarga asoslanadi (1.6-rasm).



1.6-rasm. Kasbiy-professional kompetentlik


Ko‘pchilik tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikni o‘z pedagogik mahoratlari va ijodkorliklari bilan bog‘laydilar. Pedagogik mahorat pedagogik faoliyatni yuqori

[88] Хўжамбердиева Д. С. Малака ошириш тизими тингловчиларида касбий компетентликни ривожлантиришнинг ўзига хос жиҳатлари // Замонавий таълим. – Т., 2018. – 4-сон. – Б. 16-21.

darajada amalga oshirilishini ta’minlovchi shaxsiy xususiyatlar majmui yoki kasbiy-professional faoliyatda kasbiy rivojlantirish kompetentligi sifatida ko‘rib chiqilgan. Bo‘lajak tarix o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligining shakllanish jarayoni ta’lim mazmuni orqali amalga oshirilishi mumkin va u quyidagilarni qamrab oladi: o‘quv fanlarining alohida tizimi; talabalarning o‘quv fanlarini o‘zlashtirish jarayonida shakllanuvchi kasbiy (professional) kompetensiyalari; talabaning ijtimoiy-madaniy hayotidagi faol hayotiy o‘rni. Kasbiy kompetentliligining shakllanish jarayoni o‘ziga xos majmuani ifodalab, ularning vositasida bo‘lajak o‘qituvchi shaxsi yuqori darajada shakllanadi va rivojlanadiki, bunda o‘zining keyingi rivojlanishi va kamolotga yetkazish usullarini egallashga imkoni bo‘ladi va bu bo‘lajak tarix o‘qituvchisini “inson - jamiyat - olam” tizimida professional subyekt sifatida yanada samarali ishlashini ta’minlaydi.

Ma’lumki, o‘qituvchining kasbiy mahorati uning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati vositasida ta’minlanishi kerak. Ushbu faoliyat esa o‘z o‘rnida, ma’lum qobiliyatlarsiz, shaxsning kommunikativ sifatlarisiz bo‘lmaydi, chunki ular ham faoliyatning o‘ziga, ham qaror qabul qilishdagi ijtimoiy yondashuv va muhitga bog‘liq. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan kasbiy qobiliyatlar esa aynan kommunikativ qobiliyatlar tizimida mavjud va bo‘lajak tarix o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini shakllantirishda yetarli darajada muhim ahamiyatga ega bo‘ladi, bunda ular hatto pedagogning kasbiy faoliyati asosi ham bo‘lishi mumkin. “Kasbiy qobiliyatlar individ faoliyatining muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlovchi xususiyatlar yoki fazilatlar sifatida yaqqol ko‘rinishi mumkin, ya’ni bir insonni boshqasidan ajratib turuvchi va muvaffaqiyatli faoliyatda ko‘rinadigan individual sifatlar” [89] shular jumlasidan. Kasbiy kompetentlilikni, ayniqsa, shaxsning turli-tuman integratsion sabablariga ko‘ra shakllantirish mumkinligini ta’kidlash lozim

[89] Шустова М.В. Теоретические подходы к решению проблемы формирования профессиональной компетентности будущего учителя // Личностно-ориентированное образование: проблемы и перспективы: Материалы межвузовской научно-практической конференции студентов и аспирантов / Отв. ред. И.И.Дереча. 15 мая 2008 года. – В 2 ч. – Ишим: ИГПМИ, 2009. – С. 52-59.



1.7-rasm.Kommunikativ kompetentlilikning rivojlanish jarayoni

Ta’kidlash joizki, kompetentlilikni rivojlantirishdagi kasbiy yo‘nalganlik N.Muslimov, N.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.Turayevlarning “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida[90], S.Vasileyskiyning “Oliy maktabda ma’ruzaviy o‘qitish” nomli ilmiy tadqiqot ishida aks ettirilgan, ularda o‘qituvchining yaxlit holga keltirilgan ilmiy, pedagogik va ijtimoiy- siyosiy guruhlari va ularning kompetentlik sifati ajratib ko‘rsatiladi.Ular bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini shakllantirish imkonini beradi. O‘qituvchining olim sifatidagi ilmiy jihatlarini tavsiflaydi, fanni tanqidiy o‘qitish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradi. Pedagogik - asosiy didaktik tamoyillarni amalga oshirish, talabalarning asosiy kasbiy yo‘nalishini ta’minlashga yordam beradi; ijtimoiy-siyosiy sifatlar pedagogni o‘quv materialini yorqin, emotsional shaklda bayon qiluvchi notiq sifatida namoyon qiladi. [91] Bunda o‘qituvchining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning yuqori darajasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: ta’lim jarayonining ijobiy yo‘nalishga egaligi va manipulyatsiya hamda e’tiborsizlik reaksiyasining mavjud emasligi, shuningdek,

[90] Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari - Toshkent, 2015. - 120 b.

[91] Vasileyskiy S. Leksionnoye prepodavaniye v vыsshey shkole. Kratkiy istoricheskiy ocherk, yego psixologo-pedagogicheskiye osnovы i obshaya xarakteristika. - Gorkiy, 1959. - S. 56.

o‘zaro muloqotlarda dialogik shakllarning (boshqa insonga muloqotda unga qadriyat sifatda qarash nazarda tutiladi) va ta’limga yordam berishning umumiy strategiyasi ustunlik qilishida; o‘qituvchi tomonidan pedagogik muloqotda suhbatdoshidan yoki butun auditoriyadan umumiy qanoatlanganligi o‘zining huquqiy holat (status)iga o‘z-o‘ziga baho berishning yuqori darajasida;

Zamonaviy ta’lim tizimida kasbiy kompetentlilik mutaxassisning nafaqat bilimga ega bo‘lishi, balki uni amaliyotda samarali qo‘llay olishi, mustaqil qaror qabul qilishi va doimiy ravishda rivojlanib borish qobiliyatini anglatadi. Ushbu tushuncha bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’limning markaziy kategoriyasiga aylangan. Kasbiy kompetentlilik shaxsning o‘z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilimlar (nazariy asoslar), ko‘nikma va malakalar (amaliy tajriba), shaxsiy sifatlar (mas’uliyat, kommunikativlik, kreativlik), qadriyatlar va motivatsiya majmuasidan iborat integrativ sifatdir. Zamonaviy ta’limda kompetentlilik faqat “bilish” emas, balki “qila olish”, nazariy bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, uzluksiz o‘z-o‘zini rivojlantirish bilan belgilanadi. Bugungi ta’lim tizimida kasbiy kompetentlilik mehnat bozoriga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi; talabaning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi; nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlaydi; innovatsion iqtisodiyot uchun malakali mutaxassislar yetishtiradi. Kasbiy kompetentlilik zamonaviy ta’limning asosiy natijasi bo‘lib, u shaxsning bilim, ko‘nikma, qadriyat va tajribalarini bir butun tizimda mujassam etadi. Uning rivojlanishi ta’lim jarayonining sifatini oshirish, shuningdek, jamiyat va mehnat bozorining zamonaviy talablariga javob beruvchi mutaxassislarni tayyorlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Tadqiqotimizda biz bo‘lajak tarix o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda integratsion jarayonlarga tayandik. Integratsiya - o‘sish, rivojlanish jarayoni bo‘lib, turli xil elementlarning bir-biriga ta’sirining natijasi hisoblanadi. Pedagogikada jarayon sifatida tushuniladi va talqin qilinadi. Pedagogikadagi integratsiya prinsipi ikki aspektda ko‘rib chiqilishi mumkin. Birinchidan, bu holat, uning uchun turli elementlar orasidagi hamjihatlik, tartiblilik

va barqarorlikka xos. Ikkinchidan - ushbu holatga olib keluvchi jarayon. Bundan tashqari integratsiya bu pedagogikada butun ta’lim tizimi sifat-samaradorligining juda muhim ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi.

1.3. Integrativ yondashuv bo‘lajak tarix o‘qituvchisining kasbiy kompetentliligini rivojlantiruvchi yondashuv sifatida

Yangi O‘zbekistonning asosiy strategiyalaridan biri sifatida “Uzluksiz ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni o‘qitish tartibi va tamoyillari to‘g‘risida” qonun ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish ehtiyoji ham mavjudligi ta’kidlangan. Bu yo‘nalishda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan “2022-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi” yaratilishi va amalga oshirilishi tavsiya etilgan. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash, ushbu sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish” yo‘nalishida “O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirish” vazifasi belgilangan.[92] Tarix fani - insoniyatning butun o‘tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo‘lgan voqea-hodisalar, jarayonlarni rivojini yaxlit bir tarzda o‘rganadi. Tarix fani ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, san’atshunoslik va b.) tizimining tarkibiy qismi. Tarix fanining bu guruhdagi o‘rni uning tadqiqot predmeti va usullari bilan belgilanadi. Turli ijtimoiy va gumanitar fanlar jamiyat hayotining alohida jihatlarini o‘rgansa, tarix fanining tadqiqot obyekti - aholi, jamiyat, mamlakat, davlat hayotining o‘tmishi va hoziri haqidagi faktlarni yig‘ish, tahlil qilish, to‘plangan bilimlarni ma’lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan umumlashtirishdir. Tarix fani o‘tmishda sodir bo‘lgan jarayon va hodisalar orasidagi o‘zaro bog‘liklik, ularning ildizi, tarixni harakatlantiruvchi sabablar, uning mantig‘i va ma’nosini ko‘rish imkonini beradi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tarix tadqiqotlari natijalariga tayanadi. Fanlararo yondoshuv jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirib, o‘tmishni va hozirni anglash orqali jamiyat rivoji istiqbolini

[92] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон”/ 2021. Б. 233.

ko‘ra bilishdek muhim vazifani hal qiladi. Tarix fanida, boshqa fanlarda bo‘lganidek, muqarrar ixtisoslashuv amalga oshmoqda. Hozirgi zamon tarix fani alohida bo‘limlar va sohalardan tashkil topgan bilimlar majmuidir. Ixtisoslashish darajasiga ko‘ra, ularni bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni jamiyatning jahon tarixi butun va alohida tomonlarini o‘rganuvchi bo‘lim va sohalar tashkil qiladi. Insoniyat tarix ining ayrim hodisalari alohida o‘rganiladi. Jahon tarixi ibtidoiy jamiyat, o‘rta asrlar tarixi, yangi va eng yangi tarixga bo‘linadi. Ikkinchi guruhni yordamchi va maxsus tarix fanlari tashkil qiladi. Ularni alohida tarix fanlariga ajratilishi va rivojlanishi tarix fanining xususiy tadqiqot usullarini ishlab chiqish zaruratidan kelib chiqadi. Antropologiya, arxeologiya, etnografiya mustaqil o‘ringa ega. Yordamchi tarix fanlariga manbashunoslik, arxeografiya, paleografiya, geraldika, numizmatika kiradi. Maxsus guruh boshqa fanlar ehtiyojidan kelib chiqadi. Tarix fanining tarixini tarixshunoslik fani o‘rganadi. Tarix fani asrlar davomida qo‘lyozma asarlarda ifodalangan maishiy hayot, voqea-hodisalar, tarixiy personajlar va shaxslar haqida hikoya qilishdek oddiy bayonchilikdan, muayyan tarixiy kontekstda tarixiy hayot yo‘lining shakllanishi, bosqichlari va umumiy qonuniyatlarini aniqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va nazariy xulosalar chiqarish kabi murakkab ilmiy yo‘lni bosib o‘tdi. O‘zbekistonning eng qadimgi tarixi haqida moddiy madaniyat yodgorliklari va arxeologik topilmalar ma’lumot beradi. Mil. av. 1ming yillikka oid yozma manbalar, zardushtiylarning muqaddas Avesto kitobida, axomaniylar davri kitobalarida (Behistun, Naqshi Rustam va b.) Turon va Movarounnahrning tabiati, xalqlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. O‘zbekistonning qadimgi tarixi haqida Gerodot, Ksenofont, Ktesiy, Polibiy, Diodor, Strabon, Kursiy Ruf, shuningdek, xitoy, arman, arab mualliflari yaratgan yozma manbalarda ma’lumotlarni uchratish mumkin. Tarix ta’limi murakkab va ko‘p qirrali jarayonni tashkil etadi. O‘quvchi dars jarayonida tarixiy xaritalar bilan erkin ishlashi tarixiy hujjatlar va o‘lkashunoslik materiallari ustida mustaqil ishlay bilishi, ularni siyosiy taqqoslashi, tarixiy faktlarini tug‘ri tahlil eta bilmog‘i lozim. Bularning hammasi tarix darsining didaktik tomonini xarakterlaydi, uning g‘oyaviy mazmunini atroflicha ochib berishga xizmat qiladi.

Asrlar davomida O‘zbekiston siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy hayoti tarixi haqidagi ma’lumotlar saroy yilnomachilari, tarixchilar, xonlar, podshohlar tomonidan yozilgan qo‘lyozma manbalar shaklida jamlana bordi. O‘rta asrlar tarixnavisligida sulolaviy tarixga bag‘ishlangan Bayhaqiyning “Tarixi Bayhaqiy”, Nasaviynnng “Siyrat as Sulton Jalol ad-Din Mankburni”, Nizomiddinning “Zafarnoma”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Fazlulloh ibn Ruzbexonning “Mehmonnomai Buxoro”, Hofiz Tanish al-Buxoriyning “Abdullanoma”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy”, Muhammad Amin Buxoriynmng “Ubaydullanoma” kabi asarlari yaratildi. Sobiq Sovet Ittifoqi umumta’lim maktablarida tarix o‘qitish uslubini ilmiy pedagogik fan darajasiga ko‘tarish sarchashmalarida turgan tarixchi metodist olimlar V.N. Bernadskiy, S.V. Ivanov, V.G. Karsev, M.A. Zinovev, P.S Leybengrub, I.N. Kazansev, P.V. Gora, N.G. Dayri, A.A.Vagin va boshqalarning ilmiy uslubiy faoliyatlari bugungi kunda ham bo‘lajak tarix o‘qituvchilari uchun ham asosiy dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tarix ta’limini yangi bosqichga ko‘tarish O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida fanlararo o‘zaro integratsiya orqali dolzarb tarixiy va tarix o‘qitish metodikasiga oid tadqiqot mavzularni aniqlanishi, ularning bazalarini yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda bo‘lajak tarix o‘qituvchisi samarali ta’lim berishi uchun nazariy va amaliy jihatdan yetarli bilim va malakaga ega bo‘lishi lozim. Respublikamiz uzluksiz ta’lim tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, hamda integrativ yondashuv asosida ta’lim kompetensiyalarini shakllantirishning mazmuni va o‘qitish metodikasini takomillashtirish B.Abdullayeva, A.A.Abduqodirov, D.B.Abduraximov, M. Aripov, U.Sh.Begimqulov, M.E.Mamarajabov, N.A.Kayumova, B. M. Suropov, V .T. Jo‘rayev, N.S.Xaytullayeva, M.R.Fayziyeva; ta’limda kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati B.N.Alimov, M.M.Vahobov, N.A.Muslimov, A.A.Xasanov ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. [93]

[93] Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlardagi akademik liseylarda matematika o‘qitish misolida:. Ped.fan.dok.diss. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2006. – 23 b.; . Абдуқодиров А.А. Теория и практика интенсификации подготовки учителей физико-

Ta’lim jarayonini yangi mazmun va yangi shaklda yo‘lga qo‘yishda integrativ yondashuv talab etiladi. Integratsiya so‘zi lotincha “integratio” – tiklash to‘ldirish, “integer” – butun so‘zidan kelib chiqqan. Integratsiya – differensiya jarayonlari bilan birgalikda amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish va bog‘lash jarayoni bo‘lib, yangi, butun, yaxlit bo‘limlar yaratishga yordam beruvchi, fanlararo aloqalarni amalga oshirishning yuqori ko‘rinishidir.[94]

Integratsiya (lot. interatio – qayta qurish, tiklash, to‘ldirish) – bir-biri bilan organik birlashish, bir-biriga o‘zaro singdirish, bir-biri bilan birlashib o‘zaro yangi, yagona umumlashgan g‘oyani hosil qilish.[95] Integratsiya (lot. *integratio* – tiklash, to‘ldirish, *integer* – yaxlit) alohida differensiallashtirish qismlarning yaxlitga bog‘liqligi hamda bunday holatda olib keluvchi jarayonni anglatuvchi tizimlar nazariyasi tushunchasidir.[96]

Integratsiya - o‘qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish. Integratsiyalash — lotincha «integer» — umumiylik, «integerara» - umumiylikni to‘ldirish, yaratish, tiklash demakdir. Ta’lim mazmunidagi uyg‘unliklarni

---

математических дисциплин. Аспект использования компьютерных средств в учебно-воспитательном процессе: дисс. … док. пед. наук. – Ташкент: ТГПИ, 1990. – 360 с; Абдурахимов Д.Б., Академик лицейларда информатикани таълим турлари алоқадорлигида ўқитиш методикаси: пед. фан. номз… дисс. автореферати. – Тошкент: ТДПУ, 2007. – 24 б.; Арипов М., Пудовченко Ю., Арипов К. Основы Интернет. – Тошкент: Университет, 2002. – 194 с.; Бегимкулов У.Ш. Олий педагогик таълим тизимига замонавий ахборот ва коммуникация технологияларини жорий этишнинг илмий-педагогик асослари: пед. фан. доктори дисс... – Тошкент: ТДПУ, 2007. – 250 б.; Mamarajabov M. E. Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo’lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish Ped.fan.dok.diss. avtoref. – Toshkent: TDPU, 2022. – 124 b.; Kayumova N. A. Elektron ta’lim muhitida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini integrative yondashuv asosida tayyorlash metodikasini takomillashtirish : ped. fan. dok. diss... – Toshkent: TDPU, 2022. – 250 b.; Суропов Баходир Майдонович. Электрон таълим муҳитида ахборот-коммуникатsия технологиялари фанини ўқитишнинг методик таъминотини такомиллаштириш. : пед. фан. доктори дисс... – Тошкент: ТДПУ, 2019. – 124 б.; Jo‘rayev V. T. Elektron ta’lim muhitida pedagogic dasturiy vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish. : ped. fan. dok. diss... – Toshkent: TDPU, 2021. – 84 b..; Хайтуллаева Н.С. Бўлажак информатика ўқитувчиларини методик тайёрлаш тизимида web-технологиялардан фойдаланиш: пед. фан. фал. док. ... дисс. автореф. (PhD) – Тошкент, 2019. – 46 б; Alimov B.N. Kompetensiyaviy yondashuv-o‘quvchilarning matematik savodxonligi va madaniyatini oshirish vositasi sifatida // Uzluksiz ta’lim. – Toshkent, 2015. – № 1. – B. 128 .; Vahobov M.M. Kompetenviy yondashuv asoslangan davlat ta’lim standartlari hamda ta’lim sifati monitoringi modelini amaliyotga joriy etish-intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalashning muhim omili// Maktab va hayot.-№3 (119).- Toshkent, 2016.- B. 2.; Muslimov N.A. Elektron darslik yaratish metodik tamoyillari va texnologiyalari. //Info Com.UZ. –2004.–iyul.– st.62–66.; Xasanov A.A. O‘qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning psixologik-pedagogik asoslari // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2017. - № 10. – B. 9.

[94] Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили: олий ўқув юртларининг филология факултетлари учун дарслик. 2-нашри. – Тошкент: 1965.-315 б.

[95] Джураев Р.Ҳ. Таълимда интерфаол технологиялар. –Тошкент, 2010. – 87 б.

[96] Словарь иностранных слов. - М.: ЮНВЕС, 1995. – 342 с.

ta’minlash muammolari ham integratsiyalashning shug‘ullanadigan sohasi hisoblanadi. U tushunchalami umumlashtirishni o‘rgatish. [97]

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Integratsiya (lot. integratio) - tiklash, qaytadan boshlash, to‘ldirish. 1. Ayrim qismlarning, elementlaming bog‘liqlik holatini, ularni qo‘shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha. 2. Fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘lanish jarayoni. 3. Ikki va undan ortiq davlatlarning iqtsodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish”, “Integral (lot. integer - bir butun, buzilmagan, qayta tiklangan) - mat. Oliy matematikada cheksiz kichik sonlar yig‘indisi sifatida qaraladigan butun miqdor. Integrallash - mat. berilgan funksiyaning, matematik ifodaning integralini topish, aniqlash”.[98]

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida qad etilishicha, “Integral [lot, integer butun] - matematik analiz (tahlil) ning asosiy tushunchalaridan biri. Integrallash matematikada aniqmas integralni izlash amali. Integratsiya (lot. Integration - tiklash, to‘ldirish, integer-butun so‘zidan), fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni, differensiatsiya bilan birga kechadi”.[99]

«Macmillan English Dictionary for Advanced Learners» lug‘atida esa quyidagicha izohni uchratish mumkin: Integral (integral) - 1. To‘liq bo‘lishi uchun biror bir qismni yaxlitlash; Integratsiyalash (Integrate) - 2. Ikki yoki undan oshiq narsalarni to‘liq tizim yoki bo‘lak bo‘lishi uchun birlashtirish. Integratsiya (Integration)-narsalarni, odamlarni yoki turli xil fikrlarni bitta qilib jamlash, jamlab olmoq.[100]

“Pedagogik integratsiya” termini-tushunchasi, olimlarning fikricha, integrattsiyaning muayyan ko‘rinishlarini tushuntirish, prognozlash va ularni pedagogika predmetliligi doirasida uning vazifalariga muvofiq tarzda boshqarishni nazarda tutadi. V.S.Bezrukova bu qoidani tasdiqlab, uni ilmiy integratsiyaning

[97] Ҳасанбоев Ж., Туракулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О., Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Тошкент: «Фан ва технология» нашриёти, 2008.480 б.

[98] O‘zbek tilining izohli lug‘ati.“O‘zbekiston milliy ensiklopediya”. Davlat ilmiy nashriyoti, -T.: 2006. 3 jild. -557 b.

[99] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. –Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. 8-jild. - B. 55.

[100] Macmillan English Dictionary for Advanced Learners.Macmillan Publishers Limited. - England. 2002. 1692 p.

pedagogik nazariya va amaliyot doirasida amalga oshiriladigan turi sifatida ta’riflaydi.[101]

Pedagogik tadqiqotlarda integratsiya “yaxlitlik, tizimlilik, o‘zaro bog‘liqlik, komplekslik”; “prinsip, jarayon va natija”; “tarqoq qismlarni bir butunga birlashtirish”, “komplekslash va summalash”; “sintezlangan kurslar va fanlararo aloqadorliklar” nuqtayi nazaridan tavsiflanadi. Biroq bu xarakteristikalar integratsiyaning pedagogik hodisa sifatidagi o‘ziga xosligini to‘liq aks ettirmaydi. Buning sabablarini A.Y.Danilyuk quyidagilarda deb biladi: 1) integratsiyani idrok qilish cheklanganligi; 2) hodisaning texnologik jihatdan ishlanmaganligi; 3) integratsiyani dialektik, o‘zini o‘zi tashkil qiladigan jarayon sifatida tushunish mavjud emasligi; 4) integratsiya va differensiasiyaning qarama-qarshi qo‘yilishi. Tadqiqotchi bu hodisalar o‘zaro aloqadorligi dialektikasini ta’kidlaydi: bilim avval boshidan turli o‘quv fanlari bo‘yicha differensiasiyalangan, aslida bu integratsiya zaruratini keltirib chiqaradi, differensiatsiya integratsiyaning boshlanishidir. Ikkita dialektik tarzda kesishgan hodisani mutlaqo qarama-qarshi qo‘yish to‘g‘ri emas: differensiatsiya aniqlik bilan integratsiyaning boshlang‘ich nuqtasi ekan, demak integratsiya natijasi differensiatsiyaning boshlanishi bo‘lishi lozim.[102]

Yarmatovning fikricha, integratsiya – bu shaxsdan har qanday hodisalarni turli nuqtayi nazarlardan ko‘rib chiqishni talab etuvchi; bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida ijodiy tadqiqotlarni mustaqil o‘tkazish qobiliyatini shakllantirishni talab etadigan turli sohalardagi bilimlarni aniq ijodiy masalani echishda qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirish; ularda biror-bir ijodda o‘zlarini faol namoyon etish istagini rivojlantirishning murakkab strukturaviy jarayoni.[103]

Sh.Yusupovaning ta’kidlashicha, integratsiyani quyidagi yo‘nalishlarida tatbiq etish maqsadga muvofiq: o‘quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmunni

---

[101] Безрукова, В.С. Педагогическая интеграция: сущность, состав, механизмы реализации / В.С. Безрукова // Интеграционные процессы в педагогической теории и практике: Сб. науч. Трудов.автореф. Дисс....канд.пед.наук. Свердловск: СГИПИ, 1999. – С. 3–25

[102] Данилюк, А. Я. Учебный предмет как интегрированная система /А.Я.Данилюк // Педагогика. – 1997. – № 4. – С. 24 – 28.

[103] Yarmatov R.B. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Ped.fan.dok.diss.. – Toshkent: TDPU,2021, 279b.

integratsiyalab o‘rganish; turli xil o‘quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash; ta’lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki o‘quv kunini integratsiyalash.[104]

M.Kenjayevaning fikricha, integratsiya o‘rganilayotgan yagona mavzu doirasida bir necha fanlar o‘rtasidagi tutash va umumiy jihatlarni topish, bilimlarni sintez qilish, ta’lim oluvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini almashish orqali yo‘lga qo‘yish shaklidir. Shu asosda ta’lim oluvchilarni ortiqcha ruhiy zo‘riqishlardan asrash, bilim olishga motivasiya berish, muayyan fanni boshqa bir fan doirasida o‘rganishga qiziqtirish kabi ta’limiy vazifalar amalga oshiriladi. Natijada o‘zlashtirilgan bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmasi ortadi, kommunikativ va ijtimoiy faollik sifatlari yanada kamol topa boradi. [105]

U o‘quvchi faoliyatining yangi tarkibini belgilash imkonini beradi. Integratsiya ta’lim maqsadi sifatida olamning alohida qismlari bog‘liqligini ko‘rsatuvchi bilimlarni berish emas, balki barcha elementlari bir-biriga bog‘liq yaxlit olamni tasavvur qilishga o‘rgatishi kerak. [106]

A.Toshxonovning fikricha, ta’lim integratsiyasi - fanlararo aloqaning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vosita. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta’riflar turlicha ushbu ta’riflarning umumiylik tomoni - integratsiya bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit qarashga erishishdan iborat.[107]

M.Mamarajabov raqamli pedagogika raqamli texnologiya orqali o‘qitish va o‘quv faoliyatiga jalb qilish va aks ettirish amaliyoti sifatida belgilanib, ta’limda texnologiyaning integratsiyasi raqamli pedagogika falsafasiga asoslanishi mumkin. Ta’limga texnologiyani integratsiyalash to‘g‘ri amalga oshirilishi kerak bo‘lgan

[104] Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида): пед. фан. док. … дисс. – Тошкент, 2005. – 279 б.

[105] Кенжаева М. А.5-6-синф ўқувчиларида лингвистик компетенцияларни ривожлантириш методикаси. пед. фан. док. … (PhD)дисс. – Тошкент, 2021. – 157б.

[106] Мавлонова К.М. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш: пед. фан. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 54 б.

[107] Toshxonov A.T. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish. Ped.fan.dok.(PhD) diss.. – Toshkent: TDPU,2023, 138b.

dolzarb masaladir. [108]

Integratsiyaning asosini fanlararo aloqadorlik tashkil etadi va o‘zining rivojini integratsiya g‘oyasida topadi. Integrativ mazmunga ega bo‘lgan predmetlami o‘rganish bo‘lajak mutaxassislar bilimi, ish uslublari, shaxsiy fazilatlari yaxlit, bir butunligini ta’ minlovchi omil sifatida qaraladi.[109]

A.Toshxonovning tadqiqot ishida ta’limdagi integratsiya quyidagicha ifodalangan: butun borliq haqida yaxlit tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya ta’lim maqsadi sifatida qaraladi); turli fan bilimlarini yaqinlashtirish uchun umumiy platforma topish (bunda integratsiya vosita sifatida ishlatiladi); rivojlantiruvchi ta’lim berish vositasi sifatida; umuminsoniy, milliy tarbiya vositasi sifatida. Ikki o‘quv fani o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatishda va ularning integratsiyasi da vaqti-vaqti bilan u yoki bu fan tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Turli o‘quv fanlardagi mavzularning uzviy bog‘liqligi va mantiqiy o‘zaro aloqadorligi integratsiyalashgan darslarning asosi bo‘lishi kerak. [110]

Bizning fikrimizcha, integratsiya tarixiy bilimlarning yaxlit, kontekstli va konseptual tarzda o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tarixiy bilimlarni o‘zlashtirishi, ularning tafakkurini kengaytirish va darsni intekrativ motivatsion tarzda tashkil etishni ta’minlaydi, integratsion omillarni rivojlantiradi.

Ta’limda integrativ yondashuvning texnologik vazifasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: vaqtni tejash; o‘quv axborotlarini uyg‘unlashtirish va ularni o‘quvchilar jadal o‘zlashtirish imkoniyatini yaratish; o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalari ko‘lamini kengaytirish maqsadida mazkur jarayonning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash; o‘zaro turli-tumanlikning mavjudligi; bir turkumdagi o‘quv predmetlari va o‘quv fanlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish; o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning izchilligini ta'minlash va tizimlashtirish; o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan ayrim bilimlarni mazkur yo‘nalishdagi yangi

[108] Mamarajabov M.E. Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish. Ped.fan.dok. diss.. – Toshkent: TDPU,2022, 310 b.
[109] Toshxonov A.T. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish. Ped.fan.dok.(PhD) diss.. – Toshkent: TDPU,2023, 138b.
[110] Toshxonov A.T. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish. Ped.fan.dok.(PhD) diss.. – Toshkent: TDPU,2023, 138b.

axborotlar bilan almashtirish; o‘quvchilarda integrallashgan sifatlarni tarkib toptirish, ularni muvofiqlashtirish va o‘zaro izchilligini ta’minlash.[111]

M.Kenjayeva tadqiqot ishida integrativ yondashuvning vazifalari orasida markaziy o‘rinni o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini rivojlantiruvchilik vazifasi egallashini ta’kidlagan.[112]

Bizningcha, tarix ta’limida integrativ yondashuvning asosiy vazifasi fanlararo integratsiya orqali bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tizimlilik, tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, ijodiy, tadqiqot ko‘nikmalarining oshishi kabi sifatlari muhim sanaladi. Darslarni integrativ yondashuv asosida tashkil etish eskirgan usullardan voz kechishni taqozo qiladi. Bunday integratsiya natijasida o‘quv jarayonida sifat o‘zgarishi vujudga keladi

M.Mamarajabov tadqiqot ishida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda innovatsion, tizimli, kompetensiyaviy, information-texnologik, integrativ yondashuvlarni joriy etishni ta’kidlab o‘tgan. Ta’limni tashkil etishning integrativ texnologiyalarga va kompetensiyalarga asoslangan yondashuvdan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajalarini aniqlash imkonini berishini asoslagan. [113]

Ta’lim jarayonida integrativ yondashuvning ijobiy natijalari quyidagilardan iborat: O‘quvchilarning o‘rganilayotgan materialning nisbatan tugallangan qismini chuqur va mustahkam o‘zlashtirishlari ta'minlanadi; O‘quvchilarni faoliyatning turli-tuman ko‘rinish va shakllariga jalb qilish, faoliyatni tashkil etishning yalpi, guruh va yakka shakllarini maqbul tarzda birga qo‘shib olib borish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi; O‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikda ijod qilishlariga keng yo‘l ochiladi; O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilar faolligini ta'minlaydigan shakllarga integratsiya qilish imkoniga ega bo‘ladi; O‘quvchilarning yosh, aqliy, jismoniy


[111] Йўлдошев Ж.Ғ. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга татбиқ этиш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2008. – 132 b.

[112] Кенжаева М. А.5-6-синф ўқувчиларида лингвистик компетенцияларни ривожлантириш методикаси. пед. фан. док. … (PhD)дисс. – Тошкент, 2021. – 157б.

[113] Mamarajabov M.E. Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish. Ped.fan.dok. diss.. – Toshkent: TDPU,2022, 310 b.

xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olish uchun shart-sharoitlar yuzaga keladi.[114]

Bizningcha, tarix ta’limida integrativ yondashuvning ijobiy natijalari bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida kreativlik, kritiklik sifatlarining oshishiga, kasbiy kompetensiyalarining shakllanishiga, integration omillarning rivojlanishiga xizmat qiladi va u quyidagilarda namoyon bo‘ladi:



1.1-rasm. Tarix ta’limida integrativ yondashuvning ijobiy natijalari

Ta’limda integrativ yondashuv muammosi M.I.Aliyev, A.R.Bektenyarova, G.Yu.Vishnevskaya, R.B.Lotshteyn, A.A.Xomich va boshqalarning tadqiqotlarida yoritilgan. Olimlarning tadqiqotlarida umumiy o‘rta ta’lim va oliy maktabda o‘quv jarayonini takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirishda integrativ yondashuvning ahamiyati ko‘rsatilgan. [115]

---

[114] Ибрагимов Р. Бошланғич синф ўқувчилари билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари: Педагогика фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.– Тошкент: Қори Ниёзий номли ЎзПФИТИ, 2002. – 265 б.

[115] Алиев М.И. Межпредметные связи как условие активизации учебной деятельности студентов.: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Тбилиси: Тбил. гос. пед. ин-т им. А. С. Пушкина, 1986. – 20 с.; Бектеньярова А.Р. Межпредметные связи как условие активизации познавательной деятельности учащихся.: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Алма-Аты: : Алмат.гос.ун-т им.Абая , 1993. - 25 с. ; Вишневская Г.Ю. Реализация межпредметных связей в учебном процессе общеобразовательной школы и негуманитарного вуза: На примере курсов русского и английского языков :Автореф. дис. … канд..пед..наук.- Карачаевск: Карачаево-Черкес. гос. пед. ун-т, 2002. - 15 с.; Лотштейн Р.Б. Межпредметные связи в подготовке учителя(на материале английского языка и профилируюших предметов в педагогическом неязқковом вузе): Дис. ... канд. пед. наук. - Алма-Ата: Каз. пед. ин-т им. Абая, 1978. – 134 с.; Хомич А.А. Система межпредметных заданий как средство формирования научного мировоззрения школьников: Автореф. дис. … канд. пед. наук. – Киев: НИИ, 1986. – 24 с.

Integrativ yondashuv muammosi uzoq o‘tmishdayoq o‘qituvchilarni qiziqtirgan. K.D.Ushinskiy va N.K.Krupskaya kabi mohir pedagoglar tabiatning yaxlit manzarasini "o‘quvchida" aks ettirish, haqiqiy bilim tizimini yaratish va to‘g‘irlash uchun o‘quv fanlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik haqida o‘z fikrlarini bildirishgan.[116]

Ta’lim jarayonida integrativ yondashuvni amalga oshirish bu turli usullar va texnologiyalarni rivojlantirish, qo‘shimchalar kiritish va ulardan o‘quvchining bilim olishi va yetuk shaxs sifatida shakllanishida foydalanishdir [83]. Didaktik jihatdan integrativ yondashuv tushunchasiga nazariy tomondan qaraydigan bo‘lsak – fanlarni o‘qitishda ularning umumiy va farqli tomonlarini anglashda qo‘llaniladigan usullar, shakllar va uslublar hamda ular orasidagi o‘zaro bog‘lanishni anglash mumkin. Bu o‘z navbatida bog‘langan bilimlarga asoslangan savol va mashqlardan foydalanish yo‘li bilan ro‘yobga chiqariladi.[117]

M.A.Babayevaning fikricha, o‘quv jarayonida integrativ yondashuvni samarali ro‘yobga chiqarish uchun ularning asosida yotuvchi psixologik qonuniyatlarni hisobga olish zarur hamda psixik funksiyalarning tizimliligi haqidagi fiziologik va psixologik ma’lumotlarga asoslanadi. Bunda assosiativ yondashuv harakatini rag‘batlantiradigan o‘qitish usullaridan foydalanish zarurati mavjud. O‘zlashtirilayotgan bilimlarda bog‘lanishlar turlicha bo‘lishi, tushunchalarni samarali va tizimli egallanishiga zamin yaratib, yechimdan keng qamrovli foydalanishni ta’minlaydi.[118]

B.G.Ananyevning fikricha, inyegrativ yondashuv bir butun tizimli bilimlar shakllanishining majburiy sharti hisoblanadi.[119]

---

[116] Babayeva M. A. Integrativ yondashuv asosida dasturiy ta’minotni yaratish orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish. Ped.fan.dok.(PhD) diss.. – Toshkent: TDPU,2022, 141 b.

[117] Xasanov A.A. O‘qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning psixologik-pedagogik asoslari // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2017. - № 10. – B. 9.

[118] Babayeva M. A. Integrativ yondashuv asosida dasturiy ta’minotni yaratish orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish. Ped.fan.dok.(PhD) diss.. – Toshkent: TDPU,2022, 141 b.

[119] Ананьев Б.Г., Рыбалко Е.Ф. Особенности восприятия пространства у детей. - М.: «Просвещение», 1964. –С. 304.

O‘rganilgan bilimlardan faoliyatning turli sharoitlarida foydalana olish qobiliyatining rivojlanishi integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishning muhim jihati hisoblanadi.

M.A.Babayevaning tadqiqot ishida integrativ yondashuvni amalga oshirishda qatnashuvchilarning qobiliyatlari, idroki, ongi, dunyoqarashi kabi psixologik jihatlarini e’tiborga olish zaruriy omillardan biri hisoblanishi, ta’limda predmetlararo bilimlarni shakllantirish natijasida o‘zaro bog‘liqlikdagi fanlarni yaxlit tasavvur qilish imkoniyati yaratilishi ta’kidlangan.[120]

Y.A.Komenskiy “O‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan hamma narsa xuddi shunday bog‘liklikda o‘qitilish kerak, chunki bu narsa tizimli bilimlarni shakllantirishda juda muhimdir” deb ta’kidlagan, bu bilan Ya.A.Komenskiy maktab ta’limi – o‘quvchilarning aqli, axloqi, his tuyg‘ulari va irodasini rivojlantiradigan, har tomonlama ta’lim berishi kerak degan fikrni olg‘a surgan.[121] Yan Amos Komenskiy grammatika, falsafa va adabiyotni, XVII asrning mashhur pedagogi Jon Lokk esa tarix va geografiyani o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishni taklif qilgan.[122]

I.G.Pestalossi atrofdagi voqelikni to‘g‘ri idrok etishga yordam beradigan bog‘lanish to‘g‘risida “O‘zaro bog‘langan buyumlarni o‘z ongiga ularning tabiatdagi haqiqiy bog‘lanishida qanday bo‘lsa, shunday keltirgan”[123],- deb yozgan, ya’ni yuqori sinflarda bir fanning boshqasidan ajralib qolish xavfi to‘g‘risida fikr yuritgan. V.G.Belinskiy o‘quv fanlari o‘zaro bog‘lanishda o‘qitilishi g‘oyasini ta’kidlasa, N.G.Chernishevskiy bir fandan o‘zlashtirilgan bilimlar, boshqa fanlarni o‘rganishda zarurligini yoqlab chiqqan. [124]

Ta’lim nuqtayi nazaridan qaraganda, integrativ yondashuv ta’lim jarayoni qatnashchilarining o‘zaro hamkorlik faoliyati davomida o‘rganilayotgan predmetlarning mazmuni va maqsadini yoritadi, demak: - borliqni umumiyligiga

[120] Babayeva M. A. Integrativ yondashuv asosida dasturiy ta’minotni yaratish orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish. Ped.fan.dok.(PhD) diss.. – Toshkent: TDPU,2022, 141 b.

[121] Коменский Я.А. Учитель учителей . - М.:Карапуз, 2009. – 288 с.

[122] Babayeva M. A. Integrativ yondashuv asosida dasturiy ta’minotni yaratish orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish. Ped.fan.dok.(PhD) diss.. – Toshkent: TDPU,2022, 141 b.

[123] Песталоцци И.Г. Избранные педогогические произведения. – М.: Просвещение, 1965. – 175 с.

[124] Babayeva M. A. Integrativ yondashuv asosida dasturiy ta’minotni yaratish orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish. Ped.fan.dok.(PhD) diss.. – Toshkent: TDPU,2022, 141 b.

tayangan holda olami haqidagi ongli munosabatni shakllantirishda o‘quv jarayoni barcha jihatlari orasidagi bog‘liqlikni amalga oshiradi; - no‘ananaviy ta’limga asoslangan ilmiy va nazariy jihatlarini ochib, o‘zaro bog‘lanishni nazarda tutadi; - o‘quv materialining takrorlanishiga chek qo‘yadi hamda o‘quv vaqtini tejashga xizmat qiladi.[125]

Integrativ yondashuv muhim pedagogik jarayon hisoblanib, ta’lim maqsadlari va vazifalari yaxlitligini o‘zida mujassamlashtiradi. Shunga ko‘ra, tadqiqotlarda umumta’lim fanlarining fanlararo aloqadorligi - fanlarni o‘rganishda o‘qitishning mazmunini saralab olish usul, shakl va vositalarini tanlab olishda majmuaviy yondashuvni talab qiladi. Integrativ yondashuv g‘oyasi, ahamiyati jihatidan uzviy, o‘zaro va integrativ bog‘lanishlardan farq qiladi, ya’ni u vaqt, mazmun, foydalanilgan usullarga ko‘ra chegarasizdir.[126]

Bugungi kunda tarixchilar o‘tmishni o‘rganishda ko‘proq fanlararo aloqadorlik nuqtai nazaridan yondashmoqdalar. O.M.Medushevskaya “Fanlararo aloqadorlik sharoitlarida gumanitar ta’limning professionalligi” ishida fanlararo aloqadorlik imkoniyatini yoritgan.[127]

Fanlararo aloqa – ayrim o‘quv fanlari mazmuni o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lilik, buning yordamida ta’lim programmasi birligiga, shuningdek, bir qancha turli programmani bir butun qilib tadrijiy birlashtirishga erishiladi[128].

Yarmatov tadqiqot ishida fanlararo integratsiya to‘g‘risida fikr bildirganda, birinchi navbatda bo‘lajak tarix o‘qituvchisini rivojlantiruvchi asos sifatidagi fanlararo integrativ mazmunni nazarda tutgan.[129]

---

[125] Azimova Z.E.O‘quvchilarning shaxslararo munosabatlari integral diagnostikasi: Dis..ped.fan.nom. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009. - 185 b.

[126] Saidnazarova.G. Bolajak oqituvchilarda kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik omillari // Ijtimoiy sohani modernizasiyalash kontekstida pedagogik ta’lim taraqqiyoti: muammo va istiqbollar: Respublika ilmiy nazariy anjumani materiallari. – Buxoro: BDU, 2021. – B. 211.

[127] Медушевская О.М. Профессионализм образования В условиях междисциплинарности гуманитарного // Проблемы источниковедения и историографии: Материалы научных чтений М.: РОССПЭН, 2000. – С. 350-356. -

[128] Oliy ta'lim. Lug'at ma'lumotnomasi. – Toshkent: Moliya, 2003. – 454b.

[129] Yarmatov R.B. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Ped.fan.dok.diss.. – Toshkent: TDPU,2021, 279b.

Fanlararo integrativ mazmun ostida mazmunning turli sifatli tizimlarining o‘zaro singishi tushuniladi. Bu turli integratsiya darajasiga ega integrativ kurslar, integrativ tipdagi mashg‘ulotlar bo‘lishi mumkin. Bo‘lajak tarix o‘qituvchisini shakllantirishning jihatlaridan biri motivasiya hisoblanadi. Fanlararo integrativ asosda qurilgan o‘quv jarayoni egallangan bilimlarning zarurligi, ijtimoiy ahamiyatini tushunish, bilishga oid qiziqishlarni va ehtiyojlarni qo‘llab-quvvatlash, o‘z dunyoqarashini kengaytirishga intilish va boshqalar hisobiga ta’lim oluvchilarning motivasiyalari darajasini oshirishga ko‘maklashadi.

Fanlararo integratsiya o‘quvchilar va bo‘lajak tarix o‘qituvchilari bilimlarining bir sohadagi qiziqishlarini qondirish hisobiga bilimlarning boshqa sohasiga shaxsiy mazmun baxsh etishi mumkindir. Bir fan sohasining mazmuni boshqa fan sohasining mazmuni orqali qadriyatli bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Fanlararo asosda integrativ mazmun intellektual ijodiy tafakkurning rivojlanishi uchun muammoli vaziyatlar yaratish, fanlararo muammolarni hal qilish orqali katta imkoniyatlarni yaratadi.[130] Natijada bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish uchun integratsion omillardan foydalanish zaruriyati tug‘iladi.

Integratsion omil bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida bilim, ko‘nikma, malaka, qadriyat va faoliyat komponentlarining o‘zaro aloqadorligi hamda yaxlitligini ta’minlovchi pedagogik, metodik va tashkiliy ta’sirlar majmuasi hisoblanadi. Integratsion omillar ta’lim mazmuni, metodlari, texnologiyalari va amaliy faoliyatning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlab, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi hamda bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishda integrativ tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda fanlararo integratsiyani amalga

[130] Yarmatov R.B. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Ped.fan.dok.diss.. – Toshkent: TDPU,2021, 279b.

oshirishda quyidagi integratsion omillarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir: o‘qitiladigan barcha fanlar darsliklaridagi materiallarni atroflicha o‘rganib chiqishi, ulardagi bog‘lanish obyektlarini aniqlab olishi; fan darsliklaridagi mazkur materiallarni o‘zaro bog‘lanish nuqtalarini aniqlab olishi; dars jarayonida fanlararo bog‘lanish nuqtalarining yechimiga olib keluvchi shart-sharoitlar yaratishga e’tibor qaratish; fanlararo integratsiyani amalga oshirishning faol yo‘l va usullarini va vositalarini oldindan tanlash, ishlab chiqish va dars jarayonida mohirona foydalanish; fanlararo integratsiyani amalga oshirishda yetarlicha adabiyotlarni to‘plash va ulardan ko‘rgazmali vosita sifatida dars jarayonida foydalanish; turli fanlarni bir xil obyektlarni o‘rganishga qaratilgan turdosh mavzularini aniqlab olish; bir fan usullaridan boshqa bir fan obyektlarini o‘rganishda qo‘llay olish; turli fanlarda ba’zi obyektlarni o‘rganishda bir xil nazariyadan foydalanish nuqtalarini belgilash va uni amalga oshirish; integrativ yondashuvni aks ettiruvchi dars jarayonlarini tashkil etish, shu o‘rinda bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish.

Xulosa sifatida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi qanday bo‘lishidan qatiy nazar, u avvalo, o‘ziga xos xususiyati, fazilatlari, ya’ni qiziqishlari, muloqotning ustun bo‘lgan uslubi, qadriyatlari, dasturi va shu kabilarga ega inson hisoblanadi. Bularning barchasi uning kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xarakterini belgilaydi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

Bugungi kunda tarix o‘qituvchisi nafaqat o‘z fanini biluvchi mutaxassis, balki o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, fuqarolik pozitsiyasi va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantira oladigan shaxs sifatida qaralmoqda. Shu bois bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur muammoni hal etishda integrativ yondashuv muhim metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi. Integrativ yondashuv ta’lim jarayonida turli fanlar, bilimlar, metodlar va faoliyat turlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Bu yondashuv orqali bo‘lajak tarix

o‘qituvchisida nafaqat tor doiradagi tarixiy bilimlar, balki keng qamrovli dunyoqarash, fanlararo fikrlash, kompleks tahlil qilish va turli ijtimoiy jarayonlarni o‘zaro bog‘liqlikda tushunish qobiliyati shakllanadi. Demak, integrativ yondashuv kasbiy kompetentlikni shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining muhim pedagogik muammolaridan biridir. Ushbu muammo ta’lim mazmunini integratsiyalash, metodlarni takomillashtirish, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish, shuningdek, talabalar shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlash orqali hal etilishi mumkin. Integrativ yondashuv esa bu jarayonda samarali metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi va natijada zamonaviy talablarga javob beradigan, keng dunyoqarashga ega, kreativ va kompetent tarix o‘qituvchilarini tayyorlash imkonini beradi.

Kasbiy kompetentlilik shaxsning o‘z kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga tayyorligi va layoqatini ifodalovchi kompleks sifat bo‘lib, u bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba, qadriyatlar, motivatsiya va shaxsiy fazilatlarning integratsiyalashgan tizimini o‘z ichiga oladi. Ushbu tushuncha faqat nazariy bilimlar bilan chegaralanmaydi, balki o‘sha bilimlarni amaliy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy yondashish va o‘z faoliyatini takomillashtirib borish qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Kasbiy kompetentlilikning shakllanishi uzluksiz va bosqichma-bosqich jarayon bo‘lib, u ta’limning barcha bosqichlarida rivojlanadi. Dastlab nazariy bilimlar egallanadi, keyinchalik ular amaliy faoliyat orqali mustahkamlanadi va tajribaga aylanadi. Kasbiy kompetentlik bo‘lajak tarix o‘qituvchisining kasbiy identifikatsiyasi jarayonida shakllanadi. Bu jarayon ta’lim olish davridayoq boshlanib, pedagogik faoliyat davomida takomillashib boradi. Talaba dastlab o‘z kasbining mazmuni, vazifalari va ijtimoiy ahamiyatini anglaydi, keyinchalik esa o‘zini shu kasb egasi sifatida shakllantira boshlaydi. Aynan shu jarayonda kasbiy kompetentlikning asoslari yaratiladi. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini

ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Kasbiy kompetentlik bo‘lajak tarix o‘qituvchisining pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy pedagogik ta’limning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, u nafaqat pedagogning individual muvaffaqiyatini, balki butun ta’lim tizimining samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

II BOB. BO‘LAJAK TARIX O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISHNING INTEGRATSION PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA ULARNI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

2.1 Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasi

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bugungi kunda jahon pedagogikasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlarda tarix ta’limi metodikasini takomillashtirishda fanlararo integratsiya, tarixiy tafakkur, raqamli pedagogika hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida tizimli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi bosqichda insonparvarlik ta’limining yetakchi qiymati - bu dunyoning tabiiy va ijtimoiy ierarxiyasidagi eng yuqori qadriyat. Gumanistik ta’limning inson rivojlanishiga yo‘naltirilganligi unga biologik va ijtimoiy mavjudot , hayotiy faoliyati turli xil ijtimoiy aloqalar tizimida amalga oshiriladigan shaxs , bir vaqtning o‘zida o‘ziga xos noyob xususiyatga ega bo‘lgan shaxs sifatida yaxlit yondashuvni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan hozirgi bosqichda insoniy fanlarning integratsiyasi kuchaymoqda. Bunday integratsiya - jarayonlarining dalili sifatida ta’lim psixologiyasi va ijtimoiy pedagogika kabi qator ilmiy fanlarning paydo bo‘lishidir.[131]

G.D. Gachevning so‘zlariga ko‘ra., integratsiya, ma'naviy madaniyatning birligini saqlashning eng muhim omili bo‘lib , butunlik qiyofasini berishga qodir. Aksincha, haddan tashqari izolyatsiya va o‘zini-o‘zi izolyatsiya qilish, ilmning "men" ni talab qilishi zararli bo‘ladi, chunki u ruhiy faoliyat ufqini toraytiradi[132][133].

[131] Щенникова С. В. Интегративный подход в подготовке будущего педагога к творческой деятельности. Дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Киров 2003б, стр. 183

[132] [132] Щенникова С. В. Интегративный подход в подготовке будущего педагога к творческой деятельности. Дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Киров 2003б, стр. 183

[133] Гачев Г.Д. Книга удивлений, или Естествознание глазами гуманитария, или Образы в науке. - М.: Педагогика, 1991. - 272 с.

Fanlarning tabaqalanishi insonning deformatsiyasiga olib keladi va uning ta’lim va kasbiy tayyorgarligiga salbiy ta'sir qiladi. Inson, qoida tariqasida, dunyoning yaxlitligini tushunishga qodir, chunki "hamma narsa unga singib ketgan". Biroq "qisman bilim, ma'lumotning o‘sishi ... va insonning bularning barchasini dunyoning yaxlit tasviriga to‘plash qobiliyati o‘rtasida yorqin nomutanosiblik shakllandi" [68, p. 14].

Integratsiyaning pedagogik jihati I.P. Yakovlevaning ikkita monografiyasida aks ettirilgan. Shunday qilib, birinchi ishning asosiy maqsadi oliy ta’lim va jamiyat taraqqiyoti uchun umumiy bo‘lgan integratsiya tendensiyalarini aniqlash va integratsiya jarayonlarining namoyon bo‘lish xususiyatlarini ko‘rib chiqish edi. Ta’lim jarayonidagi ba’zi sifat o‘zgarishlarini bashorat qilishga harakat qiladi. Integratsiyani jamiyat, fan va ta’lim taraqqiyotining yetakchi tendentsiyasi deb atagan I.P.Yakovlev ta’limda integratsiya jarayonlarini eng muvaffaqiyatli amalga oshirish shartlarini, ikkinchisining oliy ta’limda mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishga ta'sirini aniqlashning katta ahamiyatini ko‘rsatadi.

I.P. Yakovlev "Shaxsning yaxlitligi" tushunchasini ochib beradi, bu orqali u barcha turdagi faoliyatda yuqori faollikka ega va ular o‘rtasidagi uyg‘un munosabatlarga ega bo‘lgan shaxsni anglatadi. U muvofiqlik, faoliyatning barcha turlarining bir-birini to‘ldirishi va ularning birligi tamoyili asosida shakllanadi.[134] - Shaxsni shakllantirish jarayonida tashqi muhit, uning barcha tarkibiy qismlarining o‘zaro ta'siri va ikkinchisining shaxs bilan munosabati katta o‘rin tutadi. Umumjahonlashtirish va uyg‘unlikning organik birligi printsipiga asoslangan yaxlit shaxs konsepsiyasiga asoslanib, I.P. Yakovlev "ajralmas profil" - shaxsni shakllantirishning professional asosiga ega bo‘lgan mutaxassis modelini ishlab chiqmoqda .

S.V.Shennikovaning fikricha, I.P Yakovlev tomonidan ishlab chiqilgan. "integral profil" ga ega bo‘lgan mutaxassis konsepsiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarni

[134] Щенникова С. В. Интегративный подход в подготовке будущего педагога к творческой деятельности. Дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Киров 2003б, стр. 183

ijodiy faoliyatga tayyorlash modelining nazariy blokining asosiy komponenti sifatida qo‘llaniladi. O‘zining keyingi ishlarida I.P. Yakovlev oliy ta’limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalash muammolarini ko‘rib chiqadi. Asosiy e'tibor masalaning tashkiliy va institutsional tomoniga qaratilgan. Muallifning adolatli fikricha, shaxs uchun muayyan jarayon “ishlashi” uchun barcha ishlab chiqarish vositalarini, fan, ta’lim va boshqaruv vositalarini birlashtirish va birlashtirish zarur.[135]

Falsafiy va ilmiy adabiyotlarda pedagogik integratsiyani texnologik ta'minlash muammolarini hal qilishga yondashuvlar mavjud. Turli xil kelib chiqadigan katta hajmdagi bilimlarga ega bo‘lgan holda, o‘qitish oldida ushbu bilimlarni sintetik idrok etishni ta'minlashga imkon beradigan samarali qarshi choralarni ko‘rish vazifasi turibdi: a) o‘quv jarayonida ham amaliy muammolarni, ham ilmiy-nazariy muammolarni hal qilish; b) o‘quv jarayonida kibernetik mashinalarning keng qo‘llanilishi; v) bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikmalarini singdirishni ta'minlovchi usullardan o‘qitishning barcha bosqichlarida faol foydalanish va boshqalar.[136]

I.P. Yakovlev, o‘z navbatida, muammoli ta’limdan foydalanish ma'ruza va amaliy mashg‘ulotlarning tuzilishida ham, ular o‘rtasidagi munosabatlarda ham sezilarli o‘zgarishlarga va yangi shakllarning tug‘ilishiga olib keladi, deb hisoblaydi. Ishbilarmonlik o‘yinlari ishlab chiqarishga taqlid qiladi vaziyatlar va sinflarni ifodalaydi, ular o‘qituvchi va talabalardan , bir tomondan, bilimlarning turli sohalarini sintez qilishni talab qilsa, boshqa tomondan, ular mutaxassislarning kollektiv faoliyatining ko‘p funktsionalligini modellashtiradi. I.P. Yakovlevning so‘zlariga ko‘ra., xalq ta’limining rivojlanishi imkoniyat yaratadi.“Nazariy muammo – amaliyotga tatbiq etish” siklini o‘zlashtirishning yagona tizimiga o‘quv mashg‘ulotlarining barcha shakllarini birlashtirish. I.P. Yakovlevning fikrini davom ettirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini

[135] Щенникова С. В. Интегративный подход в подготовке будущего педагога к творческой деятельности. Дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Киров 2003б, стр. 183
[136] Щенникова С. В. Интегративный подход в подготовке будущего педагога к творческой деятельности. Дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Киров 2003б, стр. 183

universitetda o‘qish jarayonida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy mahoratining asosi sifatida birlashtirish zarurligi haqida. Shuni ta'kidlash kerakki, integratsiya g‘oyalarini o‘z ichiga olgan ishbilarmonlik o‘yinlari o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi va muayyan pedagogik vaziyatni hal qilishda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Biroq ishbilarmonlik o‘yinlarining sezilarli ijobiy salohiyatiga qaramay, o‘yin davomida hal qilingan vaziyatlarni unutmaslik kerak. Bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlashni etarli darajada ta'minlashga qodir bo‘lmagan sun'iy muhit tomonidan yaratilgan . - Ushbu vaziyatni hisobga olgan holda, universitetning o‘quv jarayonida aniq hayotiy vaziyatlarda haqiqiy odamlar bilan ishlashga imkon beradigan pedagogik amaliyotdan faol foydalanish bugungi kunda dolzarb bo‘lib qolmoqda. "Amaliy sintez" muammolari - turli xil texnikalar, usullar, ta’lim va tarbiya usullarini birlashtirish va qo‘llash bo‘yicha keng qamrovli adabiyotlar mavjud (V.I. Zagvyazinskiy). Bu birinchi navbatda tarkibga tegishli ijobiy integratsiya - integratsiyalashgan kurslarni yaratish, fanlarni ("ta’lim"), ularning tarkibiy qismlari - bilim, ko‘nikma va boshqalarni integratsiyalash.[137]

Turli xil tadqiqotlarda tashkiliy integratsiya masalalariga muhim o‘rin berilib, o‘qitish shakllari, dars tizimi va boshqaruv integratsiyasi kabi tadqiqot obyektidan foydalanadilar[138] .

Pedagogik tadqiqotlarda amaliy integratsiyaning psixologik jihatlari [139], kompyuter integratsiyasi muammolari[140], gumanitar fanlar integratsiyasi masalalarini tahlil etilgan[141].

---

[137] [137] Щенникова С. В. Интегративный подход в подготовке будущего педагога к творческой деятельности. Дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Киров 2003б, стр. 183

[138] Белянкова Е.И., Шуринова И.А. Опыт формирования профессионал¬ной компетентности у будуших учителей в условиях дополнителного педагогического образования // Непрерывное образование педагогов: достижения, проблемы, перспективы. - Международные педагогичэские чтения. Минск: АПО, 2015. - С. 42-48.; Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. - М.: Педагогика, 1989. - 41 с; Зимняя И.А. Ключевые компетенсии - новая парадигма резултата образования // Высшее образование сегодня. - 2003. - № 5. - С. 34.; Зимняя И. А. Ключевые компетентности как резултативно-селевая основа компетентностного подхода в образовании. - М.: Исслед. сентр пробл. качества подгот. специалистов: 2004. - С. 25.

[139]Гайничева И.А. Развитие коммуникативной компетентности студента в процессе педагогической практики в вузе // Высшее образование сегодня. - 2014. - №12. - С. 19-22.; Доманский В.А. Литература и култура: культурологичэский подход к изучению словесности в школе: учебное пособие - М.: 2002.- С. 34.; Ремизова В.Ф. Формирование коммуникативной компетентности студентов в образователном процессе: Дисс. . канд. пед.

Fan, texnika va madaniyatning turli sohalarining o‘zaro chuqur kirib borishini tavsiflovchi integratsiya darajasini aks ettiradi . Integratsiyaning mumkin bo‘lgan chegaralarini hisobga olgan holda, shuni ta'kidlash mumkinki, ushbu dasturlarda birlashtirishga harakat qilinadi: bir-biriga bog‘langan (bir-biriga yaqin) fanlar: fizik kimyoda kimyo va fizika; til tarixida til va tarix va boshqalar; turli tabiiy fanlar; - fundamental va ijtimoiy fanlar; tabiiy fanlar va falsafa; san'at , til va adabiyot; tabiiy va ijtimoiy fanlar; chet tillari va madaniy muhitlar, ya’ni integratsiya uchun amalda hech qanday cheklovlar yo‘q. Pedagogikada integratsiyaning katta imkoniyatlarini - alohida fanlarni boshqa fanlar bilan - matematikani tabiiy fanlar bilan, geografiyani gumanitar va tabiiy fanlar bilan birlashtirishga oid ishlar ham ko‘rsatadi.[142]

S.V.Ignatenkoning fikricha, ilm-fan taraqqiyotida doimo integratsiya differensiatsiyaga qarama-qarshi jarayonlarni aks ettiruvchi kategoriya sifatida mavjud bo‘lgan. Ilm-fan rivojlanib, taraqqiy etar ekan, turli bilim sohalarining o‘zaro ta’siri va o‘zaro kirib borishi bo‘yicha integratsion tendensiyalar tobora yaqqolroq namoyon bo‘la boshlaydi. O‘quv jarayonidagi integratsion hodisalar ham doimiy ravishda o‘z-o‘zidan yoki boshqariladigan shaklda kuzatiladi.[143]

Integrativ yondashuv pedagogik bilimlarning nisbatan yangi sohasidir. Bir nechta fanlar (o‘rganish nazariyasi, psixologiya, aksiologiya, madaniyatshunoslik, o‘zini o‘zi tashkil etish nazariyasi va boshqalar) kesishmasida paydo bo‘lgan bu soha ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlarini: maqsadlari, mazmuni, usullari va o‘qitish shakllarini tushunishning yangi darajasini boshlab berdi. U tadqiqotlarni "ixchamlashtirilgan bilim" traektoriyalarini izlashga yo‘naltirdi - bu ma'lum bir ilmiy

---

наук. - Оренбург, 2006. - С. 218

140 Куранов М. Научно-педагогичэские основы националного воспитания в обшеобразовательных средних школах Узбекистана: Автореф. дисс.... докт.пед.наук. -Ташкент, 1998. - С. 40.; Рахимова Й.Е. Формирование профессиональной компетентности учашихся медицинского колледжа: Дисс. ... канд. пед. наук. - Ташкент, 2012. - С. 195.

141 Saliyeva Z.T. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining ma’naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: Ped. fan. dokt. avtoref.- T., 2017. - 63 b.; Abdullayeva SH.A., Axatova D.A., Sobirov B.B. Pedagogika. Ekspress- ma’lumotnoma. - T.: Fan, 2004. - 79 s.

142 142 Щенникова С. В. Интегративный подход в подготовке будущего педагога к творческой деятельности. Дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Киров 2003б, стр. 183

143 Игнатенко С. В. Интегрированный контроль в информационных технологиях обучения общественным наукам. Дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических . Саратов – 2000, стрб 286

sohaga xos bo‘lmagan, ammo voqelikning yaxlit aks ettirish semantik yukini ko‘taradigan bilimdir.[144]

L.V.Pivovarovaning fikricha, integrativ o‘rganish, eng avvalo, dialektik tafakkurni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi, turli darajadagi va turli xil qiyinchilikdagi "fanlar tutashgan joyida" cheksiz ko‘p muammoli vaziyatlarning manbai bo‘lib, talabaga o‘rganilayotgan har qanday jarayonni uning dinamikasi va rivojlanishida ko‘rishga yordam beradi. Integrativ bilim va integrativ texnologiyalar muqobil tafakkurni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi, faktlar va voqealarni rasmiy, bir tomonlama baholamasdan ma'lum bir hodisa yoki hodisaga meta-subyekt yondashuvini tavsiflovchi fikrlash sifati hisoblanadi.[145]

Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, integratsiya nazariyasining eng umumlashtirilgan komponentlari ta'lim jarayonini shaxsiy va natijada talabalarning semantik tuzilmalariga yo‘naltiradi.[146] I.V. Abakumova, A.Ya. Danilyuk, P.N. Ermakov, K.Yu. Kolesina, V.N. Maksimova, E.A. Makarova, V.T. Fomenkolar qadriyat va ma'noga asoslangan ta'limdagi integrativ jarayonlarni o‘rganganlar.[147]

Ular zamonaviy fanga asoslangan ta'limning ko‘plab muammolarini hal qilishga qodir eng istiqbolli innovatsion yo‘nalishlardan birini belgilaydilar.

---

[144] Пивоварова Л. В. Теория и технологии формирования биологической грамотности на интегративной основе. Дисс. на соискание ученой степени доктора педагогических наук. Москва 2009, стр 356

[145] Пивоварова Л. В. Теория и технологии формирования биологической грамотности на интегративной основе. Дисс. на соискание ученой степени доктора педагогических наук. Москва 2009, стр 356

[146] Абакумова И.В. Обучение и смысл: смыслообразование в учебном процессе (Психолого-дидактический подход). Ростов-н/Д: Изд-во «РГУ», 2003. 480 с.; Асмолов А.Г. По ту сторону сознания: методологические проблемы неклассической психологии. М.: Изд-во «Смысл», 2002. 480с.; Асмолов А.Г. Практическая психология как фактор конструирования образовательного пространства личности / Психология с человеческим лицом: гуманистическая перспектива в постсоветской психологии / Под ред. Д.А. Леонтьева, В.Г. Щур. М.: Изд-во «Смысл», 1997. С.239-249.; Борытко Н.М. Пространство воспитания: образ бытия / Под ред. Н.М. Сергеева. Волгоград: Изд-во «Перемена», 2000. 225с.

[147] Абакумова И.В. Обучение и смысл: смыслообразование в учебном процессе (Психолого-дидактический подход). Ростов-н/Д: Изд-во «РГУ», 2003. 480 с.; Абакумова И.В., Колесина К.Ю. Диагностика отношения учителей к различным характеристикам интегрированного обучения иностранному языку на художественно-эстетической основе // Психологический вестник. 2000. Вып. 5. Ч. 1-2. С.206-209.; Абакумова И.В. Базовые понятия классической дидактики в контексте теории смысла // Вестник ОГУ. 2002. №8. С. 14-18.; Абакумова И.В., Фоменко В.Т. Дидактические модели образовательного процесса//Психологический вестник. 2000. Вып. 5. Ч. 1-2. С.200-203.; Данилюк А.Я. Теория интеграции образования. Ростов н/Д: Изд-во «РГПУ», 2000. 182с.; Макарова Е.А. Схема и фон: интроекция в неоднородном семиотическом пространстве. Автореф. дисс. ...д-ра психол. наук. Ростов н/Д.: Изд-во «РГУ», 2007. 37с.; Максимова В.Н., Груздева Н.В. Межпредметные связи в обучении биологии. М.: Изд-во «Просвещение», 1987. 191с.; Федорец Г.Ф. Об интегрирующих функциях ведущих идей учебных дисциплин / Межпредметные связи в учебно—познавательной деятельности учащихся. Сборник научных трудов. Тула: Изд-во «ТГПИ», 1983. С.158-161.

Integratsiya "ta'limga xos bo‘lgan ma'naviy faoliyat usulini belgilaydigan pedagogikaning fundamental kategoriyasi" deb ataladi; integratsiya ta'limning ajralmas madaniy hodisa sifatidagi ilmiy va nazariy konsepsiyasini ifodalaydi".[148]

Zamonaviy integrativ pedagogik g‘oyalardan biri hamkorlikda o‘rganish tamoyili hisoblanib, unda "hamkorlik missiyasi"siga, o‘quv jarayonida o‘zaro yordam va tushunishga alohida e'tibor qaratilgan, bu esa ushbu konsepsiyaning aniq yo‘nalishini ko‘rsatadi. Mahalliy pedagogika jamoaviy bilim faoliyatini tashkil etish sohasida ham kuchli an'analarga ega.[149]

M.N.Zoteevaning fikricha, O‘quvchilar, o‘qituvchilar, maktab ma'muriyati va ota-onalarning ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda, kompetensiyaviy o‘rganishni amalga oshirishda, sinfda ijodiy muhit yaratish maqsadida integrativ shakllardan foydalanishda birgalikda ishtirok etishi "eng mashhur zamonaviy pedagogik g'oyalardan biridir".[150] Talabalarning bilimlarni integratsiyalash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar katta qiziqish uyg'otadi. Bundan tashqari, integrativ qobiliyatlar muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur shart hisoblanadi. Ilmiy-texnik inqilob davrida inson faoliyati[151] o‘rganilgan asarlarda tadqiqotlarda bilimlarni integratsiyalash, sintez qilish va tahlil qilish qobiliyatini talabalarning ta'lim mazmunini o‘zlashtirish jarayonidagi eng muhimlaridan biri deb hisoblanadi. Bir qator kasblarni o‘zlashtirayotgan odamlar yangi bilimlarni integratsiya qilishlari, ilgari olingan bilimlar va yangi bilimlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatishlari va o‘zlarining kasbiy faoliyatida integratsiyalashgan bilimlardan foydalanishlari shartlari o‘rganiladi. Pedagogik integratsiyaning individual jihatlari ko‘plab mamlakatlar olimlari uchun qiziqish uyg'otadi. Shunday qilib, nemis tadqiqotchisi L. Klingberg

---

148 Хрестоматия по возрастной и педагогической психологии. Работы советских психологов периода 1946 — 1980 гг. / Под ред. И.И. Ильясова, В.Я. Ляу- дис. М.: Изд-во «Моск, ун-та», 1981. 304 с.

149 Pedagogik nazariya va amaliyotda integratsiya jarayonlari: texnologik jihat: Butunittifoq maktab-seminarining V sessiyasidagi ma'ruza tezislari, pos. Tavatuy. / Ilmiy ed. N.K. Chapaev. - Sverdlovsk: Sverdlovsk muhandislik-pedagogika instituti nashriyoti, 1990. - 58 p.
Жуков Й.М., Петровская Л.А., Соловёва О.В. Введение в практическую и социалную психологию. - М.: Смысл, 1996. - С. 373.

150 Щенникова С. В. Интегративный подход в подготовке будущего педагога к творческой деятельности. Дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Киров 2003б, стр. 183

151 Raths J. Enchancing understanding through debriefing // Educational -leadership. 1987. Vol.45, w.2. P. 24-27.

didaktika va texnologiyani integratsiyalash muammolariga to‘xtalib o‘tadi, uning vatandoshi K.G. Tomashevskiy esa ta'lim va tarbiya birligining organik yaxlit tabiatini ochib beradi. [152] Ilmiy va pedagogik integratsiya masalalari fransuz tadqiqotchisi F. Bestning maqolasida tahlil qilinadi.[153] Ta'lim integratsiyasining global jihati venger olimlarining ishlarida ochib berilgan. Venger tadqiqotchisi L. Kemmen o‘qituvchilarni tayyorlashda integratsiya imkoniyatlari haqida yozadi.[154] Bolgariyalik tadqiqotchilar o‘qitish va tarbiya jarayonida integratsiya muammolari, yugoslaviyalik tadqiqotchilar esa kasb-hunar ta'limini integratsiyalash va kasbiy pedagogikaning integrativ funksiyalarini aniqlash masalalariga murojaat qilishadi.[155]

A.P. Belyaevaning fikricha, integratsiya ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish sur'atini tezlashtiradi, ijodiy shaxsni shakllantirish uchun sharoit yaratadi va kelajakdagi ishchilardan xilma-xil bilimlarni talab qiladi. Integratsiya "kasbiy tayyorgarlikning yakuniy natijasini optimallashtirish dastagi bo‘lib, samaradorlikni oshirish va bo‘lajak o‘qituvchilarning ta'lim muassasalarida kasbiy mahorat asoslarini o‘zlashtirishi uchun zarur bo‘lgan vaqtni qisqartirish sharti va vositasi bo‘lib xizmat qiladi".[156]

I.D. Zverev va V.N. Maksimovaning fikricha, fanlararo aloqalar mantiqan to‘liq bo‘lganda, turli fanlarning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi ongli munosabatni ifodalaydi, bu universal shaklda ifodalanadi.[157] Y.K. Babanskiy, Ya.A. Komenskiy, D. Lokk, K.D. Ushinskiy[158] va boshqalar tabiatning yaxlit manzarasini aks ettirish, haqiqiy bilim tizimini yaratish va dunyoni to‘g'ri tushunishni rivojlantirish uchun fanlar o‘rtasidagi aloqalar zarurligini ta'kidladilar.

---

[152] Клинберг Л. Проблемы теории обучения: Пер. с нем. М.: Педагогика, 1984.-255 с.
[153] Бест Ф. Метаморфозы понятия «педагогика» // Перспективы: Вопросы об-разования / ЮНЕСКО. – 1989. – №2. – С. 7-14.
[154] Кеммен Л. Возможности интеграции в подготовке педагогов (взаимодей-ствие отдельных областей подготовки) // Современная высшая школа. 1981. – №4 (136). – С. 245-258.
[155] Щенникова С. В. Интегративный подход в подготовке будущего педагога к творческой деятельности. Дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Киров 2003б, стр. 183
[156] Беляева А.П. Дидактические принципы профессиональной подготовки в профтехучилищах: Методическое пособие. М.: Высшая школа, 1991. 208 с.; Бабкин Н.И. Интегрированный урок // Среднеспециальное образование. 1991. - № 8. С. 7-8.
[157] Зверев И.Д., Максимов В.П. Межпредметные связи в современной школе-ле. - М.: Педагогика, 1981. – 160 с.
[158] Бабанский Ю.К. Педагогическая наука и творчество учителя. // Сов. педагогика. – 1987. – № 11. – С. 3-8.

I.G. Pestalotsi o‘z tadqiqotida ta’lim subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarning xilma-xilligini ochib berdi. K.D. Ushinskiyning fikriga ko‘ra, bola ongidagi fanlararo aloqalar umumiy bog'lanishlar bilan bog'langan birlashmalar zanjiridir. Ushinskiyning fanlararo aloqalarning assotsiativ psixologik tabiati haqidagi g'oyalari fanlararo aloqalar muammosining zamonaviy psixologik asoslarini ishlab chiqish uchun asoslardan biri bo‘lib xizmat qildi. [159]

Uslubiy nuqtayi nazardan, integrativ yondashuv turli o‘quv fanlarida o‘rganiladigan jarayonlar, obyektlar, hodisalarning xilma-xilligini o‘zaro bog‘lashni ta'minlaydi, bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish va qobiliyatlarni rivojlantirish samaradorligini belgilaydi. Mutaxassisni, xususan, o‘qituvchini tayyorlash jarayonida ushbu yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki asosiy tushunchalarni o‘zlashtirish faqat falsafa, psixologiya va pedagogika bo‘yicha talabalar bilimlarini integratsiyalashuvi asosida mumkin bo‘ladi.[160]

Bugungi kunda ta’lim mazmunini integratsiyalash g‘oyasi ilmiy dunyoda tobora ko‘proq tarafdorlarni topmoqda. Oliy ta’lim mazmuniga integratsiya jarayonlarining kirib borishi fanlararo aloqalarning yuqori darajada amalga oshirilishining tabiiy natijasidir.

Yuqoridagi materialni tahlil qilish bizga quyidagi xulosalar chiqarish imkonini berdi: Ijodiy faoliyat integral xarakterga ega bo‘lib, turli fanlar bilan umumiy til topishga imkon beradi, chunki o‘qituvchining ijodiy faoliyati kasbiy faoliyatda turli xil o‘quv kurslarini o‘rganish jarayonida olingan asosiy nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalardan murakkab va xilma-xil foydalanishni nazarda tutadi. Integrativ yondashuv pedagogik hodisalarni jarayon va natijaviy tomonlarning birligi - kuzatiladigan yaxlit shakllanishlar sifatida ko‘rib chiqadi. Ilmiy, shu jumladan ilmiy-pedagogik adabiyotlarda integratsiya muammolarini o‘rganish bo‘yicha ancha boy tajriba to‘plangan bo‘lib, bu integratsiya jarayonlarini ta’lim nazariyasi

[159] Щенникова С. В. Интегративный подход в подготовке будущего педагога к творческой деятельности. Дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Киров 2003б, стр. 183
[160] Щенникова С. В. Интегративный подход в подготовке будущего педагога к творческой деятельности. Дисс. на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Киров 2003б, стр. 183

rivojlanishining yetakchi modeliga aylantirish sharoitida ularni tahlil qilish uchun keng manba bazasi mavjudligidan dalolat beradi. Jamiyat va davlat oliy ta’limni tubdan yangi vazifa – oliy o‘quv yurtida bo‘lajak o‘qituvchilarni malakali va kasbiy malakaga ega bo‘lgan mutaxassisni shakllantirish maqsadida ta’lim berishning integratsion modelini yaratishni qo‘ymoqda. Amaliy va ilmiy faoliyatda doimiy ravishda yuzaga keladigan o‘zgarishlarga tezda javob beradigan, har bir alohida intizomning "apparati" ni boshqalar bilan integral aloqada, kognitiv va kasbiy faoliyatdagi muammolarni hal qilish vositasi hisoblanadi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi bugungi kunda xalqaro pedagogik tadqiqotlarning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Xususan, o‘qituvchi tayyorlash tizimida predmet bilimlari, pedagogik tayyorgarlik, amaliyot, tadqiqotchilik va refleksiv faoliyatning o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlash masalasi ko‘plab mamlakatlar ta’lim tizimi paradgimasida markaziy o‘rin egallamoqda. OECD tahlillariga ko‘ra, dastlabki o‘qituvchi tayyorlash dasturlarida mazmuniy tayyorgarlik bilan pedagogik va amaliy tayyorgarlik o‘rtasidagi bog‘lanish qanchalik mustahkam bo‘lsa, o‘qituvchining kasbiy shakllanishi ham shunchalik samarali kechadi. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimlarida integrativ yondashuv alohida model sifatida emas, balki o‘qituvchi tayyorlashning umumiy metodologik tamoyili sifatida qaralmoqda. Tarix o‘qituvchisini tayyorlashda bu masala yanada murakkab tus oladi. Sababi, tarix fani faqat voqea va sanalarni o‘zlashtirishga emas, balki manbalarni tahlil qilish, dalillarni qiyoslash, talqinlar o‘rtasidagi farqni anglash, tarixiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois tarix o‘qituvchisi tayyorlashda integrativ yondashuv predmet mazmuni bilan cheklanib qolmay, tarix epistemologiyasi, tarix didaktikasi, fuqarolik tarbiyasi, raqamli savodxonlik va ko‘p nuqtayi nazarlilikni ham bir tizimga birlashtirishni talab etadi. So‘nggi ilmiy ishlarda prospective history teachers uchun epistemik qarashlar, source criticism, multiperspectivity va reflective practice alohida muhim komponentlar sifatida ko‘rsatib berilgan. [161]

[161] https://library.oapen.org/bitstream/handle/

Tadqiqotlarimizda xorij tajribasi tahlili integrativ yondashuvning uch asosiy mezoni asosida yoritiladi: birinchidan, tarix o‘qituvchisini tayyorlashda predmet va pedagogik tayyorgarlik integratsiyasi; ikkinchidan, tarixiy tafakkur, manba bilan ishlash va ko‘p perspektivali yondashuvni shakllantirish; uchinchidan esa, amaliyot, mentorlik, tadqiqotchilik va raqamli kompetensiyalarni yagona kasbiy rivojlanish tizimiga aylantirish. Bu mezonlar AQSh, Finlyandiya, Angliya, Germaniya, Singapur va Yevropa miqyosidagi tarix ta’limi yondashuvlari misolida tahlil qilinadi. [162]

AQSh ta’lim tizimida integrativ yondashuv va tarix o‘qituvchisi kompetentligini rivojlantirish tahlili

AQSh tajribasida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlash ko‘proq inquiry-based va disciplinary literacy tamoyillariga tayangan holda tashkil etiladi. National Council for the Social Studies tomonidan ishlab chiqilgan C3 Framework ijtimoiy fanlar, jumladan tarix ta’limini savol qo‘yish, dalil izlash, fan doirasidagi tushuncha va vositalarni qo‘llash, manbalarni baholash, xulosalarni asoslash va fuqarolik harakatiga yo‘naltirish kabi bosqichlardan iborat integrallashgan model sifatida belgilaydi. Bu hujjatda tarix o‘qitish tayyor faktlarni uzatish emas, balki tarixiy bilish jarayonini o‘rgatish, dalil bilan ishlash va mantiqan asoslangan xulosa chiqarish sifatida talqin qilingan. [163] AQShdagi o‘qituvchi tayyorlash standartlarida ham integrativ yondashuv yaqqol ko‘rinadi. NCSS’ning bo‘lajak ijtimoiy fanlar o‘qituvchilarini tayyorlash standartlari besh tayanch prinsip atrofida qurilgan bo‘lib, ular mazmuniy bilim, mazmunni rejalashtirish orqali qo‘llash, ta’lim va baholashni loyihalash hamda amalga oshirish, o‘quvchi va o‘rganish jarayonini tushunish, professional mas’uliyat va informed action kabi komponentlarni yagona tizimda ko‘radi. Demak, AQSh modelida tarix o‘qituvchisi kompetentligining o‘zi predmetni bilish, didaktik loyihalash, baholash, fuqarolik ongini shakllantirish va professional mas’uliyatning integratsiyasi sifatida tushuniladi. [164] Mazkur modelning amaliy ifodalaridan biri Stanford Digital Inquiry Group tomonidan ishlab chiqilgan Reading

[162] https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/
[163] https://www.socialstudies.org/sites/default/files/c3/C3-Framework
[164] https://www.socialstudies.org/

Like a Historian dasturidir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning “close reading”, “evaluate sources”, “corroborate accounts” va “back up claims with evidence” kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishni ko‘zlaydi. Uning bo‘lajak tarix o‘qituvchilari uchun ahamiyati shundaki, u tarix darsini reproduktiv emas, balki hujjat bilan ishlashga asoslangan tadqiqot maydoniga aylantiradi. Shunday qilib, AQSh tajribasi tarix o‘qituvchisini tayyorlashda predmet, metodika, fuqarolik ta’limi va dalillash madaniyatining integratsiyasini namoyon etadi. [165] AHA doirasida olib borilgan Tuning Project ham tarix ta’limida integrativ kompetensiyalarni aniqlashga xizmat qildi. Mazkur loyiha history discipline core sifatida tarixni o‘rganish jarayonida shakllanuvchi markaziy “habits of mind, skills, and understandings”ni ajratib ko‘rsatadi. Bu yondashuv tarix mutaxassisligini faqat ma’lumot hajmi bilan emas, balki tarixiy savol qo‘yish, izlanish, izohlash, dalilga tayangan holda yozish va tarixiy tafakkur madaniyati bilan belgilaydi. Bu esa bo‘lajak tarix o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini integrativ asosda shakllantirish uchun muhim nazariy zamin yaratadi. [166]

Finlyandiya ta’lim tizimida integrativ yondashuv va tarix o‘qituvchisi kompetentligini rivojlantirish tahlili

Finlyandiya ta’lim tizimi integrativ yondashuvni institutsional darajada muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘ygan davlatlardan biridir. Finnish National Agency for Education hujjatlarida transversal competences barcha fanlarning ajralmas tarkibi sifatida belgilangan bo‘lib, ular fikrlash va o‘rganishni o‘rganish, madaniy kompetensiya, ko‘p savodxonlik, AKT kompetensiyasi, mehnat hayoti ko‘nikmalari, ishtirok va barqaror kelajakni qurish kabi ko‘nikmalarni qamrab oladi. Muhimi shundaki, bu kompetensiyalar alohida kurs emas, balki barcha fanlar, shu jumladan tarixning ichki tarkibiy qismi sifatida o‘qitiladi va baholanadi.[167] Finlyandiyada integratsiyaning yana bir muhim shakli sifatida multidisciplinary learning modules joriy etilgan. Milliy o‘quv dasturiga ko‘ra, maktablarda har yili kamida bitta ko‘p

[165] https://sheg.stanford.edu/

[166] https://www.historians.org/perspectives-article/

[167] https://www.oph.fi/en/education-and-qualifications/

fanli modul tashkil etilishi kerak. Bunday modullar tarixni geografiya, adabiyot, fuqarolik, iqtisod, madaniyatshunoslik va media savodxonlik bilan bog‘lash imkonini beradi. Bu tajriba bo‘lajak tarix o‘qituvchilari uchun fanlararo rejalashtirish, murakkab ijtimoiy hodisalarni turli rakurslarda o‘qitish hamda zamonaviy kompetensiyalarni tarix mazmuniga singdirish ko‘nikmalarini shakllantiradi. [168] Finlyandiya tarix ta’limi dasturida tarix o‘qitishning vazifalari etik fikrlash, tarixiy empatiya, inson huquqlari, demokratiya, tenglik, xalqaro hamkorlik va media tanqidiy savodxonlik bilan chambarchas bog‘langan. Bu esa tarix o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini tor predmet bilimlari bilan emas, balki demokratik qadriyatlarni o‘quv jarayoniga singdira olish, turli manbalarni baholash, tarixiy talqinlarni solishtirish va talabani faol fikrlashga undash qobiliyati bilan belgilashini ko‘rsatadi. Ayniqsa, tarixiy manbalarni tahlil qilish va ijtimoiy masalalarni muhokama qilish bilan bog‘liq o‘quv maqsadlari integrativ yondashuvning mazmuniy asosini tashkil etadi. 169 Finlyandiya o‘qituvchi tayyorlash tizimining alohida ustunligi uning research-based teacher education tamoyiliga tayanganidadir. O‘qituvchilar yuqori ilmiy tayyorgarlik asosida tayyorlanadi, o‘quv dasturlari pedagogik tadqiqotlar bilan bog‘lanadi, amaliyot maktablari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi va o‘qituvchi mustaqil tadqiqotchi sifatida shakllantiriladi. Yevropa hisobotlarida Finlandiyada teacher professional learning jamoaviy hamkorlik, kross-dissiplinar ish, jamoa bo‘lib dars berish, inklyuzivlik va uzluksiz professional rivojlanish bilan tavsiflanishi qayd etiladi. Bu jihatlar tarix o‘qituvchisi tayyorlashda integrativ yondashuvning amaliy va metodologik jihatdan barqaror ekanini ko‘rsatadi.170

Angliya ta’lim tizimida integrativ yondashuv va tarix o‘qituvchisi kompetentligini rivojlantirish tahlili

Angliya tajribasi bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash va kasbning ilk bosqichlarini yagona rivojlanish zanjirida ko‘rishi bilan e’tiborlidir. 2024-yilda e’lon qilingan

[168] https://www.oph.fi/en/education-and-qualifications/
[169]https://www.oph.fi/sites/default/files/
[170]https://www.oph.fi/sites/default/files/

Initial Teacher Training and Early Career Framework (ITTECF) trainee teacher va early career teacher uchun zarur bilim hamda amaliy ko‘nikmalarni uzviy tizimda belgilaydi. Hujjatning o‘zida bu framework training va induction davrlarini birlashtirishi, avval alohida bo‘lgan ITT Core Content Framework hamda Early Career Framework o‘rnini egallashi ta’kidlangan. Bu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlashni universitet bosqichi bilan yakunlash emas, balki ishning dastlabki yillarigacha davom etadigan integrallashgan kasbiy rivojlanish sifatida talqin etadi. [171] Angliyadagi ITT mezonlari va supporting advice hujjatlarida accredited provider, maktab hamkorligi, sifat nazorati, baholash va professional support tizimi majburiy shart sifatida ko‘rsatilgan. Bunda o‘qituvchi tayyorlashning sifati alohida kurslar bilan emas, balki universitet va maktab o‘rtasidagi hamkorlik, mentorlash tizimi, amaliyot davomida kuzatish va feedback berish orqali ta’minlanadi. Bu tajriba integrativ yondashuvning tashkiliy modelini namoyon etadi: nazariya, amaliyot, baholash va kasbga moslashuv bir-biridan ajratilmaydi. [172] Tarix o‘qituvchisini tayyorlash nuqtayi nazaridan Angliya tajribasining ahamiyati shundaki, unda professional bilim “nima bilish kerak” va “nima qila olish kerak” formatida tizimlashtirilgan. Bunday model bo‘lajak tarix o‘qituvchisidan faqat tarixiy mazmunni bilishni emas, balki uni o‘quvchilarning rivojlanish bosqichiga moslashtirish, turli metodlarni qo‘llash, samarali baholash, refleksiya yuritish va professional hamjamiyat bilan ishlashni talab qiladi. Shunday qilib, Angliya tajribasi integrativ yondashuvni kasbiy kompetensiyaning uzluksiz shakllanish modeli sifatida taqdim etadi. [173]

Germaniya ta’lim tizimida integrativ yondashuv va tarix o‘qituvchisi kompetentligini rivojlantirish tahlili

Germaniya tarix ta’limi maktabi tarix didaktikasining nazariy chuqurligi bilan ajralib turadi. So‘nggi ilmiy ishlarda nemis history didactics yo‘nalishi “historical consciousness”, “historical culture” va “historical competencies” tushunchalari

[171]https://assets.publishing.service.gov.uk/media
[172]https://assets.publishing.service.gov.uk/media/
[173]https://assets.publishing.service.gov.uk/media/

asosida rivojlangani ko‘rsatiladi. Andreas Körber va boshqa tadqiqotchilar tarix ta’limida tarixiy ongni shakllantirish, tarixiy kompetensiyalarni rivojlantirish va tarixni shaxsiy hamda ijtimoiy identitet bilan bog‘lash masalalarini asoslab berganlar. Bu yondashuv bo‘lajak tarix o‘qituvchilari uchun tarixni faktlar majmuasi sifatida emas, balki vaqt, xotira, identitet va ijtimoiy ongni tushuntiruvchi tizim sifatida o‘rgatishni nazarda tutadi.[174] Germaniyada teacher educationning o‘zi ham nazariya va amaliyotning ketma-ket emas, balki o‘zaro bog‘langan tuzilishiga ega. “Teacher Education in Germany” bo‘yicha ilmiy tahlilda tizimning tarixiy rivoji, akademik chaqiriqlari va professional tayyorgarlikning ko‘p bosqichli shakli yoritiladi; bunda university-based preparation bilan keyingi amaliy stajirovka bosqichining o‘zaro bog‘liqligi alohida ko‘rsatilgan. Shuningdek, tarix o‘qituvchilarini tayyorlashda tarixiy ong, tarixiy madaniyat va public history bilan bog‘liq yondashuvlar nemis universitetlarida muhim o‘rin tutishi qayd etiladi.[175] Germaniya tajribasining bo‘lajak tarix o‘qituvchisi kompetentligini rivojlantirishdagi eng muhim xulosasi shundaki, tarix didaktikasi bu yerda metodik ilova emas, balki tarixiy bilishning o‘ziga xos tabiatini tushuntiruvchi mustaqil ilmiy maydon sifatida qaraladi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchi predmet mazmunini bilish bilan birga, uni qanday tarixiy ong va qanday tarixiy madaniyatga xizmat qilishini ham tushunishi kerak bo‘ladi. Bu esa integrativ yondashuvning mazmuniy, epistemologik va qadriyatga oid qatlamlari bir-biriga ulanib ketishini ko‘rsatadi. [176]

Singapur ta’lim tizimida integrativ yondashuv va tarix o‘qituvchisi kompetentligini rivojlantirish tahlili

Singapur tajribasi bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning tizimli va strategik modeli bilan ajralib turadi. National Institute of Education ishlab chiqqan Teacher Education for the 21st Century (TE21) modeli o‘qituvchini 21-asrga mos professional sifatida tayyorlashni maqsad qiladi. Mazkur modelda qadriyatlar, ko‘nikmalar va bilimlar o‘zaro integrallashgan holda beriladi. Hujjatlarda NIEning teacher education

[174] https://www.pedocs.de/volltexte/

[175]https://bibliographie.uni-tuebingen.de/xmlui/

[176] https://opus.bibliothek.uni-augsburg.

programmes structure and substance jihatidan kuchli asosga ega ekani, TE21 esa student teachersni 21-asr teaching professionals sifatida tayyorlashga qaratilgani alohida ko‘rsatiladi.[177] Singapurdagi mazkur yondashuvning mohiyati shundaki, o‘qituvchini tayyorlashda faqat akademik tayyorgarlik emas, balki values, skills and knowledge triadasi ustuvor hisoblanadi. 2023-yilgi ilmiy sharhlarda ham Singapurda TE21 modeli autonomous thinkers, reflective practitioners va competent professionals tayyorlashga xizmat qilishi qayd etiladi. Bu model tarix o‘qituvchisi uchun ham juda muhim, chunki tarix fani o‘quvchini tanqidiy fikrlash, jamiyatni tushunish, axloqiy mushohada va fuqarolik mas’uliyati bilan bog‘laydi. Demak, Singapur tajribasida integrativ yondashuv tarix o‘qituvchisining predmet, pedagogik, axloqiy va refleksiv kompetensiyalarini birgalikda shakllantirishga qaratilgan.[178] Bundan tashqari, Singapurdagi teacher development bo‘yicha tadqiqotlarda professional rivojlanishning qisqa muddatli emas, ko‘p yillik qo‘llab-quvvatlashga tayanuvchi tizim bo‘lishi zarurligi urg‘ulanadi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlashdan keyingi professional o‘sish bosqichlarini ham dastlabki tayyorgarlik bilan bir butun tizimda ko‘rish kerakligini anglatadi. Mazkur tamoyil integrativ yondashuvning vaqt bo‘yicha uzluksizlik xususiyatini ifodalaydi.[179]

Yevropa ta’lim tizimida integrativ yondashuv va tarix o‘qituvchisi kompetentligini rivojlantirish tahlili

Yevropa Kengashi tarix ta’limi bo‘yicha qabul qilgan yondashuvlarda multiperspectivity alohida o‘rin egallaydi. Robert Stradlingning tarix o‘qituvchilari uchun qo‘llanmasida ko‘p nuqtayi nazarlilik tarix ta’limining metodik tamoyili sifatida emas, balki tarixiy tafakkurni shakllantirishning muhim sharti sifatida asoslanadi. Mazkur qo‘llanmada o‘quvchilarda tarixiy voqealarni turli subyektlar, turli davrlar va turli talqinlar nuqtayi nazaridan ko‘ra olish, manbalarni tahlil qilish, izohlash va sintez qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligi ko‘rsatib berilgan.[180] Yevropa Kengashining 2001-yildagi history teaching in twenty-first-century Europe

[177] https://singteach.nie.edu.sg/wp-content/uploads/ e
[178] https://repository.nie.edu.sg/bitstreams/
[179] https://repository.nie.edu.sg/server/api
[180] https://rm.coe.int/

bo‘yicha tavsiyasi ham tarix ta’limining demokratik jamiyat uchun ahamiyatini, pluralizm va o‘zaro hurmatni shakllantirishdagi rolini ta’kidlaydi. 2024-yilda qabul qilingan multiperspectivity in remembrance and history education for democratic citizenship hisobotida esa tarix o‘qitishda sezgir va ziddiyatli mavzularni o‘qitish, ko‘p nuqtayi nazarlarni inobatga olish hamda tarixiy manbalarni tahlil qilish yoshlarning fakt, xotira va propagandani farqlash qobiliyatini mustahkamlashi ko‘rsatib o‘tilgan. Bu xulosalar bo‘lajak tarix o‘qituvchisini tayyorlashda demokratik fuqarolik, pluralistik tafakkur va manba tanqidining integratsiyasi zarurligini tasdiqlaydi.[181] So‘nggi xalqaro tadqiqotlar ham history teachers’ epistemology masalasiga katta e’tibor qaratmoqda. 2024-yilda chop etilgan Teachers and the Epistemology of History to‘plamida tarix o‘qituvchilari bir vaqtning o‘zida milliy tarixiy narrativlarni saqlash va o‘quvchilarga tarixni tanqidiy tahlil qilish vositalarini berish vazifasi o‘rtasida ishlashi ta’kidlanadi. Shuningdek, epistemic beliefs bo‘yicha tadqiqotlarda prospective history teachersning tarix haqidagi qarashlari o‘zgaruvchan ekani, teacher training ularga tarixiy bilimning murakkabligini anglatishi, o‘quv materiallarini birgalikda loyihalashni o‘rgatishi va refleksiya uchun sharoit yaratishi lozimligi qayd etilgan.[182]

Tahlil qilingan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, integrativ yondashuv bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda uch darajada namoyon bo‘ladi. Birinchi daraja — mazmuniy-pedagogik integratsiya bo‘lib, bunda tarixiy bilim, didaktik loyihalash, baholash va o‘quvchi rivojlanishini tushunish bir butun tizimda qaraladi. AQShdagi C3 Framework va NCSS standartlari, Angliyadagi ITTECF hamda Singapurdagi TE21 modeli aynan shu turdagi integratsiyaning amaliy namunalari hisoblanadi.

Ikkinchi daraja — epistemologik-didaktik integratsiya bo‘lib, u tarixiy tafakkur, manbashunoslik, multiperspectivity, source criticism va historical consciousness kabi tushunchalarni tarix o‘qituvchisi tayyorgarligining markaziga olib chiqadi. Germaniya history didactics maktabi, Yevropa Kengashi yondashuvlari va epistemic

[181] https://search.coe.int/

[182] https://www.diva-portal.org/

beliefs bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar aynan shu yo‘nalishni kuchli rivojlantirgan. Bu esa bo‘lajak tarix o‘qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirishda tarix epistemologiyasini alohida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Uchinchi daraja — institutsional-amaliy integratsiya bo‘lib, bunda universitet tayyorgarligi, maktab amaliyoti, mentorlik, professional hamjamiyat, tadqiqotchilik va uzluksiz kasbiy rivojlanish yagona tizimga aylantiriladi. Finlyandiya research-based teacher education modeli, Angliyaning early career framework yondashuvi va Singapurdagi uzoq muddatli professional support qarashlari buni tasdiqlaydi. Demak, tarix o‘qituvchisi tayyorlashda integrativ yondashuv alohida metod emas, balki butun ta’lim jarayonining tashkiliy-funksional tamoyiliga aylanishi lozim.

Mazkur xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi ilmiy xulosaga kelish mumkin: samarali tayyorgarlik modeli tarix o‘qituvchisini faqat predmet mutaxassisi sifatida emas, balki tarixiy tafakkurni shakllantira oladigan, manbalarni tanqidiy tahlil qiladigan, ko‘p nuqtayi nazarlarni uyg‘unlashtira oladigan, fuqarolik va demokratik qadriyatlarni o‘quv jarayoniga singdira oladigan, tadqiqotga tayangan va refleksiv professional sifatida tayyorlashi kerak. Xorij tajribasining umumiy tendensiyasi aynan mana shu integrallashgan kasbiy model tomon yo‘nalganini ko‘rsatadi. Xorij tajribasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, integrativ yondashuv bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning eng samarali ilmiy-amaliy asoslaridan biridir. AQSh tajribasi inquiry va evidence-based learningni, Finlyandiya tajribasi transversal competencies hamda research-based teacher educationni, Angliya tajribasi initial training va early career development integratsiyasini, Germaniya tajribasi tarixiy ong va tarix didaktikasining nazariy chuqurligini, Singapur esa values-skills-knowledge modelini ustuvor qo‘yadi. Yevropa Kengashi va zamonaviy epistemologik tadqiqotlar esa tarix ta’limida multiperspectivity, source criticism va reflective practice zarurligini qat’iy asoslaydi. Shundan kelib chiqib, milliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlar muhim deb

hisoblanadi: tarixiy tafakkur va manba bilan ishlashni tayanch kompetensiyaga aylantirish; fanlararo modullarni keng joriy etish; amaliyot, mentorlik va refleksiyani kuchaytirish; raqamli hamda fuqarolik kompetensiyalarini tarix ta'limi bilan uyg'unlashtirish; hamda teacher educationni tadqiqotga tayangan model asosida tashkil etish. Bu yo'nalishlar xorij tajribasining mexanik ko'chirilishi emas, balki uning ilmiy jihatdan saralangan va milliy sharoitga moslashtirilgan qo'llanishini taqozo etadi.

2.2. Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentliligini shakllantirishning integratsion texnologiyalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida bugungi o'quvchi-yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi dasturlarni amalga oshirish zarurligi, jumladan innovatsion va texnologik g'oyalarni har tomonlama rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarini yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish yuzasidan tizimli ishlarni tashkil etish[183] kabi vazifalar belgilab berilgan edi. Bo'lajak tarix o'qituvchisi zamonaviy ta'lim paradigmalarida tarix fanini zamonaviy yondashuvlar, zamonaviy pedagogik hamda innovatsion texnologiyalar yordamida o'zini-o'zi rivojlantiruvchilardir. Zamonaviy o'qituvchi faoliyati bilimlarni uzatuvchi oddiy metodist sifatida emas, balki "o'qituvchi- texnolog" nuqtayi nazardan baholanishi kerak. Texnologiya – bu shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida jo qiladigan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir. "Texnologiya" tushunchasi regulyativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, erkin ijod qilishga undaydi [184].Bugungi kun zamonaviy bo'lajak

[183] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 5 -iyundagi qarori. https://lex.uz/uz/docs/3765586

184 Sagdiyev A.Fuzailova G.Hasanova M."Tarix o'qitish metodikasi"o'quv qo'llanma 2011-Toshkent. 103-b

tarix o‘qituvchisiga qo‘yilayotgan talablar fanni chuqur tahliliy o‘ganishiga qaratilgan bo‘lib, ko‘proq o‘tmish voqeligini innovatsion texnologiyalar yordamida, bugungi kun bilan bog‘liqlikda o‘rganishni talab etadi. Zamonaviy tarix o‘qituvchisi fanni quyidagi jihatlar asosida o‘rganishi hamda faoliyat ko‘rsatishi muhim hisoblanadi:interdisipliner yondashuv (tarix fanini boshqa fanlar bilan aloqadorlikda o‘rganish. Misol uchun iqtisodiyot, falsafa, adabiyot, sotsiologiya); zamonaviy yondashuv (raqamli tarix vositalaridan keng foydalanadi. Misol uchun tarixiy kontent va podkastlardan);har tomonlama ochiq ilmiy tadqiqot (ilmiy tadqiqot ishlarini faqat o‘quv-qo‘llanma, darsliklarda emas, turli xil podkastlar, ommaviy axborot vositalari orqali yetkazish); “Tarix fanini o‘qitishda ham boshqa fanlar qatori ma’lum bir yutuqlarga erishish, o‘quvchilar faolligini oshirish va albatta, shu qatori o‘qituvchining ham kasbiy mahoratini rivojlantirish eng asosiy maqsad hisoblanadi”[185]. Innovatsion texnologiyalardan foydalanib, ta’lim sohasida, o‘quv faoliyatida talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Innovatsion texnologiyalar ta’limni amalga oshishi jarayonida hayot bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi. “O‘qitishni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog‘lash imkoniyati paydo bo‘ladi. Innovatsion texnologiyalari orqali talabaning bilishga oid, axborot bilan ishlash, axloqiy, ijodiy, muloqot qilish va estetik imkoniyatlarini, qobilyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilishi lozim. Innovatsion, kompyuter va axborot texnologiyalarini talabalar shaxsini rivojlantirishning to‘laqonli vositasiga aylantirish uchun o‘qituvchining o‘zi axborot texnologiyalari sohasida bilimdon (salohiyatli) bo‘lishi kerak”[186]. A.Y.Yasterbitskayaning fikricha, “XX asrning ikkinchi yarmi va ayniqsa uning so‘nggi yigirma yilligi – tarixiy o‘tmishni o‘rganishga yangi ijtimoiy-madaniy yondashuvlarga asos solingan va ijtimoiy tarix sifatida “tarix fan” tamoyillari shakillangan davrdir. Bu madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy tarixning yangi qirralarini tez sur’atlarda kengaytirish va ilmiy olamga ko‘pgina yangi empirik materiallarni kiritish

[185] Boymirzayev X.K. “Tarix fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish”,(uslubiy qo‘llanma). Namangan.: 2020.-86b.
[186] Xakberdiyeva D.A. Axborot texnologiyalarining ta’lim tizmini rivojlantirishdagi ahamiyati // Ustozlar uchun jurnali, 44-son, 2023. – B. 40

vaqtidir. Mazkur davrga shuningdek tarixni ilmiy fan sifatida metodik-metodologik qayta jihozlash, uning tadqiqotchilik instrumentariysini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘ri keladi”[187]. Bugungi kun o‘qituvchisi oldida yagona axborot makoni rivojlanib borishi uning kasbiy rivojlanishiga bo‘lgan intilishiga ham ta’siri kuchli bo‘lmoqda. Ayniqsa gumanitar fanlarni o‘qitishda kompyuter texnologiyalari va axborot bilan ishlash, fanlararo integratsiyani raqamli va integrativ vositalarga diversifikatsiyalash, ya’ni aloqalarni amalga oshirishda raqamli texnologiyalar, ineteraktiv platformalar, elektron ta’lim resurslari hamda integrativ pedagogik vositalardan kompleks foydalanish orqali ta’lim jarayonining mazmuni va texnologik imkoniyatlarini kengaytirishdan yanada keng foydalanishni talab qiladi. Bugungi kunda tarix darslarida bo‘lajak tarix o‘qituvchisidan, yuqori professionallik, tarixiy bilimlardan foydalanish samardorligini oshirish talab qilmoqda. Innovatsion ta’lim sharoitida tizimni rivojlantirishda tarix ta’limini raqamlashtirish muhim rol o‘ynamoqda. Bugungi kunda oliy ta’limda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim sanaladi. Innovatsion ta’lim sharoitida barcha fanlardan qo‘llanilgani kabi tarix fanini o‘qitish jarayonida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarni tarix faniga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirib qolmay o‘qituvchi uchun ham o‘quvchilar bilan ishlashda birmuncha qulayliklar yaratadi.

“Texnologiya” tushunchasi fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so‘zdan – “texnos” (techne) – san’at, hunar va “logos” (logos) – fan so‘zlaridan tashkil topib, “hunar fani” ma’nosini anglatadi”[188] Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchidan fanni o‘qitishda zamonaviy pedagogik bilim, ko‘nikma va malakani ham talab etadi, ya’ni o‘qituvchi qaysi texnologiya yoki metod qaysi mavzu uchun qulay va o‘rinli ekanligini bilishi uchun, avvalo, shu texnologiyalar haqida kerakli bilimga ega bo‘lishi muhim sanaladi[189]. “Pedagogik texnologiya – bu bilim berish va uni egalashda texnika va inson resurslarini o‘zaro uzviy bog‘liq holda

[187] Ястребитская А.Л. Новая историческая наука в контексте современной культурной традиции // Теоретические проблемы исторических исследований. - М.: РОССПЭН, 1998. – С. 13-49.

[188] Sagdiyev A.Fuzailova G.Hasanova M.”Tarix o‘qitish metodikasi”o‘quv qo‘llanma 2011-Toshkent. 103-b
[189] Ziyomuhammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T., 2009. – B. 150.

ko‘rib, butun ta’lim jarayonini loyihalashda va amalda qo‘llashda majmuali yondashuv usulidan foydalanishdir[190].

H.T.Omonovning fikricha, “Pedagogik texnologiya – “ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo‘llash, ularning o‘zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majumuasidir”[191].

X.K.Boymirzayev pedagogik texnologiyalarni tarix fanini o‘qitishda qo‘llash o‘quvchi-talabalarda quyidagi xususiyatlarni rivojlantirishini ta’kidlagan: avvalo, ularni tarix faniga qiziqishlarini orttiradi; ularda mustaqil va erkin fikirlash ko‘nikmalarini yanada shakillantiradi; mantiqiy va tezkor fikrlashga o‘rgatadi; o‘zlarini tahlil qilish va baholashga o‘rgatadi; bilim sohasida o‘zgalardan ortda qolmaslikka o‘rgatadi; mushohadali bo‘lishga o‘rgatadi; ularda tahliliy-tanqidiy yondashuvni rivojlantiradi; ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakillantiradi; natija va maqsadga intilishning muhim ekanligi haqida tushunchaga ega bo‘lishadi; ulardagi tortinchoqlik o‘rnini faollik degan muhim tushuncha egallaydi[192].

Sh.S.Shodmonovaning fikricha, “ta’lim mazmuniga innovatsiya an’anaviy, noananaviy va masofaviy o‘qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi; o‘qitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarning kirib kelishi misolida ko‘ramiz. Aktiv metod talabalarning dars jarayoniga faolligini oshirishga hizmat qilsa, talabalarga bir tomonlama tushuncha berishi bilan izohlanadi. Interaktiv esa birgalikda faol harakat qilish (o‘qituvchi bilan talaba, talaba bilan talaba tushuniladi) Dars shakllariga innovatsiyani kirib kelishi standart, nostandart hamda vertual dars shakillari misolida ko‘rishimiz mumkin. O‘qitish turlaridagi innovatsiyani muammoli ta’lim, everistik ta’lim, darajalangan ta’lim, integratsiyalangan ta’lim bilan izohlanadi. O‘qitish vositalariga innovatsiyani kelishini dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalar bilan

[190] Boymirzayev X.K. “Tarix fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish”,(uslubiy qo‘llanma). Namangan.: 2020.-86b.

[191] Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U.,“Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” Toshkent «Iqtisod-moliya» 2009.181-182 b.

[192] Boymirzayev X.K. “Tarix fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish”,(uslubiy qo‘llanma). Namangan.: 2020.-86b.

izohlaymiz”[193].

A.A. Vaginning fikricha, “turli xil maxsus vositalardan foydalanish talab etiladi. Tarixiy hodisalarni jonlantirish orqali tarixiy mavzu yanada ishonchli bo‘lishiga erishiladi va o‘rganilayotgan tarixiy hodisalarning o‘ziga xosligini yaxshiroq ochib berishga imkon beradi” [194].

Tarix darslarida badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish ham tarixiy haqiqqatni aniqlashtirishga, o‘tmishning yorqin tasvirlarini yaratishga yordam beradi. Bundan tashqari, tarixiy voqealarni hikoya qilishda turli xil namoyishlarni qo‘llash samarali hisoblanadi. Misol uchun, moddiy madaniyat obyektlarining tasviriy ko‘rinishlari, o‘qitishning texnik (audio-vizual) vositalari shular jumlasidandir. Bularning barchasi o‘quvchilarga tarixiy davrning muhitini tasavvur qilish, o‘zini o‘tmishda tarixiy hodisalar ichida his qilish tuyg‘usini kechirish imkonini beradi. Tarixiy empatiya shakllanishning yana bir usuli, bu shaxsiyatdir. Ta’lim oliuvchining qalbida taqdirlar, harakatlar, hayot sharoitlari, tarixiy shaxning faoliyati haqida tasavvur tarixiy holati va faoliyatining ijtimoiy hayotidagi odatiy hodisa sifatida tushunishga imkon beradi.[195]

Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning amaliyotdagi holatini o‘rganish davomida aniqladikki, bo‘lajak mutaxassisning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini individual jihatlari va shaxning integral xarakteristikasi sifatida tavsiflashda shuni ta’kidlash kerakki, maqsadlarga erishish va qo‘yilgan vazifalarni yechish uchun o‘zining individualligini atrofdagi muhit bilan muvozanatlashtirish yo‘li bilan ongli yoki tartibli amalga oshirish tizimini ifodalaydi va fanlararo integratsiyani raqamli va integrativ vositalarga diversifikatsiyalash muhim hisoblanadi.

V.A.Levinning fikricha, ta’lim makoni - uni to‘laqonli rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjud bo‘lganda, ijtimoiy-madaniy va predmetli sharoitda shaxs shakllanishining alohida, o‘ziga xos ta’siri va shart-sharoitlari tizimidir. Bunda muhit

[193] Shodmonova Sh.S.Pedagogik texnologiya.(metodik qo‘llanma). Toshkent.:2011. - 138 b.
[194] Вагин А.А. Методика преподавания истории в средней школе. М.: Просвещение, 1968. - 431 с
[195] Студеникин М.Т. Методика преподавания истории в школе. М.: Владос, 2000. - 240 с.

bir zaylda bo‘lmasligi kerak [196].

G.N.Serikovning fikricha, oliy o‘quv yurti ta’lim jarayonining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u talabalar mustaqil o‘qishini ma’lumotlar bilan ta’minlashga yordam beradi va bu atrofdagilar bilan alohida ma’lumot almashinish jarayonlarida ko‘rinadi.[197].

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish zamonaviy pedagogik ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim jarayonini tashkil etishning pedagogik integratsion texnologiyalariga bog‘liq. Integrativ yondashuv sharoitida mazkur texnologiyalar alohida komponentlar yig‘indisi sifatida emas, balki yagona tizimda, o‘zaro bog‘liq holda qaraladi. Xalqaro pedagogik tadqiqotlarda o‘qituvchi tayyorlashning samaradorligi aynan mazmun, metod, amaliyot va refleksiyaning integratsiyasiga asoslanishi ta’kidlanadi. Bizningcha, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning integratsion pedagogik texnologiyalari tarix ta’limi jarayonida fanlararo integratsiya, innovatsion pedagogik yondashuvlar, raqamli ta’lim vositalari, nazariy va amaliy faoliyat uyg‘unligi asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida kasbiy bilim, pedagogik mahorat, tarixiy tafakkur, kommunikativ, tahliliy hamda kreativ kompetensiyalarni tizimli va maqsadli rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalar majmuasidir. U tarix ta’limining mazmuni, metodlari, shakl va vositalarini kompetensiyaviy, tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan hamda integrativ yondashuvlar asosida o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, tarixiy-tahliliy tafakkuri, innovatsion faoliyati va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan yaxlit pedagogik tizimdir.

Biz tadqiqotlarimiz jarayonida integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi integratsion pedagogik texnologiyalarni tahlil qildik:

---

[196]Левин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. - М.: Смысл, 2001. - С. 365.
[197] Сериков Г.Н. Управление образованием: Системная интерпретация. - Челябинск, 1998. - С. 664.

Integrallashgan o‘quv mazmunini yaratish texnologiyasi	Nazariya va amaliyot integratsiyasini ta’minlash texnologiyasi
Tadqiqotga asoslangan ta’lim texnologiyasi	Fanlararo integratsiyani ta’minlash texnologiyasi
Epistemologik yondashuvni ta’minlash texnologiyasi	Refleksiv ta’lim muhitini tashkil etish texnologiyasi
Raqamli va innovatsion ta’lim muhitini yaratish texnologiyasi	Qadriyatga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish texnologiyasi
Hamkorlikka asoslangan ta’limni tashkil etish texnologiyasi	Uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini yaratish texnologiyasi

2.2.-jadval. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning integratsion pedagogik texnologiyalari

Integrallashgan o‘quv mazmunini yaratish texnologiyasi. Ilmiy tadqiqotlarda o‘quv mazmunining integratsiyasi, avvalo, fan mazmuni va pedagogik bilimlarning uyg‘unlashuvi sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon “pedagogik mazmuniy bilim” konsepsiyasi bilan izohlanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘qituvchi nafaqat fan mazmunini chuqur bilishi, balki uni o‘quvchilarga qanday yetkazishni ham mukammal egallashi lozim. Demak, integrallashgan o‘quv mazmuni tarixiy bilimlar, didaktik yondashuvlar va metodik vositalarning yagona tizimda birlashishini nazarda tutadi. Integrallashgan o‘quv mazmunini yaratish, avvalo, tarix fanining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Tarix fani ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimiga mansub bo‘lib, u iqtisodiyot, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik va geografiya bilan uzviy bog‘liqdir. Shu sababli tarixni o‘qitishda mazmunni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Fanlararo integratsiya orqali talabalarda tarixiy jarayonlarni kompleks tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va ijtimoiy hodisalarni keng qamrovda tushunish ko‘nikmalari shakllanadi. Shuningdek, integrallashgan o‘quv mazmunini yaratishda kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy ta’limda o‘quv mazmuni faqat bilim berishga emas, balki kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Tarix ta’limida bu, avvalo, tarixiy tafakkur, manbalar bilan ishlash, tanqidiy fikrlash va dalillash ko‘nikmalarini rivojlantirishni anglatadi. Integrallashgan o‘quv mazmunining muhim jihatlaridan biri nazariya va

amaliyotning uyg‘unligidir. Bo‘lajak tarix o‘qituvchisi tarixiy bilimlarni nazariy jihatdan o‘zlashtirish bilan birga, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmasiga ham ega bo‘lishi lozim. Shu bois o‘quv mazmuni pedagogik amaliyot, mikroo‘qitish, keys-stadi va loyiha faoliyati kabi elementlar bilan boyitilishi zarur. Bu esa o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligini real pedagogik vaziyatlar asosida shakllantirish imkonini beradi. Integrallashgan o‘quv mazmunini yaratishda epistemologik yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Tarixiy bilimning o‘ziga xosligi, ya’ni uning manbalar, talqinlar va tarixiy narrativlarga asoslanishi o‘quv mazmunida aks etishi kerak. Bo‘lajak tarix o‘qituvchisi tarixiy haqiqatning murakkabligini, turli nuqtayi nazarlarning mavjudligini va tarixiy bilimning nisbiyligini tushunishi zarur. Bu esa o‘quv mazmunini shakllantirishda tarix epistemologiyasiga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Zamonaviy sharoitda integrallashgan o‘quv mazmunini yaratishda raqamli texnologiyalar va axborot resurslaridan foydalanish ham muhim shart hisoblanadi. Elektron darsliklar, raqamli arxivlar, virtual muzeylar va multimedia vositalari o‘quv mazmunini boyitadi va uni yanada samarali o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Shu bois integrallashgan o‘quv mazmuni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg‘un holda ishlab chiqilishi zarur. Bundan tashqari, integrallashgan o‘quv mazmuni qadriyatga yo‘naltirilganlikni ham o‘z ichiga olishi kerak. Tarix ta’limi orqali o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy ong va fuqarolik mas’uliyati shakllantiriladi. Shu bois o‘quv mazmuni nafaqat bilim berishga, balki shaxsning ma’naviy rivojlanishiga ham xizmat qilishi lozim. Yuqoridagilar asosida integrallashgan o‘quv mazmunini yaratish quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: tarixiy bilimlar tizimini shakllantirish, pedagogik va metodik bilimlarni integratsiya qilish, fanlararo aloqadorlikni ta’minlash, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish, epistemologik yondashuvni hisobga olish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda qadriyatga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish.

Nazariya va amaliyot integratsiyasini ta’minlash texnologiyasi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko‘ra, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi faqat nazariy

bilimlar bilan chegaralanib qolmasligi, balki ularning real pedagogik faoliyatda qo‘llanishi orqali mustahkamlanishi zarur. Shu bois nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligi o‘qituvchi tayyorlash jarayonining metodologik asosi sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, nazariya va amaliyotning ajralib qolishi o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim to‘siqlardan biri hisoblanadi. Nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan mustahkamlanmagan taqdirda, ularning samaradorligi pasayadi. Aksincha, nazariy asosga ega bo‘lmagan amaliy faoliyat esa tizimsiz va samarasi past bo‘lishi mumkin. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimi paradigmalarida nazariya va amaliyotni integratsiyalash o‘qituvchi tayyorlashning asosiy sharti sifatida e’tirof etiladi. Nazariya va amaliyot integratsiyasi, avvalo, o‘quv jarayonining mazmuniy va tashkiliy jihatdan qayta qurilishini talab etadi. Bu jarayonda nazariy bilimlar bevosita amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘lanadi. Mazkur integratsiya jarayonida pedagogik amaliyot alohida o‘rin tutadi. Pedagogik amaliyot bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy faoliyatga moslashuvini ta’minlovchi muhim bosqich hisoblanadi. Amaliyot davomida talabalar real dars jarayonini kuzatadi, mustaqil ravishda dars o‘tadi, o‘quvchilar bilan muloqot qiladi va pedagogik vaziyatlarni hal etadi. Bu esa ularning kasbiy tajribasini boyitadi va nazariy bilimlarini real sharoitda sinab ko‘rish imkonini yaratadi. Nazariya va amaliyot integratsiyasi jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuv ham muhim rol o‘ynaydi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchisi pedagogik faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishi, muammolarni aniqlashi va ularni hal etishda ilmiy metodlardan foydalanishi zarur. Bu esa uning kasbiy faoliyatini yanada samarali va asoslangan qiladi. Bundan tashqari, nazariya va amaliyot integratsiyasini ta’minlashda hamkorlikka asoslangan ta’lim muhim ahamiyat kasb etadi. Guruhli ishlar, dars muhokamalari, tajriba almashish orqali talabalar bir-biridan o‘rganadi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi. Zamonaviy sharoitda mazkur integratsiyani ta’minlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham muhim omil hisoblanadi. Virtual darslar, video tahlillar, onlayn platformalar orqali talabalar pedagogik faoliyatni tahlil qilish va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa nazariya va amaliyot o‘rtasidagi

Tarix fani yoshlarda tarixiy ong va tarixiy tafakkurni shakllantirib, bugungi mamlakatimiz tarixi jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi ekanligini anglashiga xizmat qiladi. Ularni ajdodlarimizning ma’naviy merosi va jasoratlaridan ibrat olishga, ularga munosib voris bo‘lishga o‘rgatish orqali ularni tarixiy voqealarni idrok etishga yo‘naltirish, ularning o‘zligini anglash, shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradigan tushunchalar, milliy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalaydi. Tarix fanlari va tarix o‘qitish metodikasi fani o‘zining alohida o‘rganish obyekti, vazifasi hamda tadqiqot metodiga ega. Tarix fanlari kishilik jamiyatining taraqqiyoti jarayonini o‘rganadi. Kishilik jamiyatining taraqqiyot qonunlarini bilish o‘tmish va hozirgi zamonni yaxshiroq tushunib olishga, kelajakni oldindan ko‘rishga imkon beradi. Metodika o‘qituvchilarni ta’lim tizimida tarix o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi qonuniyatli aloqalarni ochib berish bilan birga o‘qitishning samaradorligini oshirib borish maqsadida tarix o‘qitish jarayonini tadqiq etish metodlar bilan ham qurollantiradi.

Davlat va huquq asoslari fanini integrativ o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda huquqiy manbalardan foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali huquqiy bilimlarini oshirishga, huquqiy savodxonlikni yuksaltirishga alohida e'tibor qaratiladi. O‘quv fanini o‘rganishda o‘quvchilar huquq manbalaridan foydalana olish, o‘z huquq va manfaatlarini qonuniy himoya qilish, huquqiy voqea va hodisalarga oid to‘g‘ri xulosa chiqarish, konstitutsiyaviy burch va majburiyatlarni bilishga hamda ularga rioya qllishga o‘rgatishdan iborat Kundalik hayotda huquqiy voqea va xodisalarni idiok qilish orqali vujudga keladigan vaziyatlarni huquqiy jihatdan to‘g‘ri baholay olish va ma'qul qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Tarbiya va tarix fani integratsiyasi o‘quvchilar qalbi va ongida sog‘lom e’tiqod, dunyoqarash, tafakkur va insoniy fazilatlarni shakllantirishdan iborat. Yoshlarda fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish tamoyilini o‘zida namoyon eta olish, bugungi globallashuv

jarayonlari avj olgan davrda hushyor va ogoh yashay olishni kundalik amaliy harakatiga aylantira olish koʻnikmalarini shakllantiradi.

Ona tili va adabiyot fani integratsiyasi orqali boʻlajak tarix oʻqituvchilari tarixiy voqealarda mustaqil fikrini bayon etadi, yozma va ogʻzaki ravishda oʻz qarashlarini ifoda etish malakalarini hosil qiladi, tarixiy atamalarni toʻgʻri qoʻllash hamda bahs-munozaralar jarayonida erkin muloqot qilish koʻnikmalari rivojlanadi. Shuningdek, Oʻzbekiston va jahon tarixining oʻziga xos yutuqlarini, tarixiy namoyandalar asarlari va ilmiy merosini oʻrganadilar.

Astronomiya fani bilan oʻzaro aloqadorlikda tarixda insonlarning tabiat hodisalariga qarab, yerga ekin ekishi yoki yulduzlarga qarab, quruqlik hamda dengizda sayohatlar olib borishi natijasida yangi yerlar, savdo yoʻllarining kashf etilishi va binolar joylashishida quyoshning chiqishi, botishini inobatga olgan holda qurganligini hamda oʻzbek va jahon olimlari tomonidan yer va quyoshning aylanishi haqidagi nazariyalarni fanda isbotlaganligini, yulduzlarning joylashish oʻrnini turli asboblar yordamida aniqlay olganligini biladi.

Texnologiya fani integratsiyasidagi olgan bilimlari bilan birgalikda insoniyat tarixida foydalangan kiyimlarning tikilish uslubi, narsa-buyumlar (sopol idishlar, mehnat, ov qurollarining yasalishi va qadimgi me'morchilik uslublari haqida oʻrganadi. Transport va aloqa vositalarining yaratilish tarixini bilib oladi. Umuman olganda ishlab chiqarish munosabatlari va xususiyatlarini bilib oladi.

Geometriya fani bilan aloqadorlikda boʻlajak tarix oʻqituvchilari tarixda insonlar tomonidan turar-joylarning qurilishi, sersuv va tezoqar daryolardan tepaliklarga suv chiqarish inshootlarining yasalish xususiyatlarini oʻrganadi.

Iqtisodiy bilim asoslari fani integratsiyasidan olgan bilimlari orqali qadimgi davrdan to hozirgi kungacha davlatlardagi iqtisodiy-ijtimoiy hayot, tovar-pul munosabatlari, soliq turlari va qoʻshni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni oʻrganadi.

Biologiya fani integratsiyasi orqali bo‘lajak tarix o‘qituvchilari tarix fanida qadimgi davrdan to hozirgi kungacha odamlarning rivojlanish bosqichlarini va ularning tabiatga ta'siri hamda turli ekologik muammolarning kelib chiqish sabablarini anglaydi.

Geografiya fani integratsiyasi orqali bo‘lajak tarix o‘qituvchilari qadimgi va hozirgi davlatlar va xalqlarning geografik joylashuvi, hududlar iqlimi, iqtisodiy va tabiiy boyliklari haqidagi bilimlaridan foydalanadi.

Adabiyot va tarix darslari integratsiyasida yozuvchi tarjimayi holni yoki asarda tasvirlangan voqealarni o‘rganish ma'lum bir tarixiy davrga, tarixiy shaxslar haqidagi ma'lumotlarga tayanishni talab etadi. Oybekning "Navoiy" romanini o‘rganishda XV asrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, temuriylar tarixi haqidagi materiallarga tayanmasdan Navoiy obrazini to‘laqonli tushunish mumkin emas. "O‘tkan kunlar" romani syujetini tushunishda "tariximizning eng kir, qora kunlari bo‘lgan keyingi "xon zamonlari" - XIX asr tarixi, mustamlaka bulutlari soya sola boshlagan bir paytda millatimizning uchta xonlikka bo‘linib ketgan davr tarixiy materiallariga tayanish mavzuni oson va sifatli tushunishlarini ta'minlaydi.

Tarix ta’limining xuddi shunday nuqtalari borki, ularni o‘zlashtirish uchun aslida adabiy ta’lim bilan tabiiy ravishda mavjud bo‘lgan integratsiyani topa olish o‘qituvchining pedagogik va kasbiy kompetensiyalariga bog‘liq bo‘ladi. Integratsiyaga asoslangan tarix darslarida individual va guruhli holda bajariladigan rivojlantiruvchi vazifalarni berib, o‘qitishning tadqiqot metodidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu nafaqat bllimlarni kengaytirish, balki bo‘lajak tarix o‘qituvchilarning qiziqish doiralarini o‘stirish, o‘quv materialini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish imkonini ham beradi.

Milliy o‘quv dasturi talablari barcha ta’lim muassasalari uchun majburiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarix o‘qitish metodikasi o‘rganadigan eng muhim qonuniyatlardan biri umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limida tarix fanlarini o‘qitish

jarayonining rivojlanish qonuniyatlarini bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘rgatishdir. Bu rivojlanish ta’lim jarayonida ularning qiziqishi, bilimi, ko‘nikma, malakalari hamda tafakkurining o‘sib borishida namoyon bo‘ladi, ayni bir vaqtda bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining har tomonlama yanada kamol topishini ta'minlaydi.

Demak, metodika pedagogik jihatdan yaxshi natijalarga erishish maqsadida tarix o‘qitishdagi pedagogik jarayonda yaxshi natijalarga erishishni ko‘zda tutadi. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim metodlaridan foydalanganda metodning samaradorligini bilishi muhim. Buning uchun har bir pedagog hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, yetarli bilimlar bilan qurollangan, ta’lim oluvchilarga nisbatan muammolarning yechimini his eta oladigan va ularni yosh avlodga yetkazish malakasiga ega bo‘lishi lozim.

Tarix fanlarini o‘qitishning maqsadi juda ham dolzarb bo‘lib, shaxsning ijtimoiylashuviga, ya'ni uning shaxs sifatida o‘z taqdirini o‘zi belgilashiga, jamiyatdagi o‘rnini, tarixiy ildizlarini tushunishiga ko‘maklashishdan iborat. Tarix fanining maktabda o‘qitilish jarayonida o‘quvchining qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirishga, axloqiy muammolarni hal etishga metodik yordam va tavsiyalar berishi kerak. Bu boradagi tarixiy ta’limning maqsadi birinchi navbatda umuminsoniy qadriyatlarga, insonparvarlik tarbiyasiga e'tibor qaratishdir. Tarix fanining asosiy vazifasi vatanparvar insonni tarbiyalash, faol, ijtimoiy ijodkorlikka qodir, o‘z pozitsiyasini himoya qilishda prinsipial, demokratik o‘zini-o‘zi boshqarishda ishtirok eta oladigan, O‘zbekiston va insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri uchun mas'uliyatni his eta oladigan, o‘z madaniyatining kuchli himoyachisi bo‘lishi lozim.

Mamlakatimiz ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalarini ilg‘or davlatlar ta’limi yutuqlari bilan rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda jamiyatga zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallagan avlod tayyorlash talab etilmoqda. Biroq yangi avlodni xalq va jamiyat, miliat va davlat manfaatlarini ko‘zlaydigan, o‘zini yurt manfaatlari bilan birga

koʻradigan va islohotlarga daxldorligini, ijtimoiy mas'ulligini sezadigan etuk shaxs qilib tarbiyalash uchun barcha yoʻnalishdagi boʻlajak mutaxasislarga ijtimoiy fanlar, shu jumladan, tarix fanlari boʻyicha tarixiy tafakkur, milliy oʻzlikni anglash, tarixiy idrok va tarixiy bilimlarga xos kompetensiyalarni shakllantirish lozim. Maktab ta'limida boshlangʻich bosqichlardanoq tarix fanlarining poydevorini qurish zarurati mavjud boʻlib, bolaligidanoq tarixiy tasavvur va idrokni shakllanishi uning keyingi faoliyatiga katta ta'sir koʻrsatadi. Zero, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ham ijtimoiy fanlar sohasida odob-axloq qoidalarini va ma'naviyatning oddiy tushunchalari va sodda talablarini boshlangʻich sinflardan oʻrgata boshlash zarurligi ayni haqiqat[200],deya ta'kidlab oʻtdi.

Bugun yangi axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan dars oʻtishni tasavvur etib boʻlmaydi, material mazmunini sezilarli darajada chuqurlashtirish, qidiruv ishlarini tezlashtirish va diversifikatsiya qilish noan'anaviy oʻqitish usullaridan foydalanish esa oʻquvchilarning tarixiy materialni oʻzlashtirishda amaliy koʻnikmalarini shakllantirishga sezilarli ta'sir koʻrsatadi, ushbu fanga boʻlgan qiziqish yanada kuchayadi. Dars jarayonida maktabda tarix oʻqitish koʻpincha oʻqitish metodlarining mavzuga muvofiq tanlanmaganligidan aziyat chekadi, ayniqsa mavzu bevosita qoʻshimcha manbalarni, tarixiy dalillarni talab qilsa va bunda material va hodisalarning parchalanishi mavjud boʻlsa bu ta'lim oluvchining fanni oʻzlashtirishiga salbiy ta'sir koʻrsatishi mumkin. Agar butun mavzu boʻyicha material oddiygina bir nechta darslarda hikoya, ma'ruza orqali uzatilsa, mavzu mazmuniga koʻra manbalar tizimlashgan holda taqdim etilmasa, mustaqil oʻzlashtirishdagi trayektoriya belgilab berilmasa oʻquvchi faoliyatida chalkashlik vujudga keladi. Bitta vizual zanjirga qurilgan, oʻquvchi tomonidan aniq tushunilgan, kichik mavzular ta'kidlab oʻtilgan bir biriga

[200] Мирзиёев Ш.М Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси.232-бет.

yaqin voqea va dalillar algoritmik asosda qurilgan jarayon yuqori natijaga olib keladi. Tarixiy xodisaning yaxlit ko‘rinishi, yagona zanjiri: "sabab-hodisa-oqibat" tarzida shakllantiriladi. Tarix dasrlarida rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillariga asoslangan metodikadan foydalanish samarali bo‘lib, ushbu texnologiya rnaktab o‘quvchilarining nazariy tafakkurini shaklantirishga qaratilgan. Nazariy tafakkur hodisalarning kelib chiqish jarayonini, nima uchun u yoki bu shaklga ega ekanligini aniqlaydi.

Pedagogik faoliyatni tadqiq etish mantiqi, pedagogik tashxislashning turli metodikalarini birlashtirish zaruriyati N.V. Kuzminaning ishlarida keng yoritilgan. Tadqiqotning so‘rov, kuzatish, baholash (reyting), o‘z – o‘zini baholash, juft qiyoslash, sotsiometriya va eksperiment kabi metodlarini o‘rganar ekan, u aynan “o‘z–o‘zini baholash, o‘z–o‘zini anglash usullaridan biri sifatida shaxsning barcha imkoniyatlarini namoyon qilishga, uning xulqiga, xarakteriga, faoliyat sur’atiga ta’sir etishini” ta’kidlaydi. O‘qituvchining pedagogik bilim va malakalari tizimini tavsiflab, N.V.Kuzmina o‘qituvchining bilish va o‘rganish malakalari ichidan uning pedagogik faoliyati uchun zarur bo‘lgan afzalliklarni va nuqsonlarni ongli ravishda bilib tuzatish yoki takomillashtirish maqsadida tahlil qila olish qobiliyatini ajratib ko‘rsatadi.[201]

I.P.Rachenkoning fikricha, o‘qituvchining o‘zi, o‘z shaxsi haqidagi tasavvuri, ijobiy MEN – konsepsiyasini shakllantira olishi uning ijodiy faolligini rivojlantirishning kafolati sanaladi.[202]

Yuqorida bayon qilingan fikrlar o‘qituvchining kasbiy refleksiyasi, o‘z – o‘zini yuqori darajada baholashni ta’minlab, o‘qituvchiga o‘z pedagogik mahoratini takomillashtirish yo‘lidan maqsadli faoliyat olib borish imkoniyatini beradi.

O‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirishning asosiy yo‘li – bevosita ta’lim muassasasida ilmiy asosda tashkil qilingan tadqiqotchilik ishi, deb hisoblagan V.P.Simonov mohir o‘qituvchi shaxsi va faoliyati samaradorligini tashxislash uchun

[201] Ochilova G.O. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 228b.

[202] Ochilova G.O. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 228b.

asosiy kasbiy ahamiyatli ko‘rsatkichlarning tizimini va taxminiy mazmunini ishlab chiqdi. U taklif qilgan metodikalar, muallifning fikricha, nafaqat o‘qituvchining ta’lim faoliyati, balki u bilan o‘zaro faoliyat olib boradigan o‘quvchilarning o‘quv faoliyati samaradorligini ham aniqlash imkoniyatini beradi. O‘qituvchining ahamiyatga molik bo‘lgan kasbiy sifatlarini tashxislash natijalarini olim uch xil yo‘nalishda baholaydi: optimal, yo‘l qo‘yiladigan va tanqidiy daraja bo‘yicha. V.P.Simonov hamma vaqt ham ijobiy natija beravermaydigan tekshiruvchilarning yuzaki yondashuvi o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini ma’lum darajada buzadi yoki noto‘g‘ri kategoriyalaydi, ularning pedagogik tashabbuskorligini va mustaqilligini so‘ndiradi, olim har bir o‘qituvchida o‘z pedagogik faoliyatini “ishonchli va isbotli” natijalar bilan baholash va uning natijalari hamda samaradorligi haqida gapirish malakasini rivojlantirish zarurligini aytadi.[203]

Kasbiy pedagogik faoliyatni tahlil qilish va o‘z–o‘zini tahlil qilishni o‘qituvchi faoliyati va refleksiv pozitsiyasi nuqtayi nazaridan tuzatish va takomillashtirish maqsadida pedagogik vazifalarni hal qilishga qaratilgan pedagogik malakalar yig‘indisi sifatida qarab, A.V.Xristeva analitik malakalar tizimini analitik faoliyat tizimi bilan nisbatlaydi. U kasbiy pedagogik faoliyatni tahlil va o‘z – o‘zini tahlil qilishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko‘rsatadi: mazmunli – diagnostik (tayyorlov - moslashuv) bosqich; maqsadli loyihalashtirish (tahlil va o‘z-o‘zini tahlil qilishdan maqsadni aniqlashtirish) bosqichi; texnologik (kasbiy pedagogik faoliyat jarayonini va o‘z–o‘zini tahlil qilish) bosqich; tahlil va o‘z–o‘zini tahlil qilishning nazariy (pedagogik faoli- yatning mohiyati, natijalari bilan pedagogik faoliyat jarayoni o‘rtasidagi aloqalarning sabab va oqibatlarini nazariy anglash) bosqichi; faoliyatni refleksiv baholash (faoliyatni baholash va refleksiv tahlil) bosqichi; korreksiyalash (ijodiy bosqich bo‘lib, o‘z pedagogik faoliyatini nazariy jihatdan anglash va baholash asosida takomillashtirish va ham- kasblarining samarali pedagogik tajribalaridan ijodiy foydalanish yo‘llari va usullari belgilanadi) bosqichi.[204]

[203] Ochilova G.O. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 228b.
[204] Ochilova G.O. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 228b.

Muallif taklif qilgan analitik faoliyat algoritmi interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o‘tishi) jarayonida tashqi faoliyatning ichki faoliyatga o‘tish mexanizmi qanday rivojlanishi, ichkisi esa, o‘z navbatida, tashqi faoliyat orqali o‘z-o‘zini o‘zgartirishini (uning davomida o‘qituvchilar kasbiy refleksiyasining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan analitik darajasi o‘zgaradi) tushunish imkoniyatini beradi.

N.A.Evert, A.I.Sosnovskiy, S.N.Kuliyev pedagogik mahorat tizimidan uchta asosiy: estetik (axloqiy), ijtimoiy–psixologik va texnologik kabi tarkibiy qismlarni ajratib, o‘qituvchi pedagogik mahoratining diagnostik dasturini ishlab chiqishadi va quyidagi bloklarni farqlaydilar: yuksak ma’naviy barkamollik; o‘qituvchining individual – psixologik xususiyatlari;hamkasblari bilan pedagogik hamkorlik; pedagogik texnikani o‘zlashtirish; shaxsiy kasbiy xususiyatlari; ijobiy natijalarga oson erishish.[205] O‘qituvchining ijtimoiy–psixologik shakllanishida o‘z ustida ishlashi murakkab tizimga ega. Bunda o‘qituvchi ekstensiv, taxminiy, metodologik, kommunikativ, psixologik hamkorlikda ijodkorlik vazifalarini bajaradi. Diagnostik dasturda o‘qituvchi kasbiy tayyorgarlik jarayonida tadqiqotchilik, mohirlik, reproduktiv (xotirada saqlash), rasmiy – ijrochilik kabi faoliyat bo‘yicha muntazam ish olib boradi. Ushbu faoliyat dasturlari, ayniqsa, yosh o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida duch keladigan ijtimoiy munosabat, sinfdan qo‘rqish, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatda ziddiyat hosil bo‘lishi kabi psixologik to‘siqlarni yengishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimlarning pedagogik mahorat tahliliga bu kabi chuqur yondashuvida barcha o‘zaro bog‘langan tizimlarni birdaniga qamrab olish amalda mumkin emas. Natijalar haddan ziyod katta hajmda, tarqoq bo‘ladi, eng asosiysi, bu holda pedagogik mehnatning alohida bo‘g‘inlari tahliliga chuqur yondashib bo‘lmaydi. Umuman pedagogik faoliyat doimiy ravishda o‘z-o‘zini tahlil etish, o‘qituvchi refleksiyasi rivojlanishining tashabbuskori bo‘la oladigan o‘ziga xos “tezlashtiruvchi” rolini o‘ynamog‘i kerak.

[205] Ochilova G.O. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 228b.

V.A.Suxomlinskiy pedagogik faoliyatga shunday ta’rif beradi: “pedagogik rahbarlikning sirlaridan biri o‘qituvchilarda muntazam izlanish va o‘z ishining tahliliga qiziqish uyg‘otishdan iborat. Kimki o‘z darslarida, tarbiyalanuvchilar bilan o‘zaro munosabatlarda yaxshi va yomonni farqlashga, yutuq va kamchiliklarini o‘z vaqtida bilishga urinsa, pedagogik faoliyatning yarim muvaffaqiyatiga erishgan bo‘ladi”.[206]

Xuddi shu nuqtayi nazardan ilgari surilgan g‘oyani V.I. Zagvyazinskiyda ko‘ramiz: u “har bir o‘qituvchi mustaqil ravishda o‘z imkoniyatlarini aniqlashi, o‘z qobiliyatlarini va pedagogik mahoratini rivojlantirishi kerak. O‘zida ko‘p narsani kashf qilish, tavsiya qilinganlardan ko‘pini sinab ko‘rish, baholash lozim, o‘qituvchi o‘zini o‘zi yaratadi, kosib yoki ijodkor bo‘lishini ham o‘zi belgilaydi”.[207]

O‘zining pedagogik tajribasini tahlil qilib, o‘qituvchi o‘z diqqatini tobora muvaffaqiyatli jihatlarga qaratadi, o‘zining ish samaradorligini pasaytirayotgan pedagogik muammolarni va qiyinchiliklarni ham ko‘ra olib, uni bartaraf etish yo‘llarini topadi.

Pedagogik faoliyatda uchraydigan qiyinchiliklarning dastlabki tad- qiqlaridan birini N.V.Kuzminada ko‘ramiz. U o‘qituvchi duch keladigan dastlabki qiyinchiliklarni “pedagogik faoliyatning tashqi omillari keltirib chiqaradigan va ichki omillarning xarakterida, kishining faoliyatga ta’limiy, ma’naviy va jismoniy jihatdan tayyorgarligida paydo bo‘ladigan keskinlik, beparvolik, qoniqmagan- likning subektiv holatidir” deb ta’riflaydi .[208]

T.S.Polyakovaning ishi endigina o‘z faoliyatini boshlayotgan o‘qi- tuvchilar duch keladigan tipik didaktik qiyinchiliklarga bag‘ishlangan. U didaktik qiyinchiliklarga shunday ta’rif beradi: “Didaktik qiyin- chiliklar – o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi qiyinchiligi bo‘lib, uni hal qilish uchun shart-sharoitlar yo‘qligi, keskinlik, beparvolik, o‘z ishidan qoniqmaganlikning psixologik holati yoki aksincha,

[206] Ochilova G.O. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 228b.

[207] Ochilova G.O. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 228b.

[208] Ochilova G.O. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 228b.

uni bartaraf qilish uchun sharoitlar ta’minlangani holda pedagogik mahoratni takomillashtirish, pedagogik “fikrlashni”, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishni ta’minlaydigan tetiklik, mobilizatsion tayyorgarlik, emotsional ko‘tarinkilik holatining mavjud emasligi”. T.S.Polyakova pedagogik faoliyatdagi qiyinchiliklar va ziddiyatlar uzoq muddat hal qilinmaganda, muvaffaqiyatsizlik vaziyatida nafaqat psixologik uzilishlar, balki o‘z-o‘zini baholashning pastligi, pedagogik mahoratni takomillashtirishning tormozlanish manbasi sifatida salbiy rol o‘ynashini aytadi. Pedagogik vazifalarga faol munosabatning zarur sharti bo‘lgan rag‘batlantiruvchi vazifa esa ijobiy rol o‘ynashini ta’kidlab, o‘qituvchining shaxsiy pedagogik mahorati zaxirasini safarbar qiladi, uni ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish manbayi deb hisoblaydi.[209]

Qiyinchiliklarning pozitiv roli uning indikatorlik (hisoblovchi) vazifasi bilan ham belgilanadi. “Indikatorlik vazifasi pedagogik mahoratning shakllanish jarayonini tormozlovchi obektiv omillarni ajratadi, biroq u o‘z – o‘zini baholash tarzida subektiv namoyon bo‘lishi, shaxs uchun faoliyatning tobora qiyin jihatlarini aniqlab berishi mumkin”. Demak, o‘z pedagogik faoliyatini endigina boshlagan yosh o‘qituvchi aslo jismonan va ruhan bo‘shashishi, butunlay osoyishtalikka berilishi mumkin emas. Bu tuyg‘u psixologiya fanida relaksatsiya deb atalib, kishilarning ish faoliyatida salbiy holatlariga beriladigan baho sifatida e’tirof etiladi.

Y.S. Turbovskiyning fikricha, kasbiy takomillashuvning salbiy «energetik asosi» bo‘lgan qoniqmaslik hissi, rivojlanishda to‘xtab qolganlikni chin ko‘ngildan his etish sanaladi. “Buyruq, chaqiriq va nazorat emas, balki aynan o‘qituvchining o‘z faoliyatidan qoniqmaslik hissi, yuzaga kelgan pedagogik ziddiyatni boshqacha qilishga, buning uchun yangi vositalarni izlab topishga va uni o‘zlashtirishga ongli ravishda intilishini ta’minlaydi, qiyinchilik va ziddiyatlarni bartaraf etishdan, shaxsan

[209] Ochilova G.O. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 228b.

o‘zi hal qilgan tadqiqotchilik vazifasidan ijodiy quvonish, qoniqish hissi – o‘qituvchi kasbiy komponentining asosiy manbasiga aylanadi, aniqrog‘i, aylanishi mumkin”.[210]

Y.S. Turbovskiy tomonidan ishlab chiqilgan, pedagogik tajribani diagnostik o‘rganish nazariyasi va metodikasi har bir pedagogik jamoada va jamoaning har bir a’zosida pedagogik kasbiy faoliyat xususiyatlarini o‘rganishda yagona maqsad uchun harakatlanishga imkoniyat beradi, bu o‘z navbatida, o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirish mexanizmini yaratish uchun zamin hozirlaydi.

Pedagogik tashxislash konsepsiyasi pedagogika fani va ta’lim muassasalari amaliyotining o‘zaro hamkorlik jarayonini boshqarish imkoniyatini ta’minlaydigan uchta metodologik asosni o‘z ichiga oladi: ma’lum bir pedagogik mahorat pozitsiyasini egallash;ma’lum bir maqsadga yo‘nalganlik; pedagogik mahoratni egallashga bo‘lgan ehtiyoj.[211]

Turli boshqaruv tizimlari nuqtayi nazaridan aynan bir xil natijalar u yoki bu muammoning dolzarbligi bilan belgilanadigan turlicha ahamiyat kasb etishi mumkin. Ish tajribasidan foydalanish hajmi va miqyosi ham har xil bo‘ladi. Konsepsiya mualliflari integratsion fan yutuqlaridan foydalanish samaradorligi, olimlar erishgan natijalar, amaliyotchilar unga ehtiyoj sezgan joyga borib yetishi, ilmiy bilimlarning ma’lum bir maqsadga yo‘nalganligiga bog‘liqligini ta’kidlaydilar.

Fanning u yoki bu tarzdagi tavsiyalari pedagogikada ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan g‘oyalar bilan ta’minlashdan avval amaliyot asosida aniqlangan ehtiyoj bo‘lishi kerak. O‘qituvchi mehnatini o‘rganish jarayonida qator shart-sharoitlarga rioya qilish ko‘zda tutiladi. A.K.Markovaning fikricha, nafaqat o‘qituvchilik kasbida uzoq o‘tmish tajribalaridan foydalanish darkor, balki o‘qituvchi kasbiy rivojlanishining eng yaqin va olis istiqbollarini ham o‘tmish tajribalaridan foydalanish asosida belgilash zarur.

Bu o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonida paydo bo‘ladigan muammosi aynan nimadan iboratligini va uning sababi aynan nima ekanligini aniqlash, sabab va

[210] Ochilova G.O. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 228b.

[211] Ochilova G.O. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021, 228b.

oqibatlarini pedagogik qiyinchilik oqibati bilan qorishtirmaslikka imkoniyat beradi. Bunda pedagogik tashxislashning o‘qituvchi kasbiy faoliyatini tezkor korreksiyalash imkoniyatini beradigan o‘ziga xos indikatorlik (hisoblash) vazifasi namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchining o‘z potensial imkoniyatlarini baholash diagnostika davomida har qanday holatda ham e’tiborga olinishi lozim, - deb ta’kidlaydi A.K.Markova, - unga ishonch bildirish kerak, uning kasbiy faoliyatiga bahoni oshirib yoki pasaytirib qo‘yish o‘qituvchi kasbiy rivojlanishini to‘xtatib qo‘yishi mumkin. Ushbu o‘qituvchining indivi- dual rivojlanish mantiqini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchining yutuqlarini boshqa o‘qituvchilarning yutuqlari bilan emas, balki o‘zining oldingi yutuqlari bilan ham taqqoslash kerak.

Shaxsiy pedagogik faoliyatni o‘z–o‘zida tahlil qilish jarayonida o‘qituvchi o‘zining ta’lim–tarbiyaviy faoliyati natijalari va xususiyatlarining holatini o‘rganadi, pedagogik ziddiyatlar o‘rtasidagi sabab va oqibatli bog‘lanishlarni aniqlaydi, o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishni yanada takomillashtirish yo‘llarini belgilaydi, - deb ta’kidlaydi L.E.Pleskach. Olimning fikriga ko‘ra, “Refleksiya – o‘z– o‘zini tahlil qilish bo‘lib, o‘z–o‘zicha belgilangan maqsadga erishish emas, balki bilim olish, tajriba orttirish usuli, ijodga, kasbiy jihatdan takomillashishga nisbatan rag‘batlantirishdir”.

Ilmiy adabiyotlar tahlili, shuningdek o‘qituvchi faoliyatida pedagogik tajriba o‘qituvchilar pedagogik mahoratini oshirishning diagnostik metodikalaridan foydalanish va olingan natijalar tahlili pedagogik tashxislashni o‘qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlanishini ta’minlaydigan, bo‘lajak tarix o‘qituvchisining kasbiy rivojlanish trayektoriyasini belgilaydigan usullardan biri sifatida baholashga imkoniyat beradi. Zero, o‘qituvchi ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganishda “tajriba o‘rganishdan maqsad va uning vazifalarini rejalashtirish, dolzarb mav- zuni aniqlash, maktab amaliyotida mohir o‘qituvchilarning yutuqlarini o‘rganish, materiallarni to‘plash, tahlil qilish, xulosa chiqarish” kabi vositalardan foydalanadilar. Shuningdek, ta’kidlamoqchimizki, pedagogik tashxislash qayd qiluvchi emas, balki maqsad hosil qilishni belgilovchi (prognostik) xarakterga ega bo‘lganligida samarali bo‘ladi, bu

o‘qituvchining kasbiy refleksiyasi rivojlanishi asosida amalga oshiriladi. Ayni paytda aynan ta’lim–tarbiya jarayonida maqsad hosil qiluvchi tashxislash uning rivojlanish qobiliyatini ta’minlaydi.

Pedagogik texnologiyalarni implementatsiyalash o‘qituvchidan fanni o‘qitishda zamonaviy pedagogik bilim, ko‘nikma va malakani ham talab etadi, ya’ni o‘qituvchi qaysi texnologiya yoki metod qaysi mavzu uchun qulay va o‘rinli ekanligini bilishi uchun, avvalo, shu texnologiyalar haqida kerakli bilimga ega bo‘lishi muhim sanaladi.[212] Pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga olib kirishni oldindan loyihalash lozim. Bunda joy va sharoitlarni ham hisobga olish zarur. Ba’zi texnologiyalarni qo‘llash uchun sinf xonasida yetarlicha sharoit bo‘lmasligi ham mumkin. Yana bir jihat pedagogik texnologiyalarni tanlashdan oldin o‘quvchi-talabalarning bilim salohiyatini ham hisobga olish zarur. Dastlab ular uchun sodda va osonroq metodlarni dars jarayonida qo‘llab, so‘ngra ularda bu kabi darslarga ko‘nikma hosil bo‘lgach, metod va texnologiyalarning murakkabrog‘idan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Pedagogik texnologiyalarni tarix fanini o‘qitishda implementatsiyalash o‘quvchi-talabalarda quyidagi xususiyatlarni rivojlantiradi: -avvalo, ularni tarix faniga qiziqishlarini orttiradi;-ularda mustaqil va erkin fikrlash ko‘nikmalarini yanada shakllantiradi; -mantiqiy va tezkor fikrlashga o‘rgatadi; -o‘zlarini tahlil qilish va baholashga o‘rgatadi; -bilim sohasida o‘zgalardan ortda qolmaslikka o‘rgatadi; -mushohadali bo‘lishga o‘rgatadi; ularda tahliliy- tanqidiy yondashuvni rivojlantiradi; -ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi; - natija va maqsadga intilishning muhim ekanligi haqida tushunchaga ega bo‘lishadi; -ulardagi tortinchoqlik o‘rnini faollik degan muhim tushuncha egallaydi…

Interfaol yoki interaktiv metodlar deganda ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim

[212] ZiyomuhammedovB. Pedagogik mahurat asoslari. – T., 2009. – B. 150.


beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yodoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: -ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish; -ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi; -ilgari orttirilgan bilimning ham e‘tiborga olinishi; -o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi; -ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas‘uliyatining qo‘llab -quvvatlanishi; -amalda bajarish orqali o‘rganilishi; -ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.[213]

O‘qituvchi tomonidan o‘z kasbiy faoliyati natijalarini anglab yetishi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishini yanada takomillashgan usullarini izlash va ularni o‘zlashtirish zaruriyatini ta’minlaydi. Faoliyatni o‘zgartirish esa, ma’lumki, faoliyat subektining o‘zgarishiga olib keladi.

O‘qituvchining analitik (tahlil qilish) qobiliyatlari rivojlanishi jarayonida uning kasbiy refleksiyasi ham rivojlanadi, bu o‘z navbatida, o‘qituvchining o‘z–o‘zini rivojlantirish jarayonini ma’lum bir yo‘nalishga solib, uning shaxsiy ijodiy faolligini oshiradi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini samarali tashkil etish ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik paradigmada o‘qituvchi tayyorlash jarayoni murakkab, ko‘p komponentli va integrativ tizim sifatida qaraladi. Shu bois mazkur jarayonni ilmiy asosda tashkil etishda metodologik integratsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Metodologik integratsion yondashuvlar mohiyatan turli ilmiy nazariyalar, pedagogik konsepsiyalar va metodlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali ta’lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etishni anglatadi. Bu yondashuv bo‘lajak tarix o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini kompleks shakllantirishga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlarda bunday yondashuv o‘qituvchi tayyorlash jarayonining samaradorligini oshiruvchi asosiy metodologik omil sifatida e’tirof etiladi.

[213] SH.S.Boymirzayev. Tarix fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish. – N., 2022. – B. 21-23.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini amalga oshirishda quyidagi asosiy metodologik integratsion yondashuvlar ajratib ko‘rsatiladi:



2.4.-rasm.Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning metodologik yondashuvlari

Tizimli yondashuv zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ta’lim jarayonini yaxlit, o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan murakkab tizim sifatida qarashni nazarda tutuvchi muhim metodologik yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra har qanday pedagogik jarayon alohida komponentlar yig‘indisi emas, balki maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalarning o‘zaro uzviy aloqasi asosida faoliyat yurituvchi tizimdir. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini tashkil etishda tizimli yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi tayyorlash jarayoni ko‘p komponentli bo‘lib, u nazariy bilimlar, metodik tayyorgarlik, amaliy faoliyat va shaxsiy rivojlanish kabi elementlarning o‘zaro integratsiyasini talab etadi. Shu bois ushbu jarayonni tizimli asosda tashkil etish uning samaradorligini ta’minlaydi. Tizimli yondashuvning asosiy mohiyati pedagogik jarayonni yagona tizim sifatida ko‘rib, uning barcha elementlarini o‘zaro uyg‘un holda tashkil etishdan iborat. Bu yondashuvda har bir komponent o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning biridagi o‘zgarish boshqa komponentlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘quv mazmunidagi o‘zgarish metod va vositalarning yangilanishini talab etadi, bu esa

natijalarga ta’sir qiladi. Tizimli yondashuvni ta’lim jarayonida qo‘llash bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining bilimlarini tizimli ravishda shakllantirish, ularning kasbiy tayyorgarligini izchil rivojlantirish va pedagogik faoliyatga tayyorlash imkonini beradi. Zamonaviy tarix darsida tizimli yondashuv raqamli vositalar bilan boyitiladi. Elektron xaritalar, virtual muzeylar, raqamli arxivlar, tarixiy suratlar banki, video lavhalar va interaktiv platformalar tarixiy materialni turli rakurslardan o‘rganish imkonini beradi. Biroq bu vositalar shunchaki ko‘rgazma emas, dars tizimining tarkibiy qismi bo‘lishi kerak. Masalan, video lavha motivatsiya bosqichida muammo qo‘yish uchun, elektron xarita sabab-oqibat bog‘lanishini ko‘rsatish uchun, raqamli hujjat esa dalil tahlili uchun ishlatilsa, raqamli vositalar tizimli yondashuvga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, tizimli yondashuv tarix darslarini mazmunan yaxlit, metodik jihatdan puxta va natijaga yo‘naltirilgan holda tashkil etish imkonini beradi. Bu yondashuv orqali o‘quvchi tarixiy voqealarni izchil va bog‘liq holda tushunadi, dalillar bilan ishlashga o‘rganadi, tanqidiy fikrlashi rivojlanadi va tarixni hayotiy hamda ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘lay oladi. Shu sababli tizimli yondashuv tarix darsining nafaqat nazariy, balki amaliy samaradorligini ham oshiruvchi muhim metodologik asos hisoblanadi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv zamonaviy pedagogikaning muhim metodologik asoslaridan biri bo‘lib, u ta’lim jarayonida talabaning faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra bilimlar tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchi yoki talaba tomonidan faoliyat jarayonida egallanadi, qayta ishlanadi va amaliyotda qo‘llanadi. Pedagogika va psixologiya fanlarida faoliyat nazariyasi asoslari L. Vygotskiy, A. Leontev kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda insonning rivojlanishi uning faoliyati bilan bevosita bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayonida faoliyat trayektoriyasini tashkil etish shaxsning intellektual va kasbiy rivojlanishining asosiy omili sifatida qaraladi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlashda faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv alohida ahamiyatga ega, chunki tarix fanini o‘rganish faqat tayyor ma’lumotlarni yodlash emas, balki tarixiy

jarayonlarni tahlil qilish, dalillarni solishtirish, xulosalar chiqarish va ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llashni talab etadi. Shu sababli mazkur yondashuv talabalarda tarixiy tafakkur va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy mohiyati shundaki, unda ta’lim jarayoni bilim berishga emas, balki faoliyatni tashkil etishga yo‘naltiriladi. Talaba bilimni egallash jarayonida turli amaliy topshiriqlarni bajaradi, muammoli vaziyatlarni hal qiladi, mustaqil izlanish olib boradi va natijada o‘z bilimini shakllantiradi. Bu esa uning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy ta’lim paradigmalarida ushbu yondashuv raqamli texnologiyalar bilan uyg‘un holda qo‘llaniladi. Interaktiv platformalar, elektron resurslar va virtual laboratoriyalar talabalarning mustaqil faoliyatini kengaytiradi va ta’lim jarayonini yanada samarali qiladi. Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali talaba bilimni faoliyat jarayonida egallaydi, tanqidiy fikrlash, mustaqil izlanish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Natijada u zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan, faol va ijodkor, faoliyat trayektoriyasiga ega pedagog sifatida shakllanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta’lim tizimining asosiy metodologik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u ta’lim natijalarini faqat bilimlar hajmi bilan emas, balki amaliy faoliyatda qo‘llaniladigan kompetensiyalar orqali baholashni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra o‘quvchi yoki talaba bilimni egallash bilan birga, uni turli vaziyatlarda qo‘llay olish, muammolarni hal etish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Pedagogik adabiyotlarda kompetensiya tushunchasi shaxsning bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba va qadriyatlar asosida muayyan faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan kompetensiyaviy yondashuv ta’lim mazmunini amaliy faoliyatga yo‘naltiradi va o‘quvchini real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash, faoliyat trayektoriyasini belgilashni maqsad qiladi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida kompetensiyaviy yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi, chunki tarix

o‘qituvchisi nafaqat tarixiy bilimlarni bilishi, balki ularni o‘quvchilarga yetkazish, tarixiy jarayonlarni tahlil qilish, dalillar asosida xulosa chiqarish va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Kompetensiyaviy yondashuvni ta’lim jarayonida implementatsiyalash bir qator pedagogik metodlar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, muammoli o‘qitish, veb-kvestlar, tarixiy simulyatsiyalar, keys-stadi, loyiha faoliyati, tadqiqotga asoslangan ta’lim va interaktiv metodlar bu yondashuvni samarali joriy etishga xizmat qiladi. Ushbu metodlar orqali talaba bilimni mustaqil egallaydi, uni amaliy vaziyatlarda qo‘llaydi va o‘z kompetensiyalarini rivojlantiradi. Tarix darslarida kompetensiyaviy yondashuv quyidagicha namoyon bo‘ladi: o‘quvchilar tarixiy voqealarni tahlil qiladi, manbalar bilan ishlaydi, dalillarni solishtiradi, o‘z fikrini asoslaydi va mustaqil xulosalar chiqaradi. Bu jarayonda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi va fasilitator rolini bajaradi. Zamonaviy ta’lim paradigmalarida kompetensiyaviy yondashuv raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshiriladi. Elektron platformalar, multimedia vositalar va interaktiv ta’limni diversifikatsiyalash talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Integrativ yondashuv zamonaviy ta’lim nazariyasida muhim metodologik yo‘nalishlardan biri bo‘lib, u ta’lim jarayonida turli bilimlar, fanlar, metodlar va faoliyat turlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida yaxlit bilim tizimini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv ta’lim mazmunini fragmentar (bo‘lak-bo‘lak) tarzda emas, balki tizimli va kompleks holda o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Pedagogik tadqiqotlarda integratsiya tushunchasi turli komponentlarning bir butun tizimga birlashuvi sifatida talqin etiladi. Ta’limda esa bu bilimlarning o‘zaro bog‘liqligi, mazmunning uyg‘unligi va metodlarning integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, integrativ yondashuv bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuv tarix darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. U tarixiy bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirish, murakkab tarixiy jarayonlarni chuqur anglash va o‘quvchilarda kompleks fikrlashni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga bu yondashuv

ta’lim jarayonini hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi va o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Integrativ yondashuv bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish, faoliyat trayektoriyasini belgilashning muhim metodologik asosi hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali ta’lim jarayoni yaxlit tizim sifatida tashkil etiladi, bilimlar, metodlar va kompetensiyalar o‘zaro uyg‘unlashadi. Natijada bo‘lajak tarix o‘qituvchisi keng qamrovli fikrlovchi, innovatsion va kasbiy jihatdan yetuk mutaxassis sifatida shakllanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv zamonaviy ta’lim paradigmalarining muhim metodologik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u ta’lim jarayonida o‘quvchi yoki talabaning individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va rivojlanish darajasini hisobga olishga qaratilgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra ta’limning markazida bilim emas, balki shaxs turadi, ya’ni ta’lim jarayoni shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilishi lozim. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi, chunki kelajakdagi o‘qituvchi nafaqat bilimli mutaxassis, balki shaxs sifatida yetuk, mustaqil fikrlovchi va ijodkor bo‘lishi zarur. Shu bois ta’lim jarayonida talabalar individual rivojlanish trayektoriyalarini qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy mohiyati har bir talabaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’limni tashkil etishdan iborat. Bu yondashuvda talaba passiv bilim oluvchi emas, balki faol, mustaqil va ijodiy shaxs sifatida qaraladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv tarix ta’limida quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarga mustaqil izlanish topshiriqlari beriladi, tarixiy voqealarni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish imkoniyati yaratiladi, loyiha ishlari va prezentatsiyalar orqali o‘z fikrini erkin ifodalash rag‘batlantiriladi. Zamonaviy ta’lim sharoitida ushbu yondashuv raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshiriladi. Onlayn platformalar, individual ta’lim trayektoriyalari va interaktiv resurslar talabalarning individual rivojlanishiga xizmat qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu yondashuv orqali

ta’lim jarayoni shaxs rivojlanishiga yo‘naltiriladi, talabaning individual imkoniyatlari ochiladi va uning ijodiy hamda mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Natijada bo‘lajak tarix o‘qituvchisi nafaqat bilimli, balki shaxs sifatida yetuk pedagog sifatida shakllanadi.

Epistemologik yondashuv pedagogika va didaktikaning muhim metodologik asoslaridan biri bo‘lib, u bilimning tabiati, manbalari, shakllanish jarayoni hamda ishonchliligini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, bilim tayyor va o‘zgarmas mahsulot emas, balki insonning bilish faoliyati jarayonida shakllanadigan, talqin qilinadigan va doimiy ravishda rivojlanib boradigan tizimdir. Epistemologik yondashuvning nazariy asoslari falsafa va psixologiya fanlariga borib taqaladi. Xususan, Jean Piaget bilimni konstruktiv jarayon sifatida talqin qilib, inson uni faol ravishda qurishini asoslab bergan. Shuningdek, Lev Vygotskiy bilimning ijtimoiy tabiati va muloqot orqali shakllanishini ta’kidlagan. Bu qarashlar epistemologik yondashuvning pedagogik asosini tashkil etadi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida epistemologik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy bilimlar aniq va yagona haqiqat emas, balki turli manbalar, ilmiy talqinlar va tarixiy qarashlar asosida shakllanadi. Shu sababli tarixni o‘qitishda talabalarga bilimning nisbiyligi, ko‘p variantliligi va dalillarga asoslanganligi tushuntirilishi zarur. Mazkur yondashuvning asosiy mohiyati talabaning bilimga nisbatan munosabatini o‘zgartirishdir. Talaba bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, baholovchi va qayta ishlab chiquvchi faol subyekt sifatida shakllanadi. Bu esa ta’lim jarayonining faol va interaktiv xarakter kasb etishiga olib keladi. Ushbu yondashuv orqali talaba bilimning mohiyatini anglaydi, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga o‘rganadi. Natijada u zamonaviy ta’lim talablariga javob beradigan, ilmiy tafakkurga ega va kasbiy jihatdan yetuk pedagog sifatida shakllanadi.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini amalga oshirishda metodologik integratsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuvlar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilganda, ta’lim jarayoni yaxlit va samarali

tizim sifatida tashkil etiladi. Natijada bo‘lajak tarix o‘qituvchisi chuqur bilimga ega, tanqidiy fikrlovchi, refleksiv, innovatsion va kasbiy jihatdan yetuk, individual trayektoriyasiga ega mutaxassis sifatida shakllanadi.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’lim tizimlarida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni kompleks va tizimli asosda tashkil etilmoqda. Xususan, Finlandiya, Yevropa mamlakatlari, AQSh, Kanada hamda Osiyo davlatlari tajribasida tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi fanlararo integratsiya, tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida shakllantiriladi.Xorijiy tajribalar asosida aniqlanishicha, tarix o‘qituvchisini tayyorlashda asosiy e’tibor faqat nazariy bilimlarga emas, balki ularni amaliyotda qo‘llash, tarixiy manbalarni tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni solishtirish va asosli xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi. Bu esa kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlarning ustuvorligini ko‘rsatadi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda integrativ yondashuv quyidagi omillar orqali samaradorlikni ta’minlaydi: fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, refleksiv faoliyatni rivojlantirish hamda raqamli kompetentlikni shakllantirish. Mazkur tajribalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish esa zamonaviy talablar darajasidagi, raqobatbardosh va kompetent tarix o‘qituvchilarini tayyorlash imkonini beradi.

Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Integratsion pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonida turli fanlar, metodlar, faoliyat turlari va texnologiyalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali talabaning kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi omillar tizimi hisoblanib, bu shart-sharoitlar nafaqat bilimlarni integratsiyalashga, balki shaxsning kompleks rivojlanishiga xizmat

qiladi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish integratsion pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilgandagina samarali natija beradi. Mazkur texnologiyalar ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va baholash tizimini uyg‘unlashtirish orqali talabaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi.

Integrativ yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish metodologik jihatdan asoslangan bo‘lishi zarurdir, aynan metodologik yondashuvlar ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va natijalarini belgilab beradi. Integrativ yondashuvning o‘zi turli metodologik yondashuvlarni bir tizimga keltiruvchi, ularni o‘zaro bog‘lovchi va uyg‘unlashtiruvchi asos sifatida namoyon bo‘ladi. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini amalga oshirish turli metodologik yondashuvlarning uyg‘unlashuvini talab etadi. Tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan, aksiologik, refleksiv va axborot-kommunikatsion yondashuvlar o‘zaro integratsiyada qo‘llanilgandagina samarali natija beradi. Mazkur yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni natijasida keng dunyoqarashga ega; mustaqil fikrlovchi; zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay oladigan; yuqori kasbiy kompetentlikka ega tarix o‘qituvchisi shakllanadi.

UMUMIY XULOSA

